O'ZBEKISTON OLIY VA O'RTA MAXSUS TAHLIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FALSAFA KAFEDRASI

# FALSAFA

(Muammoli mahruza matnlari)

Farg'ona

FALSAFA (Muammoli mahruza matnlari) - Farg'ona. 2009.

Mazkur muammoli mahruza matnlari Farg'ona davlat universiteti professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlandi. Unda falsafa kursining asosiy mavzulari yoritildi, mavzuning asosiy g'oyalari, tayanch iboralari, shuningdek asosiy adabiyotlar ro'yxati beriladi.

Mahruza matnlari falsafa kafedrasining 2009 yil 26 avgustdagi yig'ilishida muhokama qilingan va mahqullangan.

Taqrizchilar:

falsafa fanlari doktori, prof. A.Yo'ldoshev
falsafa fanlari nomzodi, dos. Ú.P.Po'latov

Mas'ul muharrir:

falsafa fanlari doktori, professor Mahmud ABDULLAEV

Farg'ona

# KIRISH

Milliy mustaqillik tufayli mamlakatimizda ro’y berayotgan ulkan o’zgarishlar, iqtisodiy va mahnaviy islohotlar sohasidagi yangiliklar, respublikamizning jahon hamjamiyatida tutgan o’rnining mustahkamlanib borishi har bir fuqarodan, avvalam bor yoshlardan ularni chuqurroq anglab yetish, tushunish uchun yangicha fikrlashga ega bo’lishni taqozo etadi. Tahlim to’g’risidagi Qonun, kadrlar tayyorlash Milliy dasturida yoshlarning yangicha dunyoqarashini shakllantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o’stirish, tor sohaviy tafakkur tarzidan doiraviy-falsafiy tafakkur tarziga o’tish vazifasining ishyilishining sababi ana shundadir.

Darhaqiqat, inson, uning har tomonlama uyg’un kamol topishi va farovonligi, eskirgan tafakkur aqidalaridan xalos bo’lishi va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini tubdan o’zgartirish respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi hisoblanar ekan, yoshlarimizda erkin va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalash, ularning dunyoqarashi mazmuni va doirasini kengaytirish katta ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga egadir.

Prezidentimiz tahkidlaydiki, "eng dolzarb vazifa - bu jarayonlarning ilmiy nazariy asoslarini, ularning yangi-yangi qirralarini mukammal ochib berish, o’quvchilarimiz, talabalarimizga keng jamoatchilikka sodda, lo’nda qilib tushuntirib berish va ularni yangi hayot, zamon talablariga javob beradigan jamiyat iurilishining faol va jo’shqin ishtirokchilariga aylantirishdan iboratdir." (I.A.Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq ishonchi va kelajakka ishonchdir. Toshkent, "O’zbekiston ", 2000, 19-b).

Modomiki, falsafa erkin va ijodiy fikr yuritishning asosini tashkil etar ekan, milliy mustaqillik sharoitida uning ijtimoiy hayotdagi o’rni va mavqei har qachongidan ko’ra kattadir.

Falsafiy muammolarni milliy istiqlol g’oyasi asosida yoritish, tafakkur negiziga insonni, uning taqdirini qo’yib, mustaqil fikr yuritish qobiliyatini tarbiyalash va mustahkamlash eng dolzarb masaladir. Shuni alohida tahkidlash joizki, talabalarni yangi zamonaviy usullar asosida o’qitishda muammoli yondoshuvlarning ahamiyati kun sayin ortib bormoqda. E’tiboringizga taqdim etilayotgan mazkur to’plam falsafadan bakalavriat yo’nalishlari bo’yicha talabalarga muammoli mashg’ulotlar, xususan mahruzalar o’qishga mo’ljallangan. Majmua Farg’ona davlat universiteti falsafa va sotsiologiya kafedralari ahzolari - falsafa fanlari doktori, prof. M.Abdullaev ( 1,2,3,4,5,6,7,8-mavzular), falsafa fanlari doktori, prof. Yo.Toirov (13,14-mavzular), falsafa fanlari nomzodi, dos. Q.Ro’zmatzoda (12,16,17,18-mavzular), falsafa fanlari nomzodi, dos. N.Sobirov (9,11-mavzular), falsafa fanlari nomzodi, dos.B.Xolmatova (15-mavzu), katta o’qituvchi A.Egamnazarov (10-mavzu M.Abdullaev bilan hammualiflikda)lar tomonidan tayyorlandi. Muammoli ishlanmalar, adabiyotlar ro’yxati, nazorat va mustahkamlash uchun savollarni tuzishda dos. Q.Ro’zmatzoda, dos. B.Xolmatova, dos. E.Sobirov, katta o’qituvchi A.Qambarov ishtirok etdilar.

**1-Mavzu: Falsafaning predmeti va asosiy mavzulari, falsafiy dunyoqarash va uning milliy mustaqillik sharoitida yangilanishi**

**REJA:**

1.Falsafaning predmeti va asosiy mavzulari. Falsafiy dunyoqarash.
2.Falsafaning asosiy yo'nalishlari, uning fanlar tizimidagi o'rni va vazifalari
3.Milliy mustaqillik va falsafiy dunyoqarashni yangilanish zaruriyati

MAVZUNING TAYANCH IBORALARI: falsafa, dunyoqarash, donishmandlik, nazariy bilim, mifologik dunyoqarash, diniy dunyoqarash, falsafiy dunyoqarash, ontologiya, gnoseologiya, praksqologiya, metodologiya, metod, qonun, substansiya, metafizika, falsafaning funksiyalari, demokratiya, huquqiy davlat, erkinlik, ozodlik, mustaqillik, mafkura, mahnaviyat. Mavzuning maqsadi: falsafaning mahno va mohiyatini, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va vazifalarini ochish.

Ijtimoiy taraqqiyotning har bir bosqichida hayotni yangicha fikrlash asosida tushuntiradigan nazariy bilimlarga extiyoj tug'iladi. Bu masala, tabiiyki, falsafiy tafakkur bilan uzviy bog'langandir. Eskicha yashash tamoyillarini yangisi bilan almashtirishga extiyoj tuyulgan paytda falsafa oldida quyudagi savollar turadi: endi qanday yashash lozim? Insonlar qaysi yo'ldan borishlari kerak, faoliyatlari asosiga nimani qo'yish lozim? Odamlarning orzu-umidlarini, istaklarini qay yo'sinda amalga oshirish zarur? Yashashning mahnosi nima? Bularga javob berish yangicha fikrlash tizimini yaratish bilan bog'langandir.

"Falsafa" atamasi yunonchadan olingan bo'lib ("filosofiya") donishmandlikni sevish degan mahnoni bildiradi. "Faylasuf" so'zi birinchi marta qadimgi yunon olimi Pifagor (e.o.VI asr oxiri - V asr boshlari) tomonidan ishlatilgan. Pifagorning fikricha, falsafaning mahnosi - haqiqatni izlashdir. Bunday fikrni qadimgi yunon faylasufi Geraklit (e.o. 520-460) ham ilgari surgan edi. Aflotun (e.o.428-347)ning aytishicha, falsafaning vazifasi abadiy va mutloq haqiqatga erishishdir. Arastu (e.o.384-322) falsafaning vazifasi borliqdagi umumiylikni ochish, predmeti esa borliqning birlamchi asoslari va sabablaridan iboratdir, degan fikrni bildiradi. E'tibor bering:
Birinchilardan bo'lib Aflotun va Arastu falsafaning jamiyat mahnaviy hayotidagi o'rnini belgilab bergan mutafakkirlardan hisoblanadi.

Sharqda ham falsafa haqidagi qarashlar juda qadimda yuzaga kelgan bo'lib, u donishmandlik bilan aynan teng deb hisoblanadi, falsafa bilim haqidagi umumiy tushunchadan ajratilmaydi. Eradan oldingi VIII asrda Hindistonda yaratilgan siyosat haqidagi "Artxashstre" kitobida ishlatilgan "darshana" degan tushuncha falsafani tahriflash mahnosida ishlatilgan.

Markaziy Osiyoning qadimgi yodgorligi "Avesto"da ham "faylasuf" degan tushuncha o'rnida donishmandni ifodalaydigan xratugina (donishmandlikka

boradigan) va xaratupat (donishmandlikka yetishgan) degan so'zlar ishlatilgan. Buyuk mutafakkir Forobiy falsafa so'zini hikmatni qadrlash deb talqin etgan. Xitoy falsafasida "chje-syue" (donishmandlik fani) degan atama XIX asrda shakllangan. Biroq bu qadimgi Hindistonda va Xitoyda falsafiy fikrlar bo'lmagan degan mahnoni bildirmaydi.

Shunday qilib, falsafaning mohiyati haqida so'z ketganda ayrim mutafakkirlar uni haqiqatni izlashda, boshqalari - haqiqatni o'z shaxsiy manfaatlariga moslashtirishda deb tushunadilar; bir xillari o'z fikrlarini osmon tomon, boshqalari esa - Yerga yo'naltiradilar; bir xillari ollohga, boshqalari esa - odamga murojaat qiladilar; bir xillari uchun falsafa o'z-o'zicha ahamiyatga ega, boshqalari aytadiki, falsafa jamiyat va insonga xizmat qilishi kerak va x.k. Bularning barchasi falsafaga yondoshuvlarning xilma-xilligi, uning predmetini tushunishda turlicha qarashlar mavjudligini ko'rsatadi.

E'tibor bering!

Inson mavjud ekan, olam va odam nima, ular qanday paydo bo'lgan, voqelik qanday qonuniyatlar asosida mavjud bo'ladi, o'zgaradi va taraqqiy etadi, umrning mazmuni nimadan iborat, degan muammolar uni doimo o'ylantirib keladi. Bu narsa, ayniqsa, XIX asrning II yarmida va XX asrda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu davrda nihoyatda rang-barang falsafiy maktablar, yo'nalishlar yuzaga keldi, ularda borliq, bilish, inson va insoniyatning turli tomonlari falsafaning predmeti, bahs mavzui bo'lib xizmat qiladi. Biroq bular rang-barang falsafiy konsepsiyalar o'rtasida umumiy jihatlar yo'q, degan xulosaga olib kelmasligi kerak. Falsafiy bilimlarga xos eng muhim jihatlar quyudagilarda ifodalanadi: Muammo: Kishilar borliq va unga munosabatlarini o'rgana borib, turmush tajribalari asosida shakllangan tushunchalarini tafakkurlarida qayta ishlab dunyoqarashning rang-barang ko'rinishlarini hosil qiladi.

**Birinchidan**, borliqning eng umumiy masalalarini tadqiq etish. Bunda borliq muammosi universal mahnoda tushuniladi: borliq va yo'qlik; moddiylik va ideallik; tabiat, jamiyat va inson borliq. Borliq to'g'risidagi falsafiy Tahlimot ontologiya (ontos - mavjudlik, logos - Tahlimot) nomini oldi.

**Ikkinchidan**, bilishning eng umumiy masalalarini taxlil etish. Olamni bilish mumkinmi, mumkin emasmi; bilishning imkoniyatlari, usullari, metod va maqsadlari; bilishning mohiyati nimada, haqiqat nima; bilishning ob'ekti va sub'ekti qanday mahnoga ega h.k. Bilish to'g'risidagi falsafiy Tahlimot gnoseologiya (gnozes - bilim, logos - Tahlimot) nomini oldi.

**Uchinchidan**, jamiyat mavjud bo'lishi va rivojlanishining eng umumiy masalalari. Sirtdan bu masala borliq to'g'risidagi Tahlimotda o'z aksini topadi. Modomiki, jamiyat shaxs taraqqiyotiga hal qiluvchi tahsir ko'rsatar ekan, uning sosial sifatlarini shakllantirar ekan, shu bois falsafada bu sohani alohida ajratib ko'rsatish mantiqan to'g'ridir. Falsafada ijtimoiy hayotni tadqiq etadigan soha ijtimoiy falsafa (sosial falsafa) deb ataladi.

**To'rtinchidan**, insonning eng umumiy va muhim masalalarini o'rganish. Binobarin, inson falsafiy donishmandlikning asosi va so'nggi nuqtasi bo'lganligidan uni maxsus o'rganish taqozo qilinadi. Hayotda mavhum ruh emas,

balki konkret inson ijod qiladi, harakat qiladi. Inson falsafasi falsafiy antropologiya deb ataladi.

Demak, falsafa borliqning, bilishning hamda inson bilan olam o'rtasidagi munosabatlarning eng umumiy tamoyillari to'g'risidagi tahlimotdir.

Albatta, bu qisqa tahrif yanada kengroq talqin qilinishi va rivojlantirilishi lozim. Eng muhimi, falsafa hamma vaqt nazariya bo'lib, o'z kategoriyalarini, ularning tizimini, tadqiqot qonuniyatlarini, metodlari va prinsiplarini nazariy ko'rinishda aks ettirgan. Falsafiy nazariyaning o'ziga xos tomoni shundaki, uning qonunlari, kategoriya va prinsiplari eng umumiy xarakterga ega bo'lib, tabiat, jamiyat, inson va tafakkur hodisalariga nisbatan ishllaniladi. Iboradagi so'nggi holatni ko'zda tutadigan bo'lsak, falsafa tafakkur to'g'risidagi tafakkur hamdir. Falsafaning predmeti shubhasiz yana falsafaning o'zini, uning tarixini o'rganish masalasini ham o'z ichiga oladi.

Har qanday falsafa dunyoqarashdir. (Falsafa olamga va odamga nisbatan eng umumiy qarashlarning yig'indisi hisoblanadi). Lekin har qanday dunyoqarash falsafiy emasdir. "Dunyoqarash" tushunchasi "falsafa" tushunchasiga nisbatan kengroqdir. Dunyoqarash falsafadan tashqari yana afsonaviy, badiiy, diniy va boshqa qarashlarni ham o'z ichiga oladi.

Dunyoqarash, shu jumladan falsafa olamni in'ikos etishning mahsulidir. Biroq bu in'ikosning chuqurlik darajasi, kshlami turlicha bo'lishi mumkin. In'ikosning eng elementar ko'rinishi sezgi darajasida sodir bo'ladi. Bu dunyoqarashga tadbiq etilganda dunyoni sezish va dunyoni mushohada etishni bildiradi. In'ikosning navbatdagi ko'rinishi - idrok va tasavvurdir. Bunday darajadagi dunyoqarash asosan hissiy tajriba bilan chegaralanadi, bu yerda hissiyot va idrok aql ustidan ustivorlik qiladi. Tushuncha yordamida amalga oshirilgan in'ikos tufayli dunyoqarash shakllanadi, chunki voqea va hodisa, jarayonlarning qonuniyatlari va mohiyatini ochishda tushuncha alohida o'rin egallaydi. Tushuncha orqali in'ikos abstrakt tafakkur va nazariy bilish bilan bolanadi. Tushuncha olamni eng chuqur aks ettiradi.

Dunyoqarash olamga va unda insonning o'rni, kishilarning o'z atrofidagi voqelikka va o'z-o'ziga nisbatan qarashlari tizimi bo'lib, unda bilimlar, e'tiqodlar, kayfiyatlar, intilishlar, orzular, qadriyatlar, me'yorlar, ideallar, maslaklar va h.k.lar uyun tarzda io'tirok etadi.

Dunyoqarashda jamiyatda shakllangan falsafiy, ilmiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik bilimlar, qarashlar o'z aksini topadi. Muammoli vaziyat:

Falsafa boshqa barcha fanlardan farqli ravishda dunyoni bir butun holda, uning eng umumiy tomonlarini, aloqadorlik va bog'lanishlarini keng qamrovli falsafiy umumlashmalar asosida ochib beradi. Shu asosda yaxlit borliq haqida, unda insonning tutgan o'rni, insonning o'ziga va dunyoga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydigan eng umumiy qonunlar, kategoriyalar, tamoyillar va usullar tizimini ishlab chiqadi.

Dunyoqarashning strukturasida to'rtta qatlam mavjud: Birinchi tarkibiy qism - bilish. U kundalik, professional, ilmiy va h.k. bilimlarning yig'indisiga suyanadi;

Ikkinchisi - qadriyatli-meyoriy qatlam. Bu o'z ichiga qadriyatlar, ideallar, e'tiqodlar, maslaklar, me'yorlar, ko'rsatmalarni oladi; Uchinchisi - axloqiy-

irodaviy qatlam. Bilimlar, qadriyatlar va me'yorlar kishilarning amaliy xatti-harakatlarida yuzaga chiqishi uchun ular emosional-irodaviy jihatdan o'zlashtirilishi, shaxsiy qarashlarga, e'tiqodlarga, maslaklarga aylanishi zarur, shuningdek faoliyat uchun muayyan ruhiy yo'l-yo'riq ko'rsatmoq rolini o'ynashi kerak. Ana shunday yo'l-yo'riqning shakllanishi dunyoqarashning emosional-irodaviy qatlami orqali amalga oshiriladi; To'rtinchisi - amaliy qatlam. Dunyoqarash nafaqat nazariy bilimlar, qadriyatlar, e'tiqodlar, maslaklar, balki shu bilan birga insonning konkret shart-sharoitda mahlum hulq-atvorni amalga oshirish uchun real tayyorgarlik darajasi hamdir. Amaliyotsiz dunyoqarash abstrakt, mavhum bo'lib qoladi.

Demak, dunyoqarash insonning olamga munosabatini belgilaydigan, uning xulq-atvorini yo'naltiradigan va tartibga solib turishda namoyon bo'ladigan qarashlar, baholar, meyorlar va maqsadlar yig'indisidir. Afsonaviy dunyoqarash.

Afsonalarda olamning vujudga kelishi, tuzilishi, tabiat hodisalarining siri, dunyoviy uyg'unlik, odamning tabiat va kosmik hodisalar bilan aloqasi, o'simlik va hayvonlarning odamga xos sifatlari haqida hikoya qilinadi. Afsonalarda odamning paydo bo'lishi, hayoti bosqichlari, o'limi, hayot sinovlaridan o'tishi haqida fikr yuritilgan. Undan tashqari, olovni topish, hunar egallash, dehqonchilik, turli urf-odatlar, rasm-rusmlar haqida afsonalar to'qilgan.

Har qanday afsonaviy ong xayolda va xayol yordamida stixiyali kuchlarni yengadi, ammo tabiatdan o'zini ustun qo'ymaydi. Dunyoqarashning bu shakli tahsirida turli ishonch, e'tiqodlar paydo bo'lgan. Masalan, totem, fetish, sehrgarlik va ruhlarga ishonch - e'tiqodlar shular jumlasidandir. Bular yordamida odamlar birlashgan, hayot mashaqqatlarini hamkorlikda yenggan, tabiatdagi stixiyali kuchlarga tahsir ko'rsatishgan. Bu intilishlar keyinchalik turlicha diniy imon-e'tiqodlar uchun asos bo'lgan.

Afsonaviy dunyoqarashga bugungi kunda extiyoj qolmagan bo'lsada, ertaklar, sarguzashtlar, rivoyatlarda, adabiyot va sanoatning bir qator janrlarida saqlanib qolgan. Umuman afsonaviy dunyoqarash insoniyat madaniy taraqqiyotida muhim bir bosqich bo'lgan. Afsonaviy dunyoqarashning xarakterli belgilari: emosional- obrazli shakl. Bu xususiyat qahramonlar, xudolarning obrazlarini yaratishda namoyon bo'ladi; tabiatni jonlantirish. Bu xususiyat inson fazilatlarini tevarak-olam hodisalariga ko'chirishda, kosmosni, tabiat kuchlarini gavdalantirishda va jonlantirishda ko'zga tashlanadi. Mifologiyada tabiat bilan inson olami, tafakkur bilan emosiyalar, badiiy obrazlar bilan ilmiy bilimlar o'rtasida qat'iy chegaralanish yo'q; afsonaviy dunyoqarashda refleksiyaning ishtirok etmasligi. Refleksiya - bu inson ongi, fikrining o'z ongi ustidan; o'z qarashlari, psixologik holatlari, ularni baholash bo'yicha fikr yuritishi; o'zining fikri yuzasidan fikr yuritish; amaliy yo'naltirilganlik: mifologiyada dunyoqarash muammolari amaliy vazifalar bilan (muvaffaqqiyat, baxtli hayot, ochlikdan saqlanish, salomatlikni extiyot qilish) aloqadorligi.

**E'tibor bering!**

Diniy dunyoqarash dunyoqarashning o'ziga xos shakli, shakllanishi bosqichidir.

Diniy dunyoqarash afsonaviy va sodda dunyoqarashning bevosita tahsirida shakllangan. Qur’oni Karim, Injildan o’rin olgan odam haqidagi rivoyatlar Turon va Bobil afsonalariga yaqin bo’lgan. Masalan, Islomda ham olam zardo’shtiylik, Bobil va Injil kosmogoniyalaridagi kabi uch qismga - osmon, yer va narigi dunyoga bo’lingan. Jahannam so’zi yahudiycha "genna" so’zidan olingan bo’lib, musulmonlarning tasavvurida 7 iavatdan iborat: birinchisida munofqilar, ikkinchisida misr fir’avnlari o’z ahyonlari bilan, uchinchisida dahriylar, to’rtinchisida avroqchi, afsungarlar, beshinchisida xristianlar, oltinchisida yulduzparastlar, yettinchisida yo’ldan adashib gunoh qilgan mo’minlar jazolanishi kerak, deb hisoblanadi. Dunyo daraxti, Olam tog’i, olamning ulkan odam qiyofasidagi manzarasi to’g’risidagi diniy afsonalar ham mifologik dunyoqarashning mas’ulidir.

Qadimgi yunonlarda Orfey madhiyasida (eramizdan avvalgi VI asrda Yunonistonda vujudga kelgan diniy Tahlimot) Zevsning boshi bilan go’zal chehrasi charog’on osmonu, ko’zlari Oy va Quyosh deyiladi; nafasi-havo, oyoqlari - yer hisoblanadi. Eramizning I asriga mansub bo’lgan afsonalarda Odam Atoning vujudi haddan tashqari bahaybat qilib tasvirlanadi, uning oyoqlari yerga tegib tursa, boshi osmonga taqaladi. Injilda Odam Ato 930 yil yashagan, deyiladi.

Diniy dunyoqarashning afsonaviy dunyoqarashdan farqi shuki, unda dunyo ikkiga - bu dunyo va u dunyoga bo’linadi. Bu dunyoqarash go’yo g’ayritabiiy kuchlar borligiga, ularning insonlar taqdiriga xal qiluvchi tahsir ko’rsatishiga qat’iy ishonchga asoslanadi. Avvalo ko’p xudolikka, keyingi 2,5 ming yilda yakka xudolikka ishonch paydo bo’lib, hozir yer yuzi axolisining dinga ishonuvchi qismi asosan yakka xudolikka sig’inadi. Odamlar diniy dunyoqarash orqali o’z orzu-umidlarini ifodalaganlar, o’zlari yaratgan tasvirlarga o’xshab yashashga intilganlar. Umuminsoniy qadriyatlar shu tarzda avaylab saqlangan va rivojlantirilgan. Falsafiy dunyoqarash. Dastavval "filosofiya" tushunchasi keng mahnoda insoniyat tomonidan to’plangan nazariy bilimlarning yig’indisini bildirgan.

Falsafa mifologiya va dindan nimalarni meros qilib oldi, degan savol tug’ilishi mumkin. Falsafa ularning dunyoqarash xarakterini, dunyoqarash sxemalarini, yahni umuman olamning paydo bo’lishi, uning tuzilishi, insonnig yuzaga kelishi va uning borliqdagi o’rni haqidagi masalalarni meros qilib oldi. U yana butun insoniyat taraqqiyoti davomida to’plangan ijobiy bilimlarni meros qilib oldi. Biroq falsafada yuzaga kelgan dunyoqarash muammolari ulardan fari qilib, rasional baho, aql nuqtai nazaridan xal etiladi. Shuning uchun falsafa nazariy shakllangan dunyoqarashdir.

Falsafa - umuman olamga, unda insonning o’rni, insonning insonga munosabatini ifodalaydigan umumnazariy qarashlar tizimidir. Shunday qilib falsafa dunyoqarashni bilimlar shaklida namoyon etadi va tizimga soladi. Bu narsa falsafa bilan fanni bir-biriga bolovchi muhim haqiqatdir.

Voqelikni falsafiy o’zlashtirishning muhim bir tomoni substansionalizm hisoblanadi. (lot. "substansiya" - asosda turadigan mohiyat degani).

Substansiya borliq, tabiat, jamiyat, inson va bir butun olamdagi barcha narsa-hodisalarning asosini tashkil etadigan birlamchi narsadir. U moddiy yoki

ruhiy shaklda bo’lishi mumkin. Chunonchi, qadimgi olimlarning bir guruhi moddalarning biron-bir turini, masalan, suv, havo, atom va shunga o’xshaganlarni ana shunday tarzda izoxlaganlar. (Materializm)

Bahzi mutafakkirlarning fikricha, substansiya - bu mavjudlikning asosi bo’lgan mutloq g’oya, ruh yoki sub’ekt ongidir. Chunonchi, qadimgi yunon faylasufi Pifagorning aytishicha, substansiya sonlardir. Aflotun substansiya deganda g’oyalarni nazarda tutadi. Nemis olimi Kant nazarida, substansiya tajriba bergan mahlumotlarni umumlao’tiruvchi tafakkurning aprior shaklidir. Gegel "mutloq g’oya"ni substansiya deb qaraydi.(Idealizm) Dekart esa substansiya masalasini ko’rib chiqqanda dunyoning negiziga ham materiyani, ham ruhni ishygan. Falsafa tarixida dastlabki vaqtlarda substansiya hamma narsani tashkil etadigan modda deb tushunilgan. o’rta asr Sharqida substansiya Al-Kindiy, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd asarlarida moddiy asos, mohiyat sifatida talqin etilgan. Keyinchalik butun koinotning asosida turgan substansiya xudoning maxsus nishonasi deb tushuniladi (sxolastika).

Falsafa tarkib topgan bilimlar tizimi sifatida o’ziga xos bir qator muammolarga egadir. Shulardan biri yuqorida ko’rganimiz "falsafa nima?" degan masaladir. Uni xal etish asosida har bir faylasuf o’z konsepsiyasini yaratadi. Uni xal qilish uchun konkret muammolarni aniqlab olinadi, u yoki bu kategoriyalardan foydalaniladi. Har bir falsafiy tizim o’zining bosh muammosiga ega bo’lib, bu narsa uning asosiy mazmunini va mohiyatini ifodalagan. Chunonchi, antik zamon faylasuflari uchun olamning mavjudligi haqidagi masala ana shunday mahnoga ega bo’lgan. Sokrat buni "o’z-o’zingni bil" degan tamoyil bilan bolaydi, yangi zamon faylasuflari uchun bu - bilish qanday amal qiladi, degan muammodir.

Biroq falsafiy tafakkurning xarakterini yoritishga xizmat qiladigan umumiy muammolar ham mavjud. Ular ichida quyudagilar: "Nima birlamchi: ruhmi yoki materiya, ideallikmi (mahnaviylik) yoki moddiylikmi?" - degan muammo asosiylardandir. Borliqni umumiy tushunish bu masalani xal etishga bog’liqdir. Boshqacha aytganda, borliqda moddiylik va ideallikdan tashqari hech narsa yo’q, uni turlicha xal etishdan materializm va idealizm, degan yirik falsafiy yo’nalishlar kelib chiqqan.

Materializm va idealizm haqidagi masalaga kengroq to’xtalib o’taylik. Materializm va idealizmga bo’linish falsafa taraqqiyotining qadimgi davrlaridan boshlangan. Nemis faylasufi G.V.Leybnis (1646-1716) Epikurni eng yirik materialist, Aflotunni esa eng ulkan idealist deb atagan edi. Nemis faylasufi F.Shlegel (1772-1829) shunday yozgan edi: "Materializm hamma narsani materiyadan kelib chiqib tushuntiradi, izoxlaydi, uni butun narsalarning qandaydir ibtidosi, manbai sifatida idrok etadi... Idealizm hamma narsani ruhdan keltirib chiqaradi, materiyaning paydo bo’lishini ruhdan kelib chiqqan, deb hisoblaydi yoki materiyani unga bo’ysundiradi".

Materializm ham, idealizm ham o’zining namoyon bo’lishi jixatidan bir xil emas. Shunga ko’ra materializm va idealizmning turli shakllarini ajratib ko’rsatish mumkin. Materializmning quyudagi asosiy tarixiy shakllari mavjud:

Qadimgi Sharq va Qadimgi Yunon materializmi. Materializmning bu dastlabki shakli tashqi olamning narsa-hodisalarini ongdan tashqarida mavjud

moddiy tuzilmalar va elementlarning holati tarzida qarab chiqadi (vakillari- Fales, Levkipp, Demokrit, Geraklit va b.).

Yangi zamonning metafizik (mexanistik) materializmi (Evropa). U tabiat hodisalarini tushunishga asoslanadi. Olamning xossalarini harakatning asosan mexanik shakliga bolab izoxlaydi (G.Galiley, F.Bekon, J.Lokk, J.Lamerti, K.Gelpvesiy va b.).

Dialektik materializm: materializm va dialektika uzviy birlikda beriladi. (K.Marks, F.Engelps)

Materializmning yana quyudagi turlarini ham qayd etish lozim:

Izchil materializm: materializm tamoyillari ham tabiatga, ham jamiyatga tatbiq etiladi (marksizm);

Noizchil materializm: unda jamiyat va tarixni materialistik tushunishga E'tibor

berilmaydi (L. Feyerbax). Uning o'ziga xos shakli deizm (teo lot.-xudo) bo'lib, vakillari xudoni e'tirof etsalar-da, Biroq uning rolini pasaytirib yuboradilar: xudo materiyani yaratgan, harakatga dastlabki turtki bergan, xolos (F.Bekon, J.Toland, Franklin, M.Lomonosov).

Vulgar materializm: Vulgar materializm ideallikni moddiylik bilan, ongni materiya bilan aynan tenglashtiradi (Foxt, Moleshot, Byuxner).

Idealizm ong, ruh, tafakkur birlamchi, materiya, tabiat, borliq ikkilamchi deb talqin qiluvchi falsafiy qarashlar tizimi bo'lib, birinchi galda ob'ektiv va sub'ektiv ko'rinishlarga egadir.

Ob'ektiv idealizm dunyoning asosida inson ongidan tashqarida va unga bog'liq bo'lmagan ruhiy ibtido (g'oya, olamiy aql) yotadi, deb hisoblaydi. (Aflotun, F.Akvinskiy, Shelling, Gegel). Sub'ektiv idealizm inson ongidan tashqaridagi ob'ektiv reallikni inkor etib, faqat sub'ektiv sezgilar mavjud, deb hisoblaydi.(J.Berkli, D.Yum, G.Fixte).

Ruhiy ibtido qanday tushunilishiga qarab idealizmning turli ko'rinishlari yuzaga kelgan: panlogizm (olamiy aql), volyuntarizm (olamiy iroda), idealistik monizm (yagona ruhiy mohiyat), plyuralizm (ko'pdan ko'p birinchi unsur), idealistik rasionalizm (mantiqiy anglab olinadigan ibtido), idealistik empirizm, sensualizm va fenomenalizm (sezgilarning hissiy xilma-xilligi), irrasionalizm (bilib bo'lmaydigan, qonuniyatga bo'ysunadigan, mantiqia zid ibtido).

Birlamchi ibtido bilan monizm, dualizm, plyuralizm haqidagi masalalar o'zaro bolangan. Monizm olamning asosida yagona, bitta ibtido, boshlanich asos turishini e'tirof etadigan falsafiy konsepsiya (yo moddiy asos, yo mahnaviy asos) dir. Shu sababli monizm materialistik va idealistik shaklda bo'lishi mumkin.

Dualizm ikki asosni teng deb e'tirof etadigan falsafiy konsepsiya: olamning asosida teng holda ham materiya, ham ong yotadi. Masalan, R.Dekart borliqning negizida ikki teng substansiya (ruh va materiya) yotadi, deb hisoblaydi.

Plyuralizm bir nechta yoki ko'plab ibtidoiy asoslar yotishini nazarda tutadi. Masalan, qadimgi mutafakkirlar butun borliq asosiga rang-barang ibtidolar (suv, yer, havo, olov, yooch, temir va h.k.)ni ishyganlar.

Borliqning boshlanich ibtidosi bilan bog'liq holda uni bilish mumkin-mumkin emasligi haqidagi masala bolanib ketadi. Ayrim mutafakkirlar fikricha,

bilishning haqiiiyligi haqidagi masalasini hech qachon xal qilib bo’lmaydi: olamni prinsip jixatdan bilish mumkin emas. Bundaylar agnostik ( Protagor, Kant)lar, shunday falsafiy yo’nalish agnostisizm deb nom olgan. Uning ko’rinishlardan bo’lgan skeptisizm bilimlarning haqiiiyligiga shub'a bilan qaraydi. (qadimgi yunon Pirron va b.). Boshqa mutafakkirlar aksincha, aql va bilishning iudratiga ishonadilar va insonning ob’ektiv olamni bilish qobiliyatini tan oladilar. Har bir fan o’z metodiga egadir. Biroq falsafa eng umumiy metodologiya ekan, uning metodi nafaqat voqelikni nazariy va amaliy o’zlao’tirishning, shu bilan birga falsafiy bilimlarni vujudga keltirish va asoslashning usuli hamdir.

Boshqa fanlar metodlari singari falsafiy metod ham o’z asosini kishilarning amaliy faoliyatidan oladi va o’z manbaiga ko’ra ob’ektiv voqelik rivojlanishining mantiq va qonuniyatlarini ifodalaydi. Bu narsa faqat fanga suyanadigan falsafagagina xosdir.

Falsafiy metod tadqiqotning umumiy prinsiplarini ishllab iuvvatlaydi. F.Bekon
aytganidek, uni yo’lni yoritadigan mashoalga shxshatsa bo’ladi. Biroq turlicha falsafiy maktablar va oqimlar falsafa predmetini qanday tushunishiga qarab turlicha falsafiy metodlarni tarkib toptiradi va ulardan foydalanadi. Falsafiy konsepsiyalarning plyuralizmiga metodlarning plyuralizmi muvofii keladi.

Falsafiy metodlarni tasnif qilishda asosan dialektika va metafizika nazarda tutiladi. Dialektika borliq va bilish taraqqiyotining eng umumiy qonuniyatlari haqidagi tahlimot bo’lib, ayni vaqtda voqelikni o’zlao’tirishning umumiy metodi hamdir. Dialektikaning yuzaga kelishi va tarkib topishining negizlari antik zamon bilan bolangandir. Bu bosqich ko’pincha stixiyali yoki sodda dialektika deb yuritiladi. Sababi ilk faylasuflarning olamga qarashlari oddiy kuzatishga asoslangan bo’lib, ko’p jixatdan sodda bo’lgan. Shu bilan birga ular dialektikani turlicha tushunishgan.

Chunonchi, materialist Geraklit o’z tahlimotida olamning doimiy o’zgarishi va xarakteriga, unda ziddiyatlarning aks-teskariga aylanish masalasiga, eng avvalo "narsalar dialektikasi"ga, ob’ektiv dialektikaga e’tiborni qaratgan. Shu davrda yashagan Suqrot va Aflotun dialektika deganda munozara olib borish sanoatini tushungan, shu yo’l bilan haqiqatga erishish mumkinligini e’tirof etgan. Demak, bu yerda gap "tushunchalar dialektikasi", sub’ektiv dialektika haqida boradi.

Demak, dialektika materializm sohasida ham, idealizm sohasida ham ishllaniladi: materialistik dialektika va idealistik dialektika. Idealistik dialektikaning mumtoz namunasi (dialektik idealizm) Gegel tomonidan vujudga keltirilgan, u bilish nazariyasi va metodi sifatida dialektik sistemani yaratgan. Materialistik dialektikaning asoschilari K.Marks, F.Engelpsdir. Metafizika metod sifatida olamning bir xil, statik manzarasini yaratadi, borliqning u yoki bu momentlari va ko’rinishlarini mutloqlao’tiradi va yakka holda qarab chiqadi. Xozirgi davrda ulardan tashqari tafakkur taraqqiyotining umumiy yo’nalishini ko’rsatuvchi gumanistik dialektika, sinergetika, germenevtika, strukturalizm, ruhiy taxlil kabi yangi falsafiy metodlar paydo bo’ldi, ular keng ishllanilmoqda.

Yuqorida aytib o’tilgan falsafiy metodlar o’zaro bir-biri bilan bolangan, o’zaro uzviy aloqadorlikka ega, yaxlit bir tizimni tashkil etadi, ularni olamni bilish

va o’zlao’tirishning umumiy metodologiyasi deb atash mumkin. Shular bilan bir qatorda falsafa, yuqorida aytganimizdek, alohida nazariya sifatida ham amal qiladi, shu sababli o’zining kategoriyalari, qonunlari va prinsiplariga egadir. Falsafaning umumiy metodologiya va alohida nazariya sifatidagi belgilari o’zaro uzviy bolangan. Falsafiy nazariya o’zining qoidalari, qonunlari va prinsiplarining umumiyligi bilan boshqa fanlar uchun metodologiya bo’lib xizmat qiladi.

Falsafaning bahs mavzui va o’ziga xos xususiyatlarini uning funksiyalari haqidagi masalani bilmay turib to’la ochib bo’lmaydi.

Eng avvalo, bu dunyoqarash funksiyasidir. Bu funksiya olamni mavhum-nazariya hamda tushunchalar orqali izoxlashi bilan dunyoqarashning barcha turlari va darajalaridan ajralib turadi.

Metodologik funksiya. Uning mahnosi shundaki, falsafa metod sifatida umumiy tahlimot va inson tomonidan voqelikni bilish hamda o’zlao’tirishning eng umumiy metodlari yig’indisidir.

Prognostik funksiya. Bu funksiya materiya va ong, inson va olam taraqqiyotining eng umumiy tendensiyalari haqidagi farazni anglatadi. Falsafa fanga asoslansa, extimollikning faraz darajasi shuncha yuqori bo’ladi.

Falsafa nazariy tafakkur va donishmandlik maktabi sifatida ham funksiya bajaradi. Bu narsa ayniisa falsafa tarixini o’rganishga daxldordir. Falsafaning tanqidiy funksiyasi. Bu funksiya nafaqat boshqa fanlarga, balki falsafaning o’ziga nisbatan ham ishllaniladi. "Hamma narsaga shubxa bilan qarash" degan prinsip antik zamondan boshlab ishlatilib kelinadi.

Falsafaning tanqidiy funksiyasi bilan uning aksqologik funksiyasi uzviy bog’langan (grekcha aksios - qadrli). Har qanday falsafiy tizim o’zi o’rganayotgan ob’ektni muayyan qadriyatlar nuqtai nazardan baholaydi: sosial, axloqiy, estetik, mafkuraviy va h.k. Bu funksiya ijtimoiy taraqqiyotning o’tish davrlarida alohida rol o’ynaydi (mustaqillik va qadriyatlar). Chunki bu davrlarda eski qadriyatlardan qay birini davom ettirish masalasi kelib chiqadi.

Sosial funksiya. Bu funksiya ko’p yoqlama xarakterga ega bo’lib, ijtimoiy hayotning rang-barang jixatlarini iamrab oladi. Umuman olganda falsafa ikki yoilama vazifani bajaradi, birinchidan, sosial borliqni tushuntirish, ikkinchidan, uning moddiy va mahnaviy o’zgarishlariga tahsir etish. Insonparvarlik funksiyasi. Buning mahnosi shundaki, falsafa har bir individ hayotida gumanistik qadriyatlar va ideallarni shakllantirish, hayotning ijobiy mahno-maqsadlarini tasdqilashga xizmat qilishi kerak. Demak, u intellektual davolash rolini bajaradi, ayniqsa, jamiyatda beqarorlik yuz berganda, eski qadriyat va ideallar minbardan tushib, yangilari xalq shakllanishga ulgurmagan yoki obro’ qozona olmagan paytlarda yaqqol ko’zga tashlanadi.

<u>Muammoning yechimini topish uchun muloxaza yuriting!</u>

1. "Falsafa" atamasi ustida fikr yuriting.
2. Dunyoqarash nima?
3. Falsafiy g’g’oya va nazariyalar shakllanishi qanday tarzda ro’y beradi?

4. Falsafa qanday vazifalarni bajaradi?
5. Fanni o'rganishdan maqsad nima?
6. Falsafiy bilimlar tizimiga qaysi fanlar kiradi?
7. Falsafa milliy bo'lishi mumkinmi?

Falsafa va fan. Falsafa bilan fan o'rtasidagi nisbat haqida so'z borganda uni talqin qilishning eng kamida uchta jixatini tahkidlash lozim:

Birinchisi, falsafa fan bo'la oladimi? Ikkinchisi, falsafa va xususiy (konkret) fanlarning o'zaro tahsiri; uchinchi, falsafa bilan noilmiy bilimlarning munosabati.

Birinchi jixati: insoniyat bilimlari va madaniy taraqqiyoti tarixida ulkan sohani tashkil etgan falsafaning ilmiy xarakterini inkor etish mumkin emas. Gegeldek olim falsafani eng avvalo "Fan mantiq" nuqtai nazaridan qarab chiqian. Konkret fanlar sohasidagi ko'plab buyuk olimlar ayni falsafaning ham yirik vakillari bo'lganliklari ajablanarli emas. Pifagor, Arastu, Ibn Sino, Forobiy, Beruniy, Bruno, Kopernik, Dekart, Freyd va boshqalarning nomini bu yerda tilga olish yetarli. Falsafaning o'ziga xos tili va tushunchaviy, kategorqal vositalari mavjud. Falsafada fan bo'la oladimi-yo'qmi? - degan mavzudagi baxslar uzoq vaqtdan buyon davom etib kelmoqda. Falsafani fan sohasiga kiritishni inkor etadiganlar quyudagilarni asos qilib ko'rsatadi: falsafiy qarashlar faktlarga, kuzatishlarga, eksperimentlarga dahldor emas, demak, ilmiy bilimlar me'yoriga javob bera olmaydi; falsafaning qoidalarini empirik (yani tajribada, eksperimentda) yo'l bilan tasdiqlab bo'lmaydi (mas.: olam taraqqiyotining asosida ruh yotadi, degan fikrni tajribada qanday tasdqilash mumkin); falsafada faylasuflarning hammasi tomonidan bir vaqtning o'zida e'tirof etilgan qoidalar mavjud emas, aksincha, uning uchun plyuralizm xos, har bir mutafakkir o'zining tizimini yaratishi mumkin. Falsafani fan deb hisoblovchilar quyudagilarni e'tirof etishadi: falsafa - tabiat, jamiyat va tafakkur harakati va taraqqiyotining eng umumiy qonunlari haqidagi fan; falsafa inson va olam munosabatlaridagi eng umumiylik haqidagi fan; falsafa - mavjudlikning umumiy asoslari haqidagi fan. Ikkinchi jixat: falsafa va xususiy (konkret) fanlarning o'zaro tahsiri. Xozirgi zamon falsafasi fanlarning fani bo'lishga, barcha fanlarni o'z tarkibiga olishga davo qilmaydi. Konkret fanlar o'zlarining tadqiqot predmetlariga, qonunlariga, metodlariga, bilimlarni umumlao'tirish darajalariga egadir. Falsafa xususiy fanlar yutuqlarini umumlao'tirishni o'z predmeti qilib oladi, umumlao'tiishning bir qadar yuksak darajasi bilan ish ko'radi. Agar umumlao'tirishning birinchi darajasi konkret fanlarning qonunlarini shakllantirishga olib kelsa, ikkinchi daraja sifatida falsafa eng umumiy qonuniyatlarni va tendensiyalarni anqilashga qaratiladi. Bunda nazariy tafakkur falsafaning asosiy metodi bo'lib xizmat qiladi, u, albatta, konkret fanlarning yutug'ilariga suyanadi. Konkret fanlar sohasidagi ulkan kashfiyotlar falsafaning intensiv rivojlanishiga katta tahsir ko'rsatganligi mahlum. Yangi zamon sharoitida tabiatshunoslikning (XIX asr oxiri - XX asrda ham) falsafiy bilimlar taraqqiyotiga ko'rsatgan ulkan tahsirini aytib o'tish mumkin. Konkret fanlar sohasidagi kashfiyotlar falsafiy-ilmiy xulosalarni tasdiqlashga xizmat qiladi. Biroq falsafa nafaqat konkret fanlar tomonidan bo'ladigan tahsirni o'zida ifodalaydi. V.Gyote falsafa bilan xususiy fanlar ortasida bo'ladigan o'zaro

aloqadorlikni shunday ko’rsatgan edi: "Fizikdan faylasuf bo’lishni talab qilish kerak emas, biroq fizik olim fenomenlarni falsafiy soha
darajasiga yetkazmoq uchun faylasufning ishi bilan tanish bo’lishi kerak, faylasufdan fizik bo’lish talab qilinmasa ham, ayni vaqtda uning fizika sohasiga tahsiri zarur va maqsadga muvofiqdir".

Nixoyat, uchinchi jixat. Falsafa va noilmiy bilimlar. Biz bu yerda noilmiy bilimlar (ilmdan tashqari)ni shartli ravishda quyidagilarga bo’lamiz. 1. Yanglishish (odamlarning nazarida haqiqiy fanni yaratish bilan bog’liq tadqiqotlar); 2. Paranauka (astrologiya, afsungarlik, sehrgarlik va boshqalar kiradi).

Agar biz yuqoridagilardan xulosa chiqaradigan bo’lsak, falsafaning quyidagi o’ziga xos jixatlarini alohida tahkidlashimiz lozim: falsafa - dunyoqarash; falsafa - nazariy fikrlash, shakli; nazariy tafakkurning eng yuqori usuli; falsafa - umumiy metodologiya; falsafa - tarixiy davrning o’z-o’zini anglab yetishi; falsafa - aksqologiya; falsafa - tanqid; falsafa - bashorat qilish.

Shunday qilib, falsafa ijtimoiy ongning maxsus shakli, nazariy dunyoqarashning alohida turi bo’lib, muayyan kategoriyalar tizimi orqali insonning olamga bo’lgan munosabatini (ontologik, gnoseologik, aksqologik, praksqologik va h.k.) umumlao’tiradi, insoniyat madaniyatini o’zida mujassam etadi. E’tibor bering! Borliqni o’rganuvchi turli xil fanlar tizimida falsafa o’ziga xos alohida o’ringa ega.

O’zbekistonning milliy mustaqillikka erishuvi natijasida barcha ijtimoiy fanlar sohasida bo’lganidek, falsafaning muammolariga bo’lgan munosabat ham tubdan o’zgardi. Sho’ro tuzumi sharoitida falsafa boshidan kechirgan bu'ronlar haqida alohida to’xtalib o’tish imkoniyatiga ega emasmiz. Shunday bo’lsa-da, quyidagilarni alohida tahkidlashimiz lozim: asrlar davomida qaror topgan qadriyatlar to’g’risida totalitar tuzum sharoitida falsafaning erkin fikr yuritishiga imkon berilmadi; marksizm g’oyalariga asoslangan falsafa insoniyat falsafiy tafakkurining oliy cho’qqiisi hisoblanadi; yakka mafkura, turg’un dunyoqarash xukmronlik qildi; sinfiy va partiyaviy prinsip asosiy mafkuraviy mezonga aylantirildi; totalitar siyosiy tuzum manfaatlariga xizmat qilgan marksistik falsafa taraqqiyot talablariga zid fikr yuritishni talab qildi, aqidaparastlik, avtoritar tuzum g’g’oyalarini targ’ib qilish falsafaning yagona maqsadi bo’lib qoldi. Falsafaning jamiyat taraqqiyoti, inson bilimlari mahnaviy yuksalishidagi o’rni, ahamiyati ongli ravishda toraytiriladi. Eng muximi, milliy falsafa va uning boy merosini erkin o’rganish va o’zlao’tirishga keskin qarshilik qilib kelindi.

Milliy mustaqillik tufayli mahnaviyatimizning barcha sohalarida keskin, tub o’zgarish yuz berdi. Bu narsa falsafaga ham to’la daxldordir. Falsafaga yondoshuv negizida milliy mafkuramizning asosiy tamoyillari muhim o’rin oldi: chuqur ilmiylik, xolislik, jahon xalqlari mahnaviyati tizimida xalqimiz mahnaviy, falsafiy merosining o’rnini tadqiq etish, vatanparvarlik, milliy o’zlikni anglash va xokazo.

Yangi falsafa o’z oldiga quyudagi vazifalarni maqsad qilib ishydi: birinchidan, barcha falsafiy tahlimotlarni o’rganish; ikkinchidan, turli xil dunyoqarashlar va fikrlar xilma-xilligiga, xurfikrlilikka asoslanish; uchinchidan, milliy zaminda umuminsoniy qadriyatlarga tayanish; to’rtinchidan, mustaqillik muammolari taxlilini bosh maqsad deb bilish, sinfiylik va partiyaviylik hamda

aqidaparastlikni butunlay rad etish; beshinchidan, xalqimizni yuksak vatanparvarlik, sharqona axloq-odob me'yorlari ruhida tarbiyalash, O'zbekistonning milliy mustaqillik yillarida erishgan tajribalari falsafiy taxlil va umumlao'tirish uchun yetarli material bera oldi. O'zbekiston ning ana shunday tajribasini anglash va falsafiy taxlil qilish deganda nimani tushunish mumkin? Buning mahnosi shuki, bir tomondan, mamlakatimizning qisqa davrda bosib o'tgan yo'lini jahon taraqqiyoti umumiy yo'nalishlari doirasida qarab chiqish, jahon sivilizasiyasi umumiy yo'nalishiga O'zbekiston ning kirib boorish tajribasi, boshqa tomondan, bu tajribani yaxlit holda, yani siyosiy-iqtisodiy, mahnaviy jixatdan taxlil etish, alohida va umumiy jixatlarning munosabatini falsafiy jixatdan asoslashdir.

Anglashiladiki, falsafiy tafakkur sohasida o'zgarish va yangilanishlar yuz bermoqda.

Mustaqillik davrida falsafa yangilanishning ob'ektiv va sub'ektiv zaminlari barpo etildi. Bunday zaruriy shart-sharoit haqida so'z ketganda, birinchi galda moddiy-iqtisodiy asoslarni tilga olish lozim. Bozor munosabatlarining shakllanishi, shu asosda iqtisodiy plyuralizmning qaror topish bosh yo'nalish qilib olindi, ayni vaqtda axolini ijtimoiy ximg'oyalash ustivor masalaga aylandi, bu esa falsafiy tafakkur o'zgarish va yangilanishiga sezilarli tahsir ko'rsatdi.

Har qanday ijtimoiy tuzumda falsafa ijtimoiy-siyosiy omillar tahsirida o'z tamoyillarini ishlab chiqadi. Shu jumladan, respublikamiz jahon hamjamiyatining teng huquqli ahzosiga aylangan ekan, ayni vaqtda mazmunan yangi siyosiy tizim va ijtimoiy tuzilmalarning hamkorlikdagi faoliyati tufayli u ijtimoiy-siyosiy reallik kasb etmoqda. Bu jarayon milliy qadriyatlarga asoslangan yangi falsafaning ijtimoiy-siyosiy tabiatini, tamoyil va tushunchalarini yaratishda asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan mahnaviy islohotlarning falsafa yangilanishiga tahsiri beqiyosdir. Buning mahnosi shuki, xalq mahnaviyati poklanmoqda, qadriyatlar tiklanmoqda, bu sohadagi faoliyat kengayib bormoqda, tarix falsafasi, xalq xotirasi, boy mahnaviy merosni o'rganish borasida ulkan ishlar qilinmoqda. Bu esa falsafa yangilanishida mahnaviy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Falsafa yangilanishning sub'ektiv omili - ongning o'zgarishi, tafakkur erkinligi, falsafiy plyuralizm bilan bog'liq masaladir. Buni quyudagilar bilan izoxlash mumkin: falsafiy ong va dunyoqarash o'zgarayotgan va yangilanayotgan ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida yangilanmoqda; o'tish davri zaruriyati, tub ijtimoiy islohotlarning yo'nalishlaridan biri sifatida tarixiy zaruriyatni ifodalaydi; nafaqat umumiy mahnaviy mu'it, balki jamiyat har bir aozosining ruhiyati, maqsad va extiyojlari sohasidagi o'zgarish hamdir; mahnaviy-falsafiy merosni egallash negizida falsafada yangi yo'nalishlar tarkib topmoqda. Falsafa sohasidagi o'zgarish va yangilanishlar mafkuraviy jarayonlar bilan o'zaro bolangandir. Falsafiy dunyoqarashni yangilashning zaruriy jixatlarini quyudagi yo'nalishlar bilan bog'liq holda tushuntirish mumkin: a) kelajagi buyuk davlat barpo etilmoqda; b) fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat iurish haqidagi g'oyalar tarkib topmoqda; v) siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mahnaviy hayotdagi o'zgarishlarni xalqimiz ongiga singdirish zaruriyati kun tartibiga ishyilmoqda; g)

har bir fuqaroda O’zbekiston  Konstitusiyasi g’oyalarini e’tiqodga aylantirish jarayoni davom etmoqda; d) jamiyatda osoyio’talikni va xavfsizlikni taominlashda ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashning roli ortib bormoqda.

Shunday qilib falsafiy dunyoqarash tizimini shakllantirish va rivojlantirishning ob’ektiv-sub’ektiv imkoniyatlari qaror topmoqda. Bular quyudagilarda anii namoyon bo’lmoqda: jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik taominlangan; fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy, mahnaviy xaqi-huquqlari qonuniy tarzda kafolatlangan; jamiyatning barcha sohalarini demokratlao’tirish va erkinlao’tirish davlat siyosati darajasida amalga oshirilmoqda; axolining mahnaviy-maorifiy salo'iyati yuksalmoqda.

Agar biz O’zbekiston  taraqqiyotini jahon yo’nalishlari kontekstiga qarab chiqadigan bo’lsak, shu narsa ayon bo’ladiki, mustaqillik tufayli O’zbekiston o’ziga xos, o’ziga mos ijtimoiy tizimni vujudga keltirdi. Uni tarkib toptirishda milliy va jahon siyosiy tarixining eng yaxshi ananalaridan ijobiy foydalanildi. Tabiiyki, bunda respublikamizning o’ziga xos xususiyatlari ustivor darajada o’rin egalladi. O’zbekiston  andozasini belgilaydigan asosiy omillari quyudagilar kirishi mumkin: Yevroosiyo yo’lida xal qiluvchi o’rin tutish, yer osti boyligining ko’pligi; energetik va suv resurslariga boyligi; iulay tabiiy mu'it; demografik vaziyat; milliy jixatdan axoli tarkibining xilma-xilligi; xalq turmush tarzida Sharq sivilizasiyasining keng o’rin tutishi; ulkan iqtisodiy saloxiyatga ega bo’lishlik; mexnat resurslarining boyligi; ilmiy va intellektual kuchlarning o’sganligi va h.k.

Taraqqiyotning "o’zbekonah' andozasining asosiy mazmunini I.A.Karimov tomonidan belgilab berilgan besh tamoyil tashkil etadi: iqtisodiyotning siyosatdan ustivorligi; davlatning bosh islohotchi ekanligi; qonunning ustivorligi; kuchli ijtimoiy siyosat; bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o’tish. O’zbekiston ning yangicha falsafasi yo’nalishiga sharqona demokratiya xususiyatlari, o’tish davri ijtimoiy-iqtisodiy negizlari, mahnaviyat muammolari, jahon hamjamiyatiga integrasiya jarayonlari ham tahsir etuvchi omillar hisoblanadi. Yodda tuting inson bilishining ob’ekti bo’lgan olam cheksizligi sababli u xaqidagi  bilimlar  ham cheksizdir.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar

1. Falsafiy bilimlarning asosiy sohalari, xususiyatlari haqida so’zlang.
2. Dunyoqarash deganda nimani tushunasiz? Uning asosiy turlarini sanab ko’rsating.
3. Falsafiy dunyoqarashning o’ziga xosligi nimalarda ko’rinadi?
4. Falsafaning metodologik ahamiyatini tushuntirib bering.
5. Falsafa qanday funksiyalarni bajaradi?
6. O’zbekiston da falsafiy tafakkur yangilanishining asosiy yo’nalishlari va vazifalari nimalardan iborat?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. - T. 1998.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T., 1997.
3. Karimov I. A. Milliy istqilol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.-T., O'zbekiston , 2000
4. Milliy istqilol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. O'zbekiston , 2000.
5. Falsafa. O'quv ishllanma (Z.Yusupov taxriri ostida) - T. "Sharq", 1999.
6. Falsafa. Mahruzalar matni. T. 2000.

## **2-Mavzu:** Qadimgi Sharq va Markaziy Osiyoda falsafiy fikrlarning vujudga kelishi va taraqqiyotining asosiy bosqichlari

**REJA:**

1. Qadimgi Sharqda falsafiy fikrlarning vujudga kelishi (Misr, qindiston, Xitoy)
2. Markaziy Osiyoda eng qadimgi falsafiy qarashlar va ularning keyingi taraqqiyoti (zardo'shtiylik buddaviylik, moniylik, mazdakiylik; tasavvuf)
3. XIV asr oxiri-XX asr boshigacha O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy tafakkur

Mavzuning tayanch iboralari: ibtidoiy ong, mifologiya, se'rgarlik, falsafiy tahlimot, falsafiy maktab, falsafiy oqim, falsafiy yo'nalish; vedalar, upanishad, braxman, prakrit, atman, chorvak, buddizm, lokayata; inp va yan, dao, jenp, syao, konfusiylik "jenp"; zardo'o'tiylik, ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu ish; moniylik, mazdakiylik.

Mavzuning maqsadi falsafa tarixi tafakkur faoliyati va rivojlanishining o'ziga xos murakkab tarixiy jarayon ekanligini asoslash.

Muammo: Qadimgi Sharq va Markaziy Osiyoda falsafiy qarashlarning shakllanishi va uning tafakkur taraqqiyotiga tahsir ko'rsatgan g'oyalarini o'rganish.

Falsafaning kelib chiqishi masalasi dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishi muammosi bilan uzviy bog'langan. Yuqorida tahkidlanganidek, dunyoqarash insonning olamni bilishga bo'lgan extiyojlariga javob tariiasida vujudga kelgan. Bu, albatta, insonning mexnat faoliyati tufayli sodir bo'lgan. Odam olamning yaratilishiga, "biz"ning "unga" munosabatiga mexnat iurollari orqali bevosita tahsir ko'rsatgan, oqibatda oldin sinab ko'rilmagan yangi, yahni yangi amaliy-praktik munosabat shakllangan. Koinotga nisbatan bunday munosabat asta-sekin mahnaviy mahno kasb eta borgan. Demak, ob'ektiv ravishda

dunyoqarashning tarkib topishiga zaruriy extiyoj tug'ilgan, uning ibtidoiy shakllari yuzaga kelgan. Dunyoqarash falsafagacha ham mavjud edi, uning yangi bosqichga ko'tarilishiga shartli ravishda fanlar deb atalgan mahnaviy omil o'ziga xos tahsir ko'rsatgan. Olamning xayoliy mifologik manzarasi bilan uni yangicha tafakkur asosida tushuntirish o'tasidagi ziddiyatni xal etish sifatida falsafa yuzaga kelgan desa bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan fikr yuritadigan bo'lsak, falsafa paydo bo'lishining ikki manbai to'g'risida so'zlash mumkin. Falsafaning mahnaviy manbalarini, negizlarini tor va keng mahnodagi predfilosofiya tashkil etadi. Keng mahnoda predfilosofiya, bir tomondan, rivojlangan mifologiyani, ikkinchi tomondan, shartli ravishda fan deb hisoblaydigan (ilk matematika, astronomiya, fizika, medisina va h.k.) mahnaviy omil majmuini ifodalaydi. Tor mahnoda u mifologiyada va ilk fanlarda falsafaning kelib chiqishi uchun negiz mavjud bo'lganligini bildiradi. Tahkidlanganidek, mifologiyada stixiyali tarzda dunyoqarash masalalari ishyilgan, ilk fanlarda esa nafaqat bilimlar, balki tafakkurni rivojlantirish, ilmiy ruh va usul ham o'rin olgan. Predfilosofiyada dunyoqarash va olamni ilmiy tushunishga bo'lgan dastlabki intilish uzviy bolanib ketgan. Falsafaning to'la mahnoda yuzaga kelishida iqtisodiy, sosial va siyosiy shart-sharoitlar alohida o'rin tutgan. Buni quyudagilar bilan izoxlash mumkin: bronza iurollardan temirga o'tish; agrar ishlab chiqarish va xunarmandchilikning rivojlanishi; ibtidoiy jamoa tuzumining tanazzulga yuz tutishi; davlat strukturalarining yuzaga kelishi; ijtimoiy hayotni boshqarishda huquqiy nazoratning tarkib topishi; mexnat taqsimoti va pul-tovar munosabatlarining paydo bo'lishi; bilimlar sohasida ilmiylik elementlarining to'plana borishi; dunyoqarashning rivojlanishi va x.k.

Falsafa paydo bo'lishining ijtimoiy-iqtisodiy zaminlari haqida so'z borganda sinfiy jamiyatning yuzaga kelishi bilan aqliy mexnatning jismoniy mexnatdan ajrab chiqishi haqidagi ikki buyuk tarixiy hodisa - ikki omil katta tahsir ko'rsatganligini ham tahkidlash joiz.

Adabiyotlarda falsafaning paydo bo'lishini iuldorlik tuzumi tarkib topishiga bolab tushuntiradilar, natijada uning yoshini 3000 yilga tenglashtiradilar.

Falsafa uchun muhim bo'lgan olam va unda insonning o'rni to'g'risidagi tasavvurlar tarixan turli mamlakatlarda turli shakllarda yuzaga kelgan. Insonning tabiatga faol munosabatining orta borishi bilan, masalan, ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilikning rivojlanishi, shuningdek savdo-sotiining kengayishi bilan tajribalar kshlami kengaygan. Bu esa o'z navbatida ilk falsafiy tasavvurlarning vujudga kelishiga o'z tahsirini o'tkazgan.

Tashqi omillarning rolini inkor etmagan holda falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlarini uning ichki rivojlanish qonuniyatlari asosida qarab chiqish ham muhimdir.

Adabiyotlarda tahkidlaganidek, "falsafa" degan so'z nafaqat donishmandlik, balki ayni vaqtda dunyoni yangicha tarzda idrok etish va tushunishni ham bildirgan. Bunday fikrlash falsafa dunyo haqidagi mahlumotlarning oddiy yig'indisi emas, balki o'z asosiga ko'ra, dunyo bir butundir, degan umumiy qarashning yuzaga kelishini bildiradi. Mahlum mahnoda buni falsafa vujudga kelishining birinchi bosqichi deb atash mumkin.

Olamni, tabiat va jamiyatni bir butun, yaxlit holda o'rganish ayni vaqtda ular haqida alohida-alohida fikr yuritishni ham taqozo etgan. Natijada asosiy E'tibor, dastavval tabiat, uning hodisalarini izoxlashga qaratilgan. Yer, iuyosh, yulduzlar, butun dunyoning tuzilishi haqidagi kosmologik va kosmogonik qarashlar yuzaga kelgan. Falsafiy tafakkur taraqqiyotining bu ikkinchi bosqichi tabiat falsafasi deb yuritilgan.

Falsafa ijtimoiy hayot masalasi bilan keng shug'ullana boshlagan, oqibatda jamiyat haqidagi umumiy tushunchalar, nazariy qoidalar, sosial, siyosiy, iqtisodiy, estetik, axloqiy, huquqiy, diniy, ilmiy qarashlar, tasavvurlar yuzaga kelgan. Bu Tahlimotlar majmui ijtimoiy falsafa atalib, uning taraqqiyotidagi uchinchi bosqichni tashkil etgan. Keyinchalik bu omillar negizida falsafaning fan sifatidagi maiomini tasdqilaydigan kategoriyalar, qonunlar tizimi yaratilgan, tushunchalar ishlab chiqilgan. Bu falsafa taraqqiyotidagi to'rtinchi bosqich bo'lib, XIX asr faylasuflaridan Kant, Gegel, Feyerbax va boshqalar unga katta hissa ishshganlar.

XX asr falsafa oldiga yangi-yangi vazifalarni ishydi. Fan-texnika shunchalik rivojlanib ketdiki, uning iudrati oldida insonlar nochorday bo'lib qoldi. Shu munosabat bilan inson, uning qalbi, maqsadi, ijtimoiy mavqei haqida ko'p falsafiy oqimlar vujudga keldi. Insoniyat aql-idroki, tafakkurining mevasi bo'lgan fan-texnika yutug'ilarini buzunchilikka emas, balki faqat bunyodkorlik tomon yo'naltirish hayot-mamot masalasiga aylandi. Mana shunday ulkan umumbashariy masalalar bilan shug'ullanib, falsafa o'z taraqqiyotining beshinchi - hozirgi zamon bosqichini boshidan kechirmoqda.

Demak, falsafa nafaqat tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, balki mahnaviy
extiyojlar tufayli ham kelib chiqian. Bular: rivojlanayotgan olam, inson, uning ongi va tafakkuri mohiyatini ochishga qaratilgan Tahlimotlarning yaratilishi; borliqning boshlanich asoslari va taraqqiyoti qonunlarini ishlab chiqish zaruriyati; borliq to'g'risidagi fikrlarning oqilona asoslangan uslubga, mantiqiy tafakkur va bilish nazariyasiga asoslanishi; afsonaviy, diniy va noilmiy tasavvurlar hamda fikrlarga anii munosabatni belgilab olish; odamlarning ilmiy bilish, falsafiy tafakkur yuritishdagi ongsizlik mayillariga barham berish zaruriyati va h.k.

Muammoli vaziyat: Falsafa uchun muhim bo'lgan olam va unda insonning o'rni to'g'risidagi tasavvurlar tarixan turli mamlakatlarda turli shakllarda yuzaga kelgan. Insonning tabiatga faol munosabatining orta borishi ilk falsafiy tasavvurlarning vujudga kelishiga o'z tahsirini o'tkazgan. Shu sababli tashqi omillarning rolini inkor etmagan holda falsafiy tafakkur taraqqiyotining bosqichlarini uning ichki qonuniyatlari asosida qarab chiqish lozim.

Yuqoridagi nihoyatda rang-barang omillar falsafa tarixida turli-tuman falsafiy tahlimotlar, maktablar, oqimlar va yo'nalishlarning tarkib topishiga olib keladi.

Tarixiy-falsafiy jarayon negizida hamma vaqt u yoki bu mutafakkirning falsafiy tahlimoti turgan. Falsafiy tahlimot - bir-biri bilan mantiqan uzviy bog'langan muayyan qarashlar tizimidir. Bu Tahlimotning davomchilarini falsafiy maktablar deb yuritilgan. Bir butun g'g'oyaviy tamoyillar turlicha falsafiy maktablar tomonidan rivojlantirilib, rang-barang nusha, andozalarga ega bo'lgan,

ularning majmui falsafiy oqimlarni tashkil etgan. (Chunonchi, hozirgi zamon falsafasida neopozitivizm, personalizm va boshqalar). Falsafiy-tarixiy jarayondagi ulkan va muhim tuzilmalar falsafiy yo'nalishlar nomini olgan. Falsafa tarixi ana shunday tahlimotlar, maktablar, oqimlar, yo'nalishlarning majmuidan iborat bo'lib, ularni Sharq falsafasida ham, arb
falsafasida ham uchratish mumkin. Falsafaning vujudga kelishi haqiiiy mahnoda eradan oldingi VI asrga to'g'ri keladi. Mana shu davrda qadimgi Sharq mamlakatlari, eng avvalo Hindiston va Xitoy va qadimgi Yunonistonda mifologik tushunchalardan falsafiy fikrlashga o'tish jarayoni yuz beradi.

Yodda tuting:

Falsafa tarixi  tafakkur faoliyati va rivojlanishining o'ziga xos murakkab tarixiy jarayonidir.

Qadimgi hind falsafasi anii ifodalangan diniy xarakterga ega bo'lgan. Hindistonda falsafiy tafakkur shakllanishining ibtidosi braxmanlar (koxinlar) tahlimoti bilan uzviy bolangan. Braxmanizm o'z aqidalarida vedalarga asoslangan. "Veda"lar e.o. II-I asrlarda yuzaga kelgan bo'lib, qadimgi hind maobudalariga, xudolarga baishlangan gimnlar majmuidan iborat (sankrit - "bilim"). Vedalardan joy olgan matnlarning barchasi muiaddas kitoblar sanalgan, ularni braxmanlar (e.o. birinchi ming yillik o'rtalari) talqin  va tarib etganlar. Eradan oldingi ikkinchi ming yillikdan to VI asrgacha bo'lgan muddat veda adabiyotlari davri deb ataladi. Eng qadimgi vedalarni to'rt to'plam (sanxit) tashkil etgan: 1. Regvida - gimnlar to'plami; 2. Yadjurveda - fidoyilik hikmatlari; 3. Samaveda - fidoyilik ishshqilari; 4. Atxarvaveda - iltijo ishshqilari. "Veda" larning xulosa qismini Upanishadalar (ustoz oldida tiz chshkib o'tirish degan mahnoni bildiradi) tashkil etgan. Ular falsafa uchun birinchi ahamiyatli bo'lgan matnlardan tashkil topgan.

Upanishadalarda barcha narsalarning birligiga, kosmologik mavzularga, hodisalarning sabab-oqibatli bog'lanishlariga baishlangan g'oyalar keng o'rin olgan: "Iuyosh kechasi qaerda bo'ladi?", "Yulduzlar kunduz kuni qaerga yshqoladi?", "Biz kimmiz?", "Biz qaerdan kelib qoldik?", "Biz qaerga borayapmiz?".

Upanishadalarda borliqning birinchi asosi sifatida braxman, yahni umumiy, shaxssiz "olamiy jon", ibtido tilga olinadi, olamning boshqa barcha narsalari ana shundan kelib chiqian, deb tushuntiriladi.

Upanishada falsafasining asosiy belgilari quyudagicha:

Birinchidan, tabiat hodisalari va insonning paydo bo'lishi, braxman (mahnaviy ibtido, u ko'proq xudo) bilan atman - (ruh, alohida jon) o'rtasidagi munosabat asosida tushuntiriladi. Braxman va atman butun hind falsafasining markaziy muammosi, markaziy tushunchasiga aylanadi.

Ikkinchidan, mahnaviy mohiyat insonda va tabiatda aynandir.

Uchinchidan, bilimlar ikki turga bo'linadi: sodda bilimlar va oliy bilimlar. Sodda bilimlar ko'proq va asosan kundalik amaliy hayot bilan bog'liq bo'ladi, oliy bilimlar mahnaviy mutloqlik haqidagi bilim bo'lib, borliqni yaxlit holda idrok etishni bildiradi.

Hind falsafasi taraqqiyotdagi epik davr deb ataladigan bosqich eradan oldingi VI asrdan boshlanadi. Bu vaqtda hind jamiyatida muhim o'zgarishlar yuz beradi: dehqonchilik va hunarmandchilik rivojlanadi; ijtimoiy tarmoqlanish kengaya boradi; qabilaviy hokimiyatchilikka asoslangan siyosiy boshqaruv o'z tahsirini yo'qotadi; monarxiya hukmronligi kuchayadi. Shu bilan birga hind jamiyati dunyoqarashida muayyan o'zgarishlar yuz beradi. Xususan, vedalarga asoslangan braxmanizmni tanqid qilish tendensiyasi kuchayadi. Bu davr falsafiy tafakkurining asosiy manbai shn sakkizta kitobdan iborat bo'lgan "Maxabxarata" poemasi hisoblanadi. Shu asar janr xususiyatlaridan kelib chiqib, bu davr epik davr deb atalgan. "Maxabxarata"da ancha rivojlangan falsafiy konsepsiyalar, dunyoqarash muammolari talqin etiladi. Ular orasida sank'pya, u bilan bog'liq yoga haqidagi qarashlar, prakrit (materiya, tabiat) to'g'risidagi fikrlarga keng o'rin berilgan. Prakrit borliqdagi barcha narsalarning manbai bo'lib, ruhiy holat, ong shunga bog'liq holda talqin etiladi. Prakritdan tashqarida unga bog'liq bo'lmagan holda sof ruh - purusha (u Brahman deb ham, atman deb ham nomlanadi) mavjud. Shunday qilib dunyoqarash dualistik tarzda, ikki ibtidoga asoslangan tarzda bayon etiladi.

Vedalarga qarshi yangicha qarashlarning ko'plab tarafdorlari ichida charvak, jaynizm, buddizm oqimlarini alohida ko'rsatib o'tish lozim. Ular hind falsafasida noordodoksal oqimlar hisoblanadi. (Ortodoksiya - yunoncha: mahlum sohada iatoiy qabul qilingan prinsip va talablarni so'zsiz bajarish degan mahnoni bildiradi).

Charvak - qadimgi va o'rta asr hind falsafasida materialistik yo'nalishdagi oqim. Uning keyingi ko'rinishi lokayata hisoblanadi. Charvak bo'yicha borliqning birlamchi asosini to'rt element - yer, suv, havo, olov tashkil etadi. Hayot ham, ong ham mana shu birlamchi moddiy elementlarning birikuvidan kelib chiqian. Materiya ham fikrlashi mumkin. O'lim hamma narsaning tugashi, intihosidir.

Charvakning axloqiy konsepsiyasi asosida cheksiz ro'atlanish - gedonizm (grekcha - zavqlanish) turadi. Shaxsning azoblanishi va ro'atlanishi real hayotiy hodisadir, bu maktab insoniyat mavjudligi va yashab turishining maqsadi boylik to'plash va ro'atlanishdan iborat, deydi. "Bugungi hayotda yeyish kerak, ichish kerak va ro'atlanish kerak, 'olbuki, biz hammamiz o'limga mahkum etilganmiz. Hozirgacha yashayapmiz, nafas olayapmizmi, ro'at qilib yashash kerak, zero, hech kim o'limning ishlidan iutula olmaydi". Barcha axloqiy meyorlar E'tibor qilishga arzimaydigan insoniy shartlar, xolos. Hozirgi zamon hind falsafasining yirik namg'oyandasi S.Radxakrishnan yozganidek, "charvak falsafasi o'ziga zamondosh bo'lgan avlodni ular ustidan tahsir etib turgan yukdan ozod qilishga yo'naltirilgan fanatik intilish ifodasidir" (Radxakrishnan S. Indiyskaya filosofiya. V 2x tt., T.I., SPb, Stiks, 1994, S.244).

Jaynizm maktabining asoschisi Maxavira Vardxamana (e.o. VI asr) hisoblanadi. U ayni vaqtda Jin - olib degan taxallus olgan. Bu yo'nalish shaxsning borliq masalasiga katta E'tibor beradi. Jaynizm nuqtai nazaridan shaxsning mohiyati dualistik - mahnaviy (jiva) va moddiy (adjiva) mahnoga ega.

Buddizm ham jaynizm singari eradan oldingi VI asrda yuzaga kelgan. Uning asoschisi shahzoda Siddhart'a Gautamadir, keyinchalik Budda (uyongan, maorifatli

degani) nomini olgan, uzoq muddat davomida zo'idlik o'tagan va askez tufayli uyonib, cheklashlarni inkor etadigan hayotni to'g'ri tushunish yo'liga o'tadi.

Bu Tahlimotning negizida 4 ta oliyjanob haqiqat turadi: insonning tavalludidan to vafotigacha hayoti azob-uqubat bilan bolangandir; azob-uqubatning sababi bu - hayotga intilish, tashnalikdir; azob-uqubatdan iutulish, uning sabablarini yo'qotish mumkin, buning uchun mazkur tashnalikdan xalos bo'lish kerak; azob-uqubatdan qitulishga olib boradigan yo'l bu - hayotni faqat hissiy zavilanish tarzida ham, tarki dunyochilik va o'z-o'zini azoblash tarzida ham inkor etishdir.

Azob-uqubatdan iutulish shaxs mavjudligi va borliqning pirovard maqsadi, yahni istaklarni yo'q qilishdan iboratdir. Buddizmning bu prinsipi uning axloqiy sohadagi konsepsiyasi - chidamlilik va nisbiylik bilan bolangandir.

Qadimgi hind falsafiy maktablariga xos umumiy belgilarni quyudagicha ko'rsatish mumkin: tevarak olam va shaxs o'zaro bolangandir; falsafa insonning ichki, ruhiy, botiniy dunyosiga yo'naltirilishi lozim; hayotiy tamoyillar tarki dunyochilik (askez), o'z-o'zini taxlil etish, o'z-o'zini botinan chuqurlao'tirish, faoliyatsizlikdan iborat; falsafa abstrakt xarakterga ega bo'lib, birinchi sabab muammosini xal qiladi. (U inson ruhiga egalik qiladi); hayot va o'lim mangu aylanib o'zaro almashinib turadi; har bir insonning yaxshi va yomon ishlari yig'indisi karma tushunchasi orqali beriladi.

Xitoy falsafasi Shan (e.o. 18-12 asrlar) va Chjou (e.o. XI-III asrlar) dinastiyalari davrida shakllangan. Uning manbalarini mifologik dunyoqarashlar tashkil etgan. Shan dinastiyasi davrida butun olamni yaratuvchi oliy ibtido - ilohiy shandi (Oliy imperator), Chjou davrida esa "Osmonning irodasi" bo'lgan. Shan dinastiyasi davridayoi zulmat va yorug'lik to'g'risidagi tasavvurlar tarkib topadi, ularda zulmat va yorug'lik predmetlarga xos ichki xususiyat deb qaraladi, ular o'rtasidagi o'zaro qarama-qarshilik narsa-hodisalardagi rivojlanish va o'zgarishlarni taominlaydi, degan fikr yuzaga keladi. Quyoshli kun - yorug'lik, bulutli kun - qorong'ulik, zulmat deb hisoblanadi. Davrlar o'tishi bilan yorug'lik bilan zulmat o'zining konkretlilik xususiyatini yo'qota borib, abstrakt mahno kasb eta boshlaydi.

Yorug'lik va qorong'ulik, zulmat haqidagi tasavvurlar "I szin" ("O'zgarishlar kitobi")da yanada rivojlantiriladi. Bu kitob o'zgarishlarni yorug'lik va zulmat bilan bolab tavsif etadi. Voqealarga baxtli va baxtsiz deb baho beradi. "O'zgarishlar kitobi" mistik ruhda bo'lib, keyinchalik keng ishllaniladigan falsafiy tushunchalarni ishlab chiqadi.Bu kitob olamni mifologik aks ettirishdan boshlab to falsafiy anglashgacha bo'lgan jarayonlarni aks ettiradi. Unda qadimgi Xitoy miflaridagi boshlanich ibtido (ruh)lar - Ino va Yan tushunchalariga keng o'rin beriladi.

Yan - bu erkaklik, yorug'lik va faollik asosi (ruhi), u osmonni boshqaradi. Ino - ayollik, qorong'ulik va zaif asos, u yerni boshqaradi. In va Yan bir-biridan ajralgan holda emas, balki o'zaro aloqadorlikda, o'z kuchlarini birlashtirgan holda harakat qiladi. Yan va Inning o'zaro o'rin almashinishi "Yo'l"(dao) bo'lib, butun narsalar shu orqali o'tadi. Dao - harakatdagi narsa-hodisalar yo'li, ayni vaqtda

olam yo’lidir. Insonning eng asosiy va ezgu vazifalaridan biri - olamda o’z o’rnini tushuna olishi, "o’z kuchini Osmon va Yer bilan io’sha olishidadir".
Xitoy falsafiy fikri keyinchalik besh unsur (birinchi ibtido) haqidagi Tahlimotda yanada rivoj topadi. Bu Tahlimot eradan oldingi birinchi ming yillikning boshida yozilgan "Tarix kitobi" ("Shu szinp")da bayon etilgan. Bu Tahlimotga ko’ra, butun moddiy olam 5 unsur (suv, olov, metall, yog’och, tuproq) birlamchi ibtidodan tashkil topgan.

Olamni materialistik tushuntirishni nazarda tutadigan bu Tahlimot keyinchalik ham rivoj topadi. Xususan, e.o. III asrda yashagan Szou Yanp fikricha, besh unsur - boshlanich ibtidolar o’rtasidagi aloqa dialektik yo’nalishga ega bo’lib, yooch - olovni, olov - yer (kul)ni, yer - metallni, metall - suvni (metall-predmetlarda to’planadigan namlik ko’zda tutiladi), suv – yog’ochni hosil qiladi. Shunday qilib hayot o’zaro bolangan zanjirdan iborat. Bunday doira nafaqat hayotga, balki o’limga nisbatan ham shunday: yog’och - yerni, yer - suvni, suv - olovni, olov - metallni, metall – yog’ochni yengadi. Elementlarning bunday o’zaro almashishiga muvofii holda jamiyatda ham dinastiyalar ham o’rin almashadi. Har bir dinastiya yuqoridagi elementlarning biron-bir belgisi ostida hukmronlik qiladi.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, e.o.VIII-V asrlarda Chunpsyu, e.o. V-III asrlarda hukmronlik qilgan Chjanpgo davrlarida Xitoyda yirik ijtimoiy o’zgarishlar yuz beradi, "barcha maktablar raqobati" nomini olgan mu'it yuzaga keladi. Bu davrda quyudagi maktablar tarkib topadi:
Konfusiylik maktabi; Maoizm maktabi; Daosistlar maktabi; Legizm maktabi; Nominalistlar maktabi; Naturfaylasuflar maktabi.

"Konfusiylik". Uning asoschisi e.o.551-479 yillarda yashab ijod etgan Konfusiydir. Adabiyotlarda ko’pincha uni Kun-szi deb atashadi, bu - o’qituvchi Kun degan mahnoni bildiradi. Bunday deyilishi bejiz emas, chunki xali 20 yoshga yetmayoi Kun Xitoyda mashhur o’qituvchi-ustoz nomiga ega bo’ladi. Uning Tahlimotining bosh manbai - "Luno yuy" ("Su'batlar va 'ukmlar") kitobidir. Mazkur kitobda ustozning o’z shiuvchilari bilan qilgan su'batlari o’rin olgan.

Konfusiy "Osmon" kategoriyasini tabiat bilan emas, balki eng avvalo inson bilan bog’liq holda qarab chiqadi. Inson, uning aqliy va axloqiy kamoli va xulqi Konfusiy falsafasining negizini tashkil etadi. Konfusiy o’zining asosiy E’tiborini ideal insonni tarbiyalash (ideal inson - szyunp-szi) masalasiga qaratadi: inson o’z atrofidagi kishilarga va jamiyatga hurmat ruhida tarbiya topgan bo’lmoq kerak, inson jamiyatning funksional elementi bo’lishi, shunga ko’ra, u jamiyatga bo’ysunishi lozim.

Xulq-atvor va tarbiyaning barcha ijtimoiy va axloqiy meyorlari Konfusiy Tahlimotida diniy tartib-qoida tusini oladi. Konfusiy tartib-qoidada donishmandlik va falsafaning yangi tipini ko’radi. Donishmandlikning mohiyati tartib-qoidaga rig’oya qilish, falsafaning mohiyati esa uni to’g’ri talqin qilish va tushunishdan iboratdir.

Inson uchun diniy tartib-qoidaning ahamiyatini tahkidlar ekan, Konfusiy jamiyatdagi noittifoilik, nifoilik kabi noxush hodisalarni diniy his-tuyularning g’arib holga kelib qolishi va tartib-qoida - ritualga bo’ysunmaslik oqibati deb tushuntiradi. Barcha kishilarni birlashtiruvchi umumiy asos va ularning Kosmos

bilan mustahkam birligi Osmon (yo’l)ga hurmat-e'tirom, ilohiy yakdillik tuyusi tufayli amal qiladi. Yerdagi bu ilohiy kuchni Konfusiy avvalambor an’anaviy xarakterga ega bo’lgan tartib-qoidada ko’radi.

Oliyjanob arboblarni, chinakam er kishilarni tarbiyalash maktabining asoschisi bo’lgan Konfusiy amaliy tarbiyalash borasida o’ziga xos falsafiy tamoyillarni ishlab chiqadi. Bu - kishilarni Osmon (xudo) bilan birlashtirishdan iboratdir. Ideal insonni, oliyjanob arbobni tarbiyalashning mohiyatini tushunish uchun Konfusiy o’z falsafasida "jeno" kategoriyasini keng ishllaydi.

Konfusiy talqin ida "jenp" tushunchasi turlicha mahnoni ifodalaydi: yaxshi fazilat, oliyjanoblik, insonni sevish, rahm-shafiat va h.k.  "Jenp" mohiyatini insoniylik tashkil etadi. Insoniylik - bu insonga ishyiladigan talab. Konfusiy "jenp" kategoriyasini konkretlashtiradi: "O’zingga ravo ko’hrmagan narsani birovga ham ravo ko’hrmagin", "O’zing erishmoqchi bo’lgan narsada boshqalarga ham kshmak ber" va h.k.

"Jenp"ning asosi "syao"dir. Syao ota-onaga, o’zidan yoshi ulularga, farzandlarga hurmat-e'tiromdir. Syao - mamlakatni bir oila sifatida boshqarishning samarali usuli hamdir. Shu sababli 'ukmdor bilan axolining munosabatlari ota bilan shil, aka bilan uka o’rtasidagi munosabatlarga shxshagan tarzda tashkil etilmoq lozim.

Ideal insonni tarbiyalashda nomlar (chjen-min)ni to’g’ri qayd etish muhimdir. Hamma buyumlar ularning nomi bilan moslao’tirilishi va muvofqilao’tirilishi lozim. Shu sababli "'ukumatning faoliyati" nomlarni to’g’ri qayd etish bilan boshlanmoq, chunonchi, oliyjanob arbob "so’z va ishni to’g’ri fahm etishi, vaoda berilgach, shunga muvofii harakat qilishi kerak". Bordi-yu "nomlar to’g’ri bo’lsa-yu, biroq nuti ziddiyatli kechsa, unday taqdirda muvaffaqqiyat iozonib bo’lmaydi". Konfusiy so’z bilan ishni bir-biridan ajratmaydi, ularni birgalikda idrok etadi. Uning quyudagi hikmatli so’zlariga E’tibor bering: "kishilar so’zini eshitib, ularning qilayotgan ishiga qarayman".

Maoizm. Bu maktab e.o. 475-395 yillarda yashagan Mo-szi (Mo Di) nomi bilan ataladi, eradan avvalgi V-III asrlarda keng tarialadi. Bu maktab iatoiy harbiylao’tirilgan tashkilotga o’xshab ketadi: uning aozolari boshlqilarning buyruilarini so’zsiz bajarishlari zarur bo’lgan.

"Ustoz Maoning traktatlari" ("Mo-szi")da uning asosiy falsafiy tamoyillari to’la aks etadi. Bular: "Donishmandlikning qadriga yetish", "Birlikni qadrlash", "Umumiy mu'abbat", "Harajatlarda iqtisod qilish haqida", "Musiia va shyin-kulguni inkor qilish", "Osmon irodasini inkor etish" va boshqalar.

Daosizm. (Xitoycha dao szya - dao maktabi). Konfusiylik bilan bir qatorda e.o. birinchi ming yillikning II yarmida vujudga keladi. Uning asoschilari - Lao szi va Chjuan-szi hisoblanadi. Bu falsafiy tahlimotning markazida dao (aynan - yo’l degani) kategoriyasi turadi. Dao bu tabiat, jamiyat, inson xulqi va tafakkurining ko’zga ko’rinmaydigan eng umumiy tabiiy qonunidir. Dao moddiy olamdan tashqarida alohida yashamaydi, binobarin, u olamni boshqaradi.

Dao tahlimotida sodda dialektik fikrning elementlari ko’zga tashlanadi: dao - bshshlii va ayni vaqtda bitmas-tugamas narsa; u harakatsiz, ayni vaqtda hamma narsani amalga oshiradi; u sukunatda va ayni vaqtda harakatda bo’ladi; u o’z-

o’ziga asos, Biroq unda na ibtido va inti'o mavjud. Daoni bilish ayni vaqtda umumiylikni, tabiat va uning tuzilishini bilish bilan tengdir.

Daosizmda osmon ham boshqalar qatori dao irodasiga bo’ysunadi: "inson yerga, yer-osmonga, osmon daoga, dao - o’z-o’ziga bog’liq bo’ladi".

Ko’rinadiki, qadimgi Xitoy falsafasi ko’proq kundalik turmush donishmandligini xal etishga qaratiladi, narsa-hodisalarning tabiiy holatini belgilashga intiladi.

Muammoniing yechimini topish uchun quyudagi holatlar bo’yicha fikr yuriting

1. Falsafaning kelib chiqishi masalasi.
2. Falsafiy dunyoqarashning g’oyaviy ildizlari.
3. Falsafiy g’oya va nazariyalarning shakllanishi.
4. Qadimgi Hind va xitoy falsafasining asosiy Tahlimotlari haqida fikr yuriting.

To’xtang: Diqqat qiling, chuqur mulohaza qiling.

Markaziy Osiyo jahon sivilizasiyasining eng qadimgi shchoilaridan biridir. Eradan oldin birinchi ming yillikda hozirgi Markaziy Osiyo xududlarida yunon tarixchilari skiflar, eron manbalarida saklar deb ataluvchi xalqlar yashagan. Kaspiy orti vodiylarini massagetlar egallagan. Markaziy Osiyoning ana shu xududlarida sivilizasiyaning ilk markazlari vujudga kelgan.

Eradan avvalgi VI asr oxiri va V asr boshlarida saklar fors davlati tarkibiga kirgan, eradan avvalgi IV asrda esa Markaziy Osiyoni Aleksandr Makedonskiy zabt etadi. Yunon istilosiga qaramasdan Markaziy Osiyo xalqlari o’zining madaniyatini saqlab qoladi.

Bu davrda xshjalik yuritish, madaniyat va sanoatning rang-barang shakllari rivoj topadi. Markaziy Osiyoga aramey alfaviti kirib keladi, uning asosida xorazmiy va sshd yozuvlari tarkib topadi. Markaziy Osiyo xalqlari ozaki ijodiyoti va adabiyotining boshlanishi ham xuddi shu davrga to’g’ri keladi. Shaharlar paydo bo’ladi, hunarmandchilik taraqqiy etadi, temir asbob-uskunalardan foydalanish yaxshi yo’lga ishyiladi. "Buyuk ipak yo’li"ning shu yerdan o’tishi tufayli axoli Hindiston, Xitoy, Misr, Mesopatamiya, 'atto Yunoniston va Rum kabi mamlakatlar bilan aloqalar shrnatadi.

Qadimgi Turon zaminda VIII asrgacha bo’lgan falsafiy, ijtimoiy axloqiy qarashlarning umumbaSharqy ahamiyatga molik bo’lganligi bizga qadar yetib kelgan tarixiy yodgorliklardan mahlumdir. Turk mifologiyasi, Orxun-Enasoy yozuvlari, Kultagin yodgorligi, Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Narshaxiyning "Buxoro tarixi" kabi manbalar o’sha davr ijtimoiy-falsafiy qarashlari to’g’risida muayyan tasavvur 'osil qiladi. Tarixiy manbalarda yozilishicha, qadimgi Hindistonda va Xitoyda keng tarialgan, biz yuqorida aytib o’tgan 4-5 elementning substansiyaviyligi haqidagi g’oyalar Markaziy Osiyo xalqlari falsafiy fikrlariga o’ziga xos tahsir etgan. O’sha zamonning donishmandlari borliq va undagi barcha narsa-hodisalarni suv, havo, tuproi va olovdan tashkil topgan deb shylaganlar, bu tasavvurlar keyinchalik

ilohiylao’tirilgan. Shu mahnoda havoni bulash eng katta guno' hisoblangan. Olov mehr-muhabbat ramzi bo’lgan. Saklarning epik ertaklarida vatanparvarlik, sadoiat va jasurlik g’oyalari kuylangan. O’z qabilasi mustaqilligi uchun kurashning yoriin namunalari Shiroq, To’maris haqidagi afsonalarda aks etgan. Sak eposining ayrim belgilari o’zbek, qoraqalpoi, turkman va tojik xalqlari ozaki ijodiyoti namunalarida saqlanib qolgan. Milliy qadriyatlarimizning ko’p iirralarini o’zida mujassamlao’tirgan eng muhim yozma yodgorliklardan biri "Avesto"dir. Zardsho’tiylik dinining muiaddas kitobi bo’lmish "Avesto"ning ilk sahifalari bundan uch ming yil ilgari Xorazmda yaratilgan. Eramizdan oldingi VII asrga kelib, uni Amudaryo so'ilidagi tuya boiuvchi qabilalar orasidan yetishib chiqian Zardo’sht qayta ishlab chiqqan. Zardo’sht "Avesto"ning qadimgi qismi bo’lgan "Yao’tlar"dagi ko’pxudolik aqidalariga zid o’laroq, uning "Go'lar" qismida yakkaxudolik g’oyalarini targ’ib etgan.

Qadimgi yunon donishmandi Pliniy taobiri bilan aytganda "bir million qo’shiidan iborat" bo’lgan "Avesto"da din nazariyasi, amaliyoti bilan bir qatorda Movarounnaxr va qadimgi Eron xalqlari tarixi, madaniyatiga oid iimmatli dalillar mavjud.

"Avesto"da Markaziy Osiyo xalqlarining olam, kosmos nur sochuvchi sfera va jannatdan iboratdir, degan tasavvurlari o’rin olgan: koinot Yer, okean, osmon bilan shralgan. Yer yetti qismdan iborat bo’lib, turlicha qilim va yil fasllari bilan bolangan. Osmon to’rt sferadan iborat: birinchisi yerga eng yaqin - yulduzlar (Katta Ayiq, Vega, Sirius, Kanopus). Ikkinchisi - Oy, uchinchisi - Iuyosh sferasi, to’rtinchisi - yorug’lik maydoni yoki jannat sferasi. Oy sferasi olti fazaga bo’linadi, ularning har biri besh kundan iborat. Yulduzlar, Oy va Quyosh xudo Axuramazdaning tanasini o’zlarida gavdalantiradi.

Zardo’shtiylik tahlimoti diniy shaklda berilgan, kimki Zardsho’t tahlimotiga amal qilsa, u er, suv, yilii uchun maydon, ayvonli uy, shn besh yoshli kelinga muyassar bo’ladi; kimki o’z uyida xotini bilan tinch-osoyio’ta yashasa, ko’p farzand kshrsa, oilasini mexnat qilib boisa, u pokdomondir.

Zardo’shtiylikda axloqiy tahlimot uch asosga: "ezgu fikr" (gumata), "ezgu so’z" (gukta), "ezgu amal" (gvario’ta) ga tayanadi. Ezgu fikr - xudo Axuramazdaning timsoli, yomon fikr esa yovuzlik timsoli Axrimanning belgisi. Ezgu fikr, ezgu so’z, ezgu amal - inson butun umri davomida amal qiladigan tamoyillar bo’lib, shu uch xislatga ega bo’lgan xalol mexnat so'ibi inson oliy haqiqatga erishadi.

Zardsho’tiylikda huquqiy qarashlar ham o’z ifodasini topgan. Kishilarning jamiyatdagi munsabatlarini tartibga solib turuvchi urf-odatlar va axloqiy qoidalar Axuramazda tarafidan ilohiy qonun darajasiga ko’tarilgan. Huquqiy sohalar jinoyat, fuqarolik, oila, yer-suv huquqi kabilarga ajratilgan. Suv jazosi o’ta shafiatsiz bo’lgan. Jazolashda o’t, qizdirilgan temir, qamchidan keng foydalanilgan. Bosh xakam Axuramazdaning o’zi bo’lgan.

Eramizning II-III asrlarida Markaziy Osiyo va unga ishshni 'ududlarda iqtisodiy tanazzul va uning g’oyaviy ifodasi sifatida yangi mafkuraviy oqim bo’lgan moniylik tahlimoti vujudga keladi. Bu Tahlimotning asoschisi 216 yilda Bobilda tug’ilgan, 25 yoshida Hindistonga borib o’z hamfikrlari jamoasini tuzgan

va keyinchalik Fors va Suzada yashagan Moniydir. U bir necha diniy-axloqiy risolalar muallifi bo’lib, "moniylik yozuvi" nomi ostida yangi alifbo kashf etib, uni tavsiya etgan. Uning orzusi ko’pchilikni savodxon qilish va hammaga mahqul tushadigan umumiy yagona dinni yaratish edi. Moniy turmush tarzini o’zgartirish borasida ham islohotchi bo’lib, go’shtni iste’moldan chiqarib, o’rniga sabzavotlardan tayyorlangan taomlarni ko’proq yeyishni tavsiya etgan. U mayda hunarmandchilikni rivojlantirish bilan birgalikda kamtarona, faiirlikda yashashni tarib qiladi. Moniy Tahlimotini tarib etish Eron, Markaziy Osiyo, Xitoy, Turkiston bshylab yoyilgan. Uning oshib borayotgan obro’sidan xadiksiragan zardo’shtiy koxinlar Moniyni falsafiy bahsga chaqirganlar. Ammo bahs bilan chegaralanmay, uni zindonga solganlar va, nixoyat, 276 yili qatl etganlar.

Moniyning falsafiy-ilohiy Tahlimotida mahnaviy qadriyatlarga katta o’rin berilgan. Uning fikricha, ikki dunyo - "zulmat va ziyo dunyosi" mavjud bo’lib, birinchisida adolatsizlik, zulm, zshravonlik 'ukm surgan, ikkinchisi abadiy, yemirilmaydigan, doimiy qadriyatlar dunyosi bo’lgan. Moniy tahlimotida qadimgi zamonning asosiy qadriyatlari jamlangan. Ularning umumiy tizimi asotir tafakkur (mifologiya), falsafa, koinot haqidagi ilmlar va boshqa ijtimoiy-tabiiy bilim sohalari bilan bog’liqda bayon etilgan. Moniy tahlimotining ozod de'ionlarga qaratilganligi va ular manfaatining g’oyaviy ifodasi bo’lganligidan III va undan keyingi asrlarda ham Eron, Markaziy Osiyo, Suriya, Misr va Rum imperiyasining Sharqiy vilg’oyatlarida uning g’oyaviy tahsiri keng yoyilgan edi. Buyuk ipak yo’li bo’ylab buddaviylik tahlimotining tarqilishiga qadar Eronda iuvinga uchragan Moniyning maslakdoshlari Markaziy Osiyodan pano' topadilar. Moniylik g’oyalari Markaziy Osiyoning o’troi, eng madaniy xalqlaridan bo’lgan uyurlar dunyoqarashiga katta tahsir o’tkazgan. Moniylikning uyur tiliga qilingan tarjimasi tarzida saqlangan diniy yodgorligi "Xua stuanift" ("Moniylikning tavba namozi") anii, tushunarli tilda yozilgan va bu asar qadimgi turkiy xalqlar tilida yaratilgan ilk adabiy yodgorlik hisoblanadi. Moniylik VII asrda Uyg’ur davlatining diniga aylangan.

Falsafiy qadriyatlar mavzusining izlari VI asrda yashagan Mazdak Tahlimotida ham ko’zga tashlanib turadi. Mazdak aqidasiga ko’ra, dunyoda sodir bo’ladigan jarayonlar ongli maqsadga yo’naltirilgan ezgulik va uning manbai bo’lgan yorug’lik bilan kshr-kshrona va tasodifiy harakat qiluvchi ioronilik (joxillik) o’rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bu kurash yaxshilikning yomonlik ustidan muiarrar alabasi bilan yakunlanadi. Yaxshilikni barqaror qilish uchun ijtimoiy tengsizlikka barham berish lozim, asosiy yovuzlik - boylikka xirs ishyishdir. Bunday tahlimotga asoslangan Mazdak boylarning mol-mulkini tortib olib, iambaallarga bo’lib berishga boshchilik qilgan. Feodallarning markaziy davlatdan ajrab chiqib, o’zlaricha mustaqil yashash tamoyillari kuchayganligi sababli, ularning kuchini ommaviy harakat orqali singdirishdan manfaatdor bo’lgan Eron sho'i Iubod I (488-581) avval boshda Mazdakni ishllab-iuvvatlab, uni butun Eronga iozi qilib tayinlaydi. Mamlakat bshylab xususiy mol-mulkni ijtimoiy tenglik asosida qaytadan bo’lib chiqish maqsadida talon-taroj qilish boshlanadi. Mamlakatdagi katta yer egalari, amaldorlar va ko'inlarning iqtisodiy va siyosiy hukmronligi barbod bo’lganidan

so’ng, shoh Iubod I Mazdak bilan aloqani uzadi. 529 yili mazdakiylarning inqilobiy harakati bostirilgach, Mazdak iatl etiladi. Ammo uning tahlimotidagi adovat va 'asadni yo’q qilishga qaratilgan tadbirlar, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurashish muiaddas vazifa ekanligi haqidagi g’oyalar jozibakor mafkura sifatida uzoq vaqt yashab qoladi. Keyinchalik bu tahlimot g’oyalari Eron, Markaziy Osiyo va Ozarbayjondagi de'ion va shahar kambag’allarining feodallar zulmiga qarshi, keyinroi esa arab istilosiga qarshi ko’tarilgan Muianna va Bobek io’zolonlarida kurash g’oyasi bo’lib xizmat qilgan.

Shunday qilib, islomning Markaziy Osiyoga kirib kelishi arafasida, yahni VII-VIII asrlarda bu er axolisining aksariyat qismi zardsho’tiylikning rang-barang shakllariga, mazxablariga, shu jumladan moniylik, mazdakiylik, buddaviylik oqimlariga e’tiqod ishyganlar. Shu bilan birga Xuroson va Movarounnahrning mahlum 'ududlarida xristianlik, asosan uning nestorqan tariqati ham keng tarqalgan.

Kishilarning dunyoqarashi, huquqiy va axloqiy meyorlari o’sha davrda yaratilgan diniy aqidalar va yozma yodgorliklarda bizgacha yetib kelgan. Biroq bular xali sof falsafiy shaklda bo’lmagan. Shunday bo’lishiga qaramay, ular keyinchalik falsafiy ruhdagi tahlimotlarning kelib chiqishiga o’z tahsirini o’tkazganligi mahlum.

E’tibor bering:

Falsafaning kelib chiqishi masalasi dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishi muammosi bilan uzviy bolangan. Falsafaning to’la mahnoda yuzaga kelishida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, mahnaviy shart-sharoitlar alohida o’rin tutgan.

Yodda tuting:

Tarixiy-falsafiy jarayon negizida hamma vaqt u yoki bu mutafakkirning falsafiy qarashlari va tahlimoti o’rin olgan.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar

1. Falsafa yuzaga kelishining ijtimoiy-tarixiy, iqtisodiy-mahnaviy mezonlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Fikrlar va yo’nalishlar rang-barangligi masalasi falsafa tarixida qanday xal etilgan?
3. Qadimgi Hind va Xitoy falsafasining asosiy tahlimotlarini tavsiflab bering.
4. Arablargacha Markaziy Osiyoda falsafiy tafakkurning o’ziga xos yo’nalishlari haqida nima bilasiz?

Adabiyotlar

Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. - Toshkent, 1998.
Milliy istqilol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-Toshkent, 2000
Falsafa. (E.Yusupov taxriri ostida). - Toshkent, 1999.
Falsafa. (Mahruzalar matni)-Toshkent, 2001
Falsafa tarixi. - Fargona, FDU, 1998.

**3-Mavzu:** Evropada falsafiy fikrlar taraqqiyotining asosiy bosqichlari

**REJA:**

1.Antik dunyъ falsafasi va uning asъsiy xususiyatlari
2.Evrъьa ъ’rta asrlar falsafasi.
3.Eng yangi davr Yevrъьa falsafasi va uning keyingi taraqqiyъt bъsqichlari

Mavzuning tayanch iboralari: Ellinizm, antik falsafa, olamning birinchi asosi, olov (Geraklit), "Hamma narsa oiib turadi" (Geraklit), atomistik g’oya (Demokrit), "Ideyalar olami" (Aflotun) "birinchi falsafa", "ikkinchi falsafa" (Arastu), Epikurizm, Rim falsafasi.

Mavzuning maqsadi: Talabalarda antik zamon falsafasi taraqqiyoti xususida tushuncha 'osil qilish.

Shuni tahkidlash joizki, antik zamon falsafasi haqida so’z borganda umuman qadimgi zamon falsafasi (mas, Xindiston, Xitoy) emas, balki qadimgi Yunoniston va Rimda yuzaga kelgan falsafa nazarda tutiladi. Antik falsafa davri eradan oldingi VII asrning oxiri - VI asr boshlarida vujudga kelib, u eramizning V-VI asrlariga qadar, iariyb ming yildan ortii davrni o’z ichiga oladi. Bu - iuldorchilikka asoslangan jamiyatning xususiyatlarini o’zida gavdalantirgan falsafiy tafakkurning alohida tarixiy tipidir.

Yunon antik falsafasi taraqqiyotini shartli ravishda to’rt bosqichga bo’lish mumkin. Antik falsafa o’z mazmuni, fikrlash uslubi jixatidan Sharqiy falsafiy tizimlardan va olamni mifologik izoxlash tamoyillaridan keskin fari qiladi. Ayni vaqtda yunon falsafasida uzoq vaqt mobaynida mifologik elementlar saqlanib qolganligini ham tahkidlash kerak.

Birinchi bosqich e.o. VII asrdan V asrgacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Bu odatda sokratgacha bo’lgan davr deb ataladi (Sokrat: e.o. 469-399). Bu davrga Milet maktabi, Geraklit, Eley maktabi, Pifagor va pifagorchilar, Empedokl va Anaksigor, qadimgi yunon atomist (Levkipp va Demokrit) lari tegishlidir.

Ikkinchi bosqich taxminan e.o. V asr o’rtalari va IV asr oxirigacha bo’lgan muddatni ifodalaydi. U odatda klassik (mumtoz) davr deb ataladi. Buyuk yunon faylasuflari Sokrat, Aflotun va xususan Arastu ana shu davrda faoliyat ko’rsatadilar, yunon falsafasini yuqori co’hqqiga ko’taradilar.

Uchinchi bosqich ellinistik (yoki ellinik) atalib, e.o. IV-II asrlarni o’z ichiga oladi. Chuqur falsafiy mazmundor tizimlarning yuzaga kelishi bilan bolangan klassik davrdan farqli o’laroq bu davrda bir qator falsafiy maktab (peripatetiklar, Aflotun akademiyasi, stoiklar va epikureylar maktabi, skeptisizm) lar yuzaga keladi. Teofrast va Epikur bu davrning yirik namg’oyandalari bo’lgan. Bu maktablarning barchasi uchun umumiy xususiyat shundan iborat ediki, ular Aflotun va Arastuning Tahlimotlarini izoxlashdan etika muammolariga o’tadilar, skeptisizm va stoisizmning talqin chilariga aylanadilar.

Antik falsafa taraqqiyotidagi to’rtinchi bosqich (e.o. I asr - milodning V-VI asrlari) shunday davrga to’g’ri keldiki, endilikda antik zamonda Rim xal qiluvchi rolp shynay boshlaydi, xatto, Yunoniston ham uning tahsiriga tushib qoladi. Rim falsafasi yunon, xususan, ellinizm davri falsafasi tahsirida shakllanadi. Rim falsafasida uchta yo’nalishni alohida ko’rsatish mumkin: stosizm (Seneka, Epiktet, Mark Avreliy), epikureizm (Tit Lukresiy Kar), skeptisizm (Sekst Empirik).

III-V asrlarda Rim falsafasi yirik namg’oyandalari Aflotun hisoblangan neoplatonizm yuzaga keladi va rivojlanadi. Neoplatonizm nafaqat ilk xristian falsafasiga, shu bilan birga butun o’rta asr diniy falsafasiga kuchli tahsir ko’rsatadi.

Muammo:

Yunon va Rim faylasuflari tomonidan olamning birinchi ibtidosining talqin etilishi.

Endi antik falsafa taraqqiyoti bosqichlari shakllanishi va rivojlanishida faollik ko’rsatgan mutafakkirlarning baozi birlari bilan tanishib o’taylik.

Birinchi asos g’oyasi Milet maktabi namg’oyandalari Fales (e.o. 625-547), Anaksimandr (e.o.610-546), Anaksimen (e.o. 585-524) va Geraklit (e.o. 544-480) tomonidan ilgari suriladi.

Milet falsafiy maktabi faylasuflari birinchi ibtidoni tabiat bilan bog’liq yagona mohiyat sifatida tushunganlar. Boshqa narsa emas, tabiatning o’zi butun mavjudlikning sababchisidir, degan xulosani berganlar.

Birinchi ibtido mifologiyadan falsafiy dunyoqarash tizimiga o’tib, umumiylikni nazarda tutar edi. Dastlabki davrlarda bu ibtido eng umumiy tushuncha ko’rinishida emas, balki yaiqol shaklda tasavvur qilinadi: Fales bunday ibtidoni - suv, Anaksimen - havo, Geraklit - olov deb hisoblaydi. Suv, havo, olov umumiylikning ramzi sifatida e’tirof etiladi. Bular oddiy jismlar bo’lmay, shu bilan birga ilohiylikni ham bildiradi. Geraklitning olovi shunchaki o’t emas, balki yaratuvchi - olov - mangu va ilohiy kosmik olov edi.

Fales qadimgi dunyoning yetti donishmandidan biri va Milet maktabining asoschisi bo’lib, har tomonlama bilimli, geometrik teoremalarni isbot qilgan, Iutb Yulduzini kashf etgan, e.o. 585 yili Iuyoshning tutilishini bashorat qilgan; yilni 365 kun, har bir oyni 30 kundan iboratligini ko’rsatgan mutafakkir bo’lgan. U rang-barang butun borliqning asosiga Suvni ishyadi: Suv - mavjudlikning ham ibtidosi, ham intihosi.

Uning quyudagi hikmatli so’zlari mashhur: "Butun borliqning eng qadimgisi - Hudodir, chunki u tug’ilmagan"; "Olam Hudo tomonidan yaratilganligi uchun hamma narsadan go’zaldir"; "Vaqt hamma narsadan donishmanddir, chunki u barcha narsaning nimaligini ko’rsatib beradi"; Undan so’radilar: "Olamda nima murakkab?" - "Boshqalarga maslahat berish" va '. k. "Baxtsizlikni qachon engib o’tish mumkin? - Dushmaning uchun o’ta iiyinroi holat sodir bo’lganini ko’rganingda".

Falesning shogirdi bo’lgan Anaksimandr butun borliqning birinchi asosini apeyron (anqilab bo’lmaydigan, cheksiz abstrakt modda) tashkil etadi, deb hisoblaydi. Apeyron faol, hamisha harakatda bo’ladi; bir xil narsa larning shlishi

boshqalarning tug'ilishiga olib keladi. Yagona apeyron qarama-qarshilik (sovui va issii)larga ajraladi. Olam sovui va issii kurashi tufayli yuzaga keladi. Yunon mutafakkirlaridan birinchi bo'lib, Anaksimandr inson va hayvonlarning kelib chiqishi haqidagi masala bilan iiziiadi. U Yerning yumaloiligini, Oy aks ettirilgan yorug'lik tufayli nur sochishini 'ayol qiladi.

Anaksimen astronomik Tahlimotlarni tabiiy yo'l bilan izoxlaydi. Butun borliqning birinchi asosi Havodir. Havo yumshab - olovga, iuyuilashib - shamolga, keyinchalik bulutga, so'ngra suvga, keyin tuproiia, toshga yana boshqa narsalarga aylanadi. Uning tasavvur qilishicha, yoritgichlar Yerning atrofida harakat qiladi, Iuyosh va Oy Yerdan paydo bo'lgan. Olamning birlamchi asosi, undan borliqning rang-barang hodisalarining yuzaga kelishi, va, aksincha, turli-tumanlikning Yagonalik (birlamchi negiz)ga qayta aylanishi muammosi falsafiy fikr taraqqiyotida turlicha yo'nalishlarni keltirib chiqaradi. Birinchi yo'nalishga mantiqiy jixatdan Levkipp (e.o. 500-440) va Demokrit (e.o. 460-370) aloqadordir. Ularning har ikkalasi ham olamga atomistik qarashning asoschilaridir. Atom elementlarning mohiyati bo'lib, butun tabiat ulardan tashkil topgan. Atomlar - bo'linmasdir. Olamda jiddiy sababiylik 'ukm suradi. Atomlar to'rt belgi asosida bir-biridan farilanadi:shakli (uchburchak, jimjima va x.k.; insonning joni va fikri sferik); hajmi (bahzan shu qadar kichik bo'ladiki, sezgi organlari ilay olmaydi, bahzan nihoyatda ulkan); tartibi bilan; holati bilan (atomlarning bir qismi vertikal, bir qismi gorizontal harakat qiladi).

Har bir atom abadiy, o'zgarmasdir, shu sababdan borliq mangu, yshqolmasdir. Levkip va Demokritning bu tasavvurlaridan 2500 yil o'tib Nobel mukofoti sovrindorlari E.Rezerford (1871-1937) va D.D. Tompson (1856-1940)larning atom modeli yaratildi. 1966 yili yapon fizik olimi Nobel mukofoti sovrindori Sakata eng kichik zarrachalardan - neytronining yshqolmasligi g'oyasini yaratdi.

Shunday qilib Yagonalikdan rang-baranglikning kelib chiqishi va uning Yagonalikka qayta aylanishi to'g'risidagi muammoni xal etishga urinish amalga oshiriladi. Ular rang-barangdir. Birlamchi asosni izlash bu yerda moddiy-ashoeviy substansiyani topish tarzida amalga oshiriladi (Fales, Anaksimandr, Anaksimen, atomistlar: Levkipp, Demokrit, Empedokl: e.o. 490-430; Anaksagor: 500-428)

Muammoli vaziyat:

Sharq va arbning qadimgi falsafasi yuzaga kelishi va rivojlanishining umumiy va xususiy qonuniyatlarini bilish.

Antik falsafada birlamchi asosni topish bo'yicha mantiqiy yondashuv ning ikkinchi yo'nalishi moddiy-ashoeviy birlamchi asosning harakati va taraqqiyoti umumiy qonuniyatlarini anqilash yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu murakkab masalani faqat ikki yo'l bilan xal etish mumkin edi: birinchidan, yakka (mono) narsani tan olish, birlamchi asosning ko'p xillikka aylanishi mexanizmini o'rganish; ikkinchidan, birlamchi asosning miqdorini ko'paytrish.

Geraklit (e.o. 520-460) harakatning umumiyligiga va o'zgarishiga E'tiborni qaratadi. Qarama-qarshiliklarning kurashi, uningcha, harakatning manbaini tashkil etadi. Geraklit qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunining dastlabki

asoslarini berdi ("Urush hamma narsaning sho'idir"). Biroq "olov"dan narsalarni shakllantiradigan mexanizmlarni ochib bera olmaydi.

Shu sababli Empedokl ikkinchi yo’lni tanladi: bitta (monobirlamchi asos)dan ko’p asosga o’tadi. Atomistlar birlamchi asoslar miqdorini cheksiz darajada ko’paytirdilar.

Pifagorchilar (Pifagor e.o. 580-500) narsalar borliqning miqdoriy tomonlariga asosiy e’tibor berdilar. Sonning substansionalligi moddiy, mahnaviy va axloqiy sohalarni boshqaradi. Sonning abstraktligi moddiy narsalardan ajratiladi. Pifagorcha matematik simvolizm va son mistikasining to’la aqidasi shu asosda kelib chiqadi. Pifagorchilar barcha narsalarni sonning majmui bilan xarakterlashga harakat qildilar: tana muayyan hajmni tashkil etadi; tashqi ko’rinishiga, og’irlikka va x.k.larga egadir. Hamma narsaning chegarasi - bir sonidir. Bir - o’ziga xos atom. U moddiylashgan, to’g’riroi, yarim moddiy, yarim mahnaviy (ideal)dir. Biroq bir sonini atom singari
hissiy idrok etib bo’lmaydi.

E’tibor bering: Qadimgi yunon va Rim faylasuflari falsafaning ko’p masalalarini yangicha yoritishga katta hissa qo’shdilar.

Birlamchi asos g’oyasini amalga oshirishda Aflotun (e.o. 427-347) va Arastu (e.o. 384-322) uchinchi yo’nalishga zamin ishydilar.

Aflotun fikricha, narsalarning real olami g’oyalar olamining rangsiz in’ikosidir. g’oyalar olami - real olamdir. g’oyalar olami - abadiy, doimiy. Narsalar olami esa ishnimsiz, o’zgaruvchan, u - noreal olam. Olam Aflotun tasavvurida go’yo sshnib boradi: birinchidan, narsalar o’z eydos (g’oya)lariga taqlid qiladi; ikkinchidan, inson ongidagi narsalar haqida tasavvurlar faqat eydoslarning sg’oyasidir; uchinchidan, g’oya (eydos)lar olami narsalar olami singari ob’ektiv, kishilar ongiga bog’liq bo’lmagan holda mavjuddir.

Aflotun fikricha, g’oyalar olami - birlamchi asosdir. Biroq tashqi olam ham zarurdir. Ustunlik g’oyalarga - obrazlarga tegishlidir. g’oyalar narsalarning nomoddiy mohiyati bo’lib, olamdan alohida tashqarida turadi. Narsalar bilan g’oyalar o’rtasida yo’qlik mavjud.

Arastu ideal mohiyatlar olami bilan narsalarni birlashtiradi, Aflotun g’oyalarni
"shakllar" deb ataydi. Narsalar g’oyasi bilan narsalarning o’zlari uzviy bog’liq holda turganda Aflotun g’oyalari "shakllar" tusini oladi. Arastu materiya (xyule) passiv asos, nomoddiy shakllarni faol asos deb hisoblaydi, Biroq ularning o’zaro ajralmasligini e’tirof etadi.

Eradan oldingi IV asr qadimgi Yunoniston tarixida burilish nuqtasi bo’ldi. Bu davrda Aflotun va Arastuning falsafiy sistemalari vujudga keldi. Bu davrda falsafa koinotning tuzilishi muammosi bilan emas, balki jamiyat va insonni bilish muammosi bilan ham keng shug’ullanadi.

Inson va jamiyatga bunday yangicha qarash sofistlar nomini olgan Protagor (e.o. 480-410), Gorgiy (e.o. 483-375), Gippiy, Prodiklarning nomi bilan bolangan.

Qadimgi yunoncha "sofist" so’zi ("sofiste") bilimdonlarni, donishmandlarni, omilkor mutaxassislarni ifodalagan.

Sofistlar inson uchun ijtimoiy faoliyatda, birinchi galda siyosiy sohada kerak bo'ladigan bilimlarga shrgatishni bosh vazifa qilib oladilar. Inson nafaqat tabiat to'g'risidagi, balki inson haqidagi bilimlarga ham ega bo'lishlari zarur. Sofistlar tabiatni ob'ektiv ravishda bilib qolmasdan insonning o'zi va uning ongini ham o'rganish kerak, deb hisoblaydi. Bunda sofistlar inson qanday qilib o'z raiibiga fikrini o'tkaza olishi, tortishuvlarda olib chiqish, nima bo'lsayam, nima sohada bo'lsa ham isbotlashga intilishni muhim deb fikrlaydilar.

Mashhur sofist nomini olgan Protagor aytgan ediki, "har qanday narsada ikki - bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan fikr" mavjud.

Protagor o'zining qoidasini 'img'oya qilish uchun yangicha asoslarni topishga harakat qiladi. Modomiki, bir narsa haqidagi mulohaza bir-biriga zid bo'lmasligi kerak ekan, shu bilan birga har bir narsa haqida ikki qarama-qarshi, ayni vaqtda haqiiiy fikrlar bo'lar ekan, ular to'g'risida qaror qabul qilish uchun u yoki bu tomonning pozisiyasida turish lozim. Demak, fikr-mulohazaning mezoni, kriteriysi insondir. Protagorning quyudagi hikmatli so'zi o'sha davrdan meros bo'lib qolgan: "Inson barcha narsalarning o'lchovidir".

Modomiki, inson barcha narsalarning o'lchovi bo'lar ekan, demak hamma narsa uning bahosiga bogliq bo'ladi, natijada bilimlar, axloqiy meyorlar, diniy tasavvurlar ham nisbiy bo'ladi. Muammoning yechimini topish uchun quyudagi holatlar bo'yicha fikr yuriting.

1. "Antik falsafa" tushunchasini izoxlang.
2. Antik falsafaning eng muhim xususiyatlarini qayd eting.
3. Yunon va Rim falsafasining yirik namg'oyandalarini sanab ko'rsating.
4. Ularning falsafiy g'oyalarini iiyoslang.
5. Bu davrdagi falsafiy maktablar haqida nimani bilasiz?.

So'nggi ellinizm davri falsafiy Tahlimotlari Rimning siyosiy hukmronligi davrida ishlab chiqildi, iizii shundaki, Rimning o'zida ham ellinlao'tirilgan madaniyat tarkib topdi. Rimda falsafa e.o. II asrda rivojlandi, uning gullab yashnagan davri e.o. I asrga to'g'ri keladi.

Rimning ruhi nafaqat falsafada, balki olamni mahnaviy-amaliy o'zlao'tirishning boshqa shakllari - huquq, sanoat, meomorchilik, siyosiy sohada ham ifodasini topadi. Qadimgi Rim falsafasi tom mahnoda yangi konsepsiyalarni ishlab chiqmadi, antik yunon falsafasi g'oyalari (Lukresiy atomizmi, Posidoniy, Seneka stoizmi)ni, eng yaxshi falsafiy maktablarning fikrlarini sintez qilish yo'li bilan eklektik falsafiy tizimlarni yaratadi (Siseron, Mark Avreliy).

Rim falsafasi lotin tilidagi falsafa va yunon tilidagi falsafaga bo'linadi. Rimda ko'plab yunon olimlari yashagan, yunon tilida ijod qilgan. Yunon tili Rimda hurmatga sazovor bo'lgan, uni egallash madaniyat belgisi hisoblangan, aksariyat elita-rimliklar yunoncha yozganlar. Shu bilan birga lotin tilidagi falsafa ham mavjud bo'lgan.

Rimga falsafaning kirib kelishi xalqning an'anaviy badiiy mifologik va diniy

dunyoqarashini cheklab qo’ymaydi, albatta. Rimning badiiy-afsonaviy-diniy dunyoqarashi negizida sodda ko’pxudolik g’oyasi turar edi. Qadimgi rimliklarning aqidaviy tasavvurlariga ko’ra har qanday predmet va hodisaning ikkilangan o’z ko’rinishi - ruhi mavjud bo’lgan. Irmoqlar, shrmonlar, yo’llar, chorraxalar, eshiklar, har bir uyning bo’lagi ham o’z "xudo" siga ega edi. Yerga tashlangan alla xudo Saturnning ixtiyorida bo’lgan, shsayotgan allaga xudo ayol Serera, gullagan paytda xudo Flora, pishganda xudo Konsunga egalik qilgan. Úatto bolalikning ham 43 ta xudosi bo’lgan: chaialoining birinchi yiisi xudosi, yangi tug’ilganni qabul qilish xudosi, tshiiizinchi kun xudosi, birinchi iadam xudosi, alla xudosi va h.k.

Rim va yunon madaniyatini, yunon mahnaviyati bilan rim fuqaroligini o’zaro io’sha olgan kishi bu - Siseron edi. Buyuk rim notii, yozuvchisi, siyosiy arbobi Siseron har holda rim falsafasi tarkib topishining asosiy figuralaridan biri edi. (e.o. 106-ya.e. 42) Mark Tulliy Siseron o’z davrida yaxshi bilim oladi, yunon tilini egallaydi. O’zining falsafaga bo’lgan iiziiishi haqida shunday yozadi: "Mening falsafaga iattii iiziiishimga ko’plar 'ayron bo’lishadi. Afsuski, men falsafa bilan tshsatdan shug’ullana boshlagan emasman, unga yoshlik davrimdan boshlab ko’p mexnat sarflaganman, me'r ishyganman. Bunga mening otashin nutilarim, faylasuflardan olingan so’zlar bilan tshlib-toshgan vaozlarim guvo'lik beradi, uyimiz hamma vaqt eng bilimdon kishilar bilan gavjum bo’lgan, Diodot, Filon, Antioxa, Posiydoniy kabi ustozlardan ko’p narsa o’rganganman. Modomiki, barcha falsafiy ko’rsatmalar hayotga tadbiq etishga daovat etilgan ekan, shylaymanki, men ijtimoiy va shaxsiy ishlarimda hamma vaqt aql va fan ko’rsatgan narsalarga asoslandim".

Siseron ijtimoiy hayotning eng iaynoi jarayonlarida faoliyat ko’rsatdi, ayni vaqtda ko’plab risolalar yaratdi. U "Davlat to’g’risida" degan risolasida haqiiiy davlatni xalining yutui deb ataydi. Siseron birinchi o’ringa falsafa va fanning fuqarolik funksiyasini ishyadi, rimliklar davlat uchun foydali bo’lgan fanlarni egallashlari kerak degan fikrni bildiradi. Siseron aytgan ediki, "nodonlardan birortasi hech qachon baxtli bo’la olmaydi, baxtsiz esa dono bo’lmaydi".

Lukresiy Kar (e.o. 99-55) rimlik shoir va faylasuf, Epikur qarashlarining davomchisi, "Narsalarning tabiati haqida"gi poemaning muallifi.

Lukresiyning poemasi nafaqat ilmiy, balki badiiy asar bo’lib unda muallifning falsafiy qarashlari bayon etiladi. Shu munosabat "Tumanli bo’lib ko’ringan predmetni mutlaio tinii sheorlar bilan bayon etaman", deb yozgan edi.

Shoir-faylasufning nazarida uning tomonidan tanlab olingan poetik shakl baozilarda eotiroz uyotgan, bu xaqida: "bizning Tahlimotimiz raiiblarimizda hamma vaqt nafrat uyotishining sababi nimada?", deb fikr bildiradi. "Men yuksak bilimlarga daovat etaman, inson ruhini aqidalarning chalkash to’g’ridan olib chiqmoqchiman". Lukresiyning oliy maqsadi, uning burchi ana shundan iborat bo’lgan. Albatta, Lukresiyning bu fikrlari nihoyatda insoniy bo’lib, u kishilar ongida shrnashib qolgan aqidalarni bartaraf etishga qaratilgan edi. Biroq bunday murojaat hammaga ham yoimasligi tayin edi.

Lukresiyning asosiy falsafiy qarashlari quyudagi masalalarni xal etishda ko’zga tashlanib turadi: 1.Dinga munosabat. Lukresiyning butun dunyoqarashi diniy dunyoqarashga eotiroz tarzida tarkib topgan. Uningcha din bidoatning

tayanchi va barcha kshrgiliklarni keltirib chiqaradigan hodisadir, dinning tahsiri ostida yer yuzidagi kishilarning hayoti bemaoniliklar bilan to'ladir.
Yodda tuting! Antik falsafa o'z mazmuni, fikrlash uslubi jixatidan Sharq falsafiy tizimlaridan keskin fari qiladi.

deyish mumkin. Biroq, Prezidentimiz tahkidlaganidek, dunyo tan olgan ko'p ulu faylasuflarning asarlari 'anuzgacha o'zbek tilida nashr etilmaganligi tufayli aksariyat ziyolilar, xususan, yoshlarimiz ularning g'oyaviy qarashlari bilan yaxshi tanish emas. Sokrat va Platon, Nisshe va Freyd kabi olimlarning, hozirgi zamon chet el faylasuflarining kitoblari ham tushunarli qilib, izox va sharxlar bilan o'zbek tilida chop etilgan emas. Shuningdek, Freydning nazariy qarashlari, pragmatizm va ekzistensializm g'oyalari, Berdyaev va boshqalarning falsafasidan o'rganish foydadan 'oli bo'lmaydi. "Men arb falsafasida ham barcha muammolar yechilgan demoqchi emasman, - deydi I.A.Karimov.- Biz ko'p masalalarda arb faylasuflarining fikrlari bilan, ayniqsa, individualizm, egoizm qarashlarini ilohiylao'tirish bilan kelishmasligimiz mumkin. Lekin ularni hisobga olishimiz, keraklisini e'tirof, keraksizini inkor etishimiz zarur" (Karimov I.A. Milliy istqilol mafkurasi - xalq e'tiqodi va kelajakka ishonchdirir.T.,2000)

Muammo: XX asr falsafasining asosiy oqim va yo'nalishlarida inson va jamiyat muammolarining ifodalanishi.

Darhaqiqat, XX asr oxiriga kelib tabiiyotshunoslik, texnika, ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida yangicha uslub, yahni uzoq zamonlardan beri yashab kelayotgan an'anaviy (klassik) tafakkur uslubi noan'anaviy (noklassik) uslubga o'rin bo'shatib berishga majbur bo'ldi. Fan va texnikada, kundalik hayotda mikroolam hodisalarini o'rganish, sunoiy materiallardan, yarimo'tkazgich va komppyuter texnikasidan foydalanish oddiy hodisaga aylanib qoldi. Sunoiy moddalarni sintez qilish, 'attoki, bqologik va noorganik jismlarni chatio'tirish kabi misli ko'rilmagan yutug'ilarga erishildi. Inson dahosi atom, 'ujayra, genlarni jilovlabgina qolmasdan, koinot sari ham dadil iadam tashlamoqda. Elektronika va avtomatika sohasidagi erishilayotgan kashfiyotlar qator ilmiy taomil va me'yorlarning eskirib qolganligini ko'rsatdi va ularni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Bu narsa, o'z navbatida, dunyoqarash va metodologik vazifani bajarishi kerak bo'lgan falsafa uchun ham qator muammolarni keltirib chiqardi va uning oldiga ham muayyan talablarni ishydi.

Bu yerda shuni alohida tahkidlash kerakki, sosializmning siyosiy kuch sifatida barham topishi ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlarda erkin fikr yuritish imkoniyatlarini yaratadi. Gap shundaki, markscha-lenincha falsafa o'zining moddiy kuchidan ajraldi, endi u dunyoqarashning yagona shakli sifatidagi maiomini butunlay yo'qotdi. Buning natijasida olamni tushunishda mafkuraviy iskanjaga barxam berildi. Tarixiy taraqqiyotning yangi bosqichi, ayniisa yangi mustaqil davlatlarning yuzaga kelishi umuminsoniy qadriyatlarga, falsafiy muammolarga E'tiborni kuchaytirdi. .

Agar biz falsafiy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar tarkibida oladigan bo'lsak, bizning bugungi milliy falsafiy tafakkurimizni uning umuminsoniy negizlaridan aslo ajratish mumkin emas. Shunday ekan, tabiat, jamiyat va inson muammosini o'rganish sohasida marksistik falsafadan ancha ilgarilib ketgan arb falsafiy tafakkurini o'rganish muhim g'oyaviy-siyosiy va ilmiy ahamiyatga egadir.

Yuqorida tilga olinganidek, XX asrning ilmiy bilish, texnik taraqqiyot va bir qator ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar sohasidagi ijobiy o'zgarishlari XIX asrda qayd etilgan sinflar o'rtasidagi keskin qarama-qarshiliklarni yumshatishga olib keldi.

O’tgan asrning oxirida va asrimizning boshlarida nazariy tabiatshunoslikning rivojlanishi bilan ham materialistik (Spinoza, Feyerbax), ham idealistik (Shelling, Fixte, Gegel) sistemalar o’zlarining fan va jamiyat taraqqiyotini tushuntirishdagi kamchiliklarini seza boshladilar. Shu sababli XX asr falsafasidagi materializm va idealizm o’rtasida mavjud ziddiyatlar Yangi zamon davridagidek keskin o’rin tutmadi, metafizik materializm va idealistik dialektika unchalik katta tahsir kuchiga ega bo’lmadi.

Materializm va idealizmning baozi sistemalari yangi ilmiy-tarixiy asosda o’z doktrinalarini (mas. materializmda - antropologik materializm, ilmiy materializm; idealizmda - neotomizm, neorasionalizm va boshqalar) saqlab qoldilar. Ayni vaqtda falsafa sohasidagi baozi yo’nalishlarning bir-birlari bilan o’zaro muloiotga kirishishlari va sintez qilinishi hodisalari sezildi.

Hozirgi zamon falsafasi taraqqiyotida rang-barang maktablarning yutug’ilaridan foydalanish odatdagi hodisaga aylandi. Chunonchi, Frankfurt maktabining vakillaridan biri Yu.Xabermasning ilmiy ishlarida ruhiy taxlil (psixoanalizm), germenevtika, marksizm, hozirgi zamon pozitivizmining ko’plab qoidalaridan foydalanish ko’zga tashlanadi. Hozirgi zamon lingvistik falsafasi esa fenomenologiyaning g’oyalaridan ijodiy foydalanmoqda. Shunday qilib, XX asrda turlicha falsafiy maktablarning ochiqlik xarakteri va o’zaro bir-birlarini boyitishi kuzatilmoqda.

Shuni alohida tahkidlash joizki, yuqoridagi o’zaro tahsir va hamkorlik tufayli falsafadagi borliq, ong, bilish, tarix falsafasi kabi an’anaviy masalalarga o’zgartirishlar kiritildi, ularni yangicha taxlil qilish kuzatildi. Shuningdek, klassik falsafaga nisbatan munosabat bildirildi, eng muhimi, uning yangi davr muammolarini xal etishdagi ojizligi ko’zga tashlanib qolishi ko’rsatib o’tildi.

Garb faylasuflari o’z asarlarida hozirga qadar kam tadqiq etilgan yoki butunlay E’tibordan soiit qilingan masalalarni munozara yoki bahs maydoniga olib chiqdi. Buning natijasi shlaroi XX asr o’rtalaridan boshlab noan’anaviy yo’nalishdagi bir qator falsafiy oqimlar tarkib topdi. Ularning barchasiga xos bo’lgan umumiy jixat shundan iboratki, ularda sosial taraqqiyot, aql bilan aloqador muammolar qayta qarab chiqildigina emas, balki ijtimoiy hayotni, jamiyatni mahnaviy bu'ronlardan xalos etish to’g’risidagi konsepsiyalar ham o’z ifodasini topdi. Ularda asosan quyudagi masalalar markaziy o’rin tutadi: dunyoning turli-tumanligi va rang-barangligi; inson mahnaviy hayotining ichki qonuniyatlari; hayot mazmuni; inson va uning mohiyati; yashashning mahnosi; inson ruhiyati taxlili; falsafiy fikrlashning o’ziga xosligi; falsafada yangi uslub; inson faoliyatini ijobiy tomonga yo’naltirish va h.k. Bu falsafada inson, insoniylik va insoniyat, insonning ichki va tashqi dunyosi, bilish jarayonining yangi iirralariga alohida o’rin beriladi. Falsafiy mahnoda tushuniladigan erkinlik, demokratik prinsiplar, plyuralizm konsepsiyalari yangicha ilmiy qarashlar bilan boyitiladi.

Yana shuni ham qayd etish zarurki, XX asr falsafasida bir-biriga qarama-qarshi bo’lgan ssientizm va aksilssientizm yo’nalishi alohida o’rin tutadi. Ssientizm (lot. fan) asosan o’z taraqqiyotida tabiatshunoslikka suyanadi va XIX asrdagi pozitivizmning o’ziga xos taraqqiyotida namoyon bo’ladi. Ilmiylikning namunasi sifatida hozirgi zamon fizikasi ko’zda tutiladi. Biroq uning yangi

kashfiyotlari nisbiylik nazariyasi, kvantlar nazariyasining yangicha variantlarini yaratishga olib keldi, fizik ob’ektlarning qarama-qarshiliklarini hisobga oladigan rasionallikning yangi turini yaratdi. Shu mahnoda ssientizm va aksilssientizm o’rtasidagi ziddiyat nisbiy mahno kasb etadi. Rasionalizm bilan empirizm, rasionalizm bilan irrasionalizm o’rtasidagi keskin qarama-qarshilik ham olib tashlanadi. Irrasionalizm, "hayot falsafasi" konsepsiyasining vakillari - A.Shopungauer, F.Nisshe, A.Bergson, S.Kperkegor va boshqalar hisoblanadi. Irrasionalizm gumanistik bilimlarning o’ziga xosligini va inson hamda jamiyat, uning madaniyatini tadqiq etishning tugamasligini ko’rsatishga intiladi.

XX asr falsafasi yana ko’p predmetligi bilan ham ajralib turadi. Bu narsa uning maktab va oqimlari ko’pligi bilan belgilanadi. Bu o’z navbatida hozirgi zamon fani va madaniyatining ko’p qatlamli ekanligini ham bildiradi.

XX asr falsafasi oqimlari va maktablarini tasnif qilish masalasi hozircha izchil va atroflicha ishlab chiqilgan emas. Hozircha hozirgi zamon falsafasini o’zaro farilaydigan uch guruh (ular o’zaro bir-birlariga o’tib turadilar ham)ni tavsiya etish mumkin: analitik-pozitivistik maktablar; ekzistensial-fenomenologik maktablar; diniy-falsafiy maktablar

E’tibor bering! XX asr ijtimoiy-siyosiy hayotida ham misli ko’rilmagan tarixiy voqealar sodir bo’ldi. Endi hozirgi zamon arb falsafasining ayrim ko’rinishlari bilan qisqacha tanishib o’taylik. Hozirgi zamon pozitivizmi. Bu maktab neopozitivizm, mantiqiy pozitivizm, hozirgi zamon empirizmi nomlari bilan yuritiladi.

Bu o’rinda pozitivizm to’g’risida fikr yuritaylik. Pozitivizm shunday falsafiy oqimki, u haqiiiy "ijobiy" (pozitiv) bilimlar alohida konkret (empirik) fanlar, ularning sintetik umumlashishlaridan iborat deb hisoblaydi, falsafa esa alohida fan sifatida reallikni mustaqil o’rganish sohasiga ega emas. Bu oqimning asoschisi fransuz faylasufi Ogyust Kont (1798-1857) hisoblanadi. Kont falsafasi bo’yicha, fan hodisalarning tashqi iiyofasini ko’rsatish bilan chegaralanadi. Shunga asoslanib aytadiki, hodisalarning mohiyati haqidagi Tahlimot ("metafizika") bartaraf etilmoq lozim. Kont keng tabiiy-ilmiy materialni sintezlao’tirishga urinadi, Biroq u sub’ektiv idealizm va agnostisizmga suyangani uchun fanni soxtalao’tiradi.

Kont tabiatni bilish tarixini uch pallaga bo’ladi: bu pallalardan har biri dunyoqarashning muayyan tipi (teologik, metafizik va pozitiv)ga muvofii keladi. Birinchi - teologik pallada inson aqli hodisalarni ayritabiiy kuchlar, xudoning tahsiri bilan izoxlaydi. Ikkinchi - metafizik pallada barcha hodisalarning asosini metafizik mohiyatlar tashkil etadi. Metafizik dunyoqarash teologik dunyoqarashning o’zgargan shaklidir. Yuqoridagi ikki (teologik va metafizik) dunyoqarash o’rniga uchinchi - "pozitiv metod" keladi va bu metod "absolyut bilimlardan" (materializm va ob’ektizmdan) voz kechishni taqozo qiladi. Yuqoridagi uch 'adli formula fan va falsafaning haqiiiy tarixini buzib ko’rsatadi.

Kontning fikricha, insoniyatning umumiy aqliy taraqqiyotiga qarashning mahsuli bo’lgan pozitivizm asosiy tarixiy qonun mavjud deb hisoblaydi. Bu qonunga ko’ra  har bir asosiy tushuncha, bilimlarining har bir sohasi izchil ravishda yuqoridagi uch pallani boshidan kechiradi: inson aqli o’z mohiyatiga ko’ra dastavval teologik metodni, keyin metafizik metodni, va nihoyat, ijobiy

(pozitiv) metodni boshidan o’tkazadi. Shundan falsafaning uch turi, yoki umumiy sistemaning uch turi kelib chiqadi: birinchi sistema insoniyat aqlining tayanch nuqtasi; ikkinchisi o’tish davriniki, uchinchisi uning mustahkam va so’nggi holatidir. Pozitivizm uchun tashqi olamni o’rganadigan tabiatshunoslikdan boshqa hech ianaia fan yo’q.

Pozitivizmning zaif tomoni shundaki, u falsafiy predmetni konkret-ilmiy metod bilan almao’tiradi. Bu yo’nalishni ular ijobiy - pozitiv deb hisoblaydi. Shunday qilib pozitivizm falsafiy kategoriyalarni ilm bilan izoxlab bo’lmaydi, falsafa fan emas, haqiiiy bilim fanning o’zidir, degan xulosaga keladi. Falsafaning vazifasi fan tilini yaratish, til muammosi bilan shug’ullanishdan iborat, xolos. Falsafa sub’ektning o’zini-o’zi tadqiq etishi ,deydi.

Neopozitivizm falsafiy oqim sifatida asosan ingliz tili mamlakatlarida tarialgandir. Neopozitivizm o’zining asosini ingliz faylasuflari Lokk, Yum, Berklidan oladi, ularning merosxshridir. Hozirgi zamon pozitivizmiga 1932 yilda tashkil topgan Vena tshgaragi asos soladi, unga falsafa, mantiq, fizika sohasida ish olib boradigan M.Shlik, O.Neyrat, G.Feygelp va boshqa professorlar aozo bo’ladilar. 1926 yili Pragadan Rudolpf Karnap taklif etiladi. Tshgarakning ish faoliyatiga ingliz faylasufi Bertran Rassel va avstrist Lyudvig Vitgeno’teyn (1869-1951) asarlarining tahsiri kuchli bo’ladi. Tshgarak 1929 yili "Olamni ilmiy bilish" degan manifestni eolon qiladi.

Neopozitivizm nomi ostida juda rang-barang nazariyalar birlashadi. Mantiqiy pozitivizm, mantiqiy empirizm, mantiqiy atomizm, lingvistik taxlil falsafasi, tanqidiy rasionalizm va boshqalar shular jumlasidandir.

Mantiqiy pozitivizm o’z oldiga metafizikaga qarshi kurashni maqsad qilib ishyadi, metafizika deganda esa falsafani nazarda tutadi. Uning nazariy asosini fizika, mantiq, matematika, tilshunoslik, empirik sosqologiyaning tamoyillari tashkil etadi.

Muammoli vaziyat: Hozirgi zamon falsafasining eng asosiy tamoyillari umuminsoniylikning ustuvorligi, uning milliylik bilan uyunligi, demokratik erkinliklar, inson qadrini ifodalaydi, biror-bir falsafiy Tahlimotni mutlaqlao’tirmaydi.

Mantiqiy pozitivizmcha, bilishning har qanday manbaini sub’ekt ongi doirasidagi voqealar va farazlar, yahni "hissiy mahlumotlar" tashkil etadi. Bu oqim ob’ekt bilan ob’ekt haqidagi nazariyani prinsipial jixatdan aynan deb eolon qiladi. Mantiqiy pozitivizmda fan 'ukmlari yo haqiiiy, yo yolon, yoxud maonisiz bo’lishi mumkin. R.Karnapning fikriga qaraganda maonisiz mulohaza - takliflar tom mahnodagi gaplar emas, ularni faqat shaklan eslatib turadi, xolos. Barcha falsafiy gaplar ham maonisiz mulohazalardir, ular empirik yo’l bilan tekshirilishi mumkin emas.

Mantiqiy pozitivizm semiotik (semiotika - lot. belgi) muammolarga murojaat qilar ekan, munosabatning uch sohasini ajratib ko’rsatadi: pragmatika (tilning - undan foydalayotganlarga munosabati); semantika (til va mahno munosabatlari); sintaksis (til ifodalari o’rtasidagi munosabat). Bularning hammasi

semiotika nomini oladi. Taxlilning predmeti so’z va belgilarning ahamiyati, muhim mantiqiy, lingvistik va psixologik ahamiyatga ega bo’lgan (mas. hisoblash mashinalarini, mashina tillarini yaratish kabi) muammolar bo’lib qoladi.

Falsafada neopozitivizm metodologiyasi o’rniga yangi oqim - postpozitivizm keladi. Postpozitivizmning shakllanishini ingliz Karl Popperning "Ilmiy kashfiyot mantiq" va amerikalik Tomas Kunning "Ilmiy revolyusiyalar strukturasi" (1962) asarlarining chop etilishi bilan bolash mumkin. Bosh muammo - fan taraqqiyotini tushuntirish, mantiqni tadqiq etish va ilmiy bilimlar shsishini analiz qilishdan iborat bo’ladi. Postpozitivizmni eng avvalo quyudagi masalalar iiziitiradi: yangi nazariya qanday paydo bo’ladi, u qanday qilib yangi hamjamiyatda o’z tasdiini topadi, ilmiy nazariyalar raqobatidagi meyorni qanday belgilash mumkin.

Pospozitivizm ichida tanqidiy rasionalizm oqimini alohida tahkidlash lozim. Bu oqim vakillari birinchi galda rasionallik (fan) sohasi bilan soxta fan (metafizika va mafkura) o’rtasiga chegara ishyishga harakat qiladilar.

Popperning sosial-falsafiy konsepsiyalari ham o’ziga xos. Uning 1945 yilda nashr etilgan "Ochiq jamiyat va uning dushmanlari" asarida bir-biriga qarama-qarshi bo’lgan jamiyat tipi: ochiq jamiyat va yopii jamiyat tavsiflanadi, ochiq jamiyat deganda demokratik jamiyatni tushunadi, unda iqtisod, siyosat, madaniyat sohasida plyuralizm, sosial struktura, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat rivoj topgan bo’ladi. Ochiq jamiyatda demokratik prinsiplar barcha sohalarda amal qiladi.

Yopii jamiyat bu kapitalizmgacha bo’lgan va sosialistik jamiyatlardir. Ularda davlat funksiyalari o’zgarmaydi, totalitarizm, shaxs manfaati ustidan kollektivizm ustivorlik qiladi, g’oyaviy dogmatizm, sosial demagogiya avj oladi.

Postpozitivizm nazariyasini rivojlantirishga amerikalik faylasuf Tomas Kun katta hissa io’shadi, u fan falsafasi sohasida tarixiy-evolyusion oqimning vakillaridn biridir. U o’zining 1962 yilda chop etilgan "Ilmiy revolyusiyalar strukturasi" asarida ilmiy bilimlarning tarixiy dinamikasi konsepsiyasini ishlab chiqadi.

Ekzistensializm. Ekzistensializm (mavjudlik, yashash degani) XX asr falsafasida muhim rolp shynadi va shynab kelmoqda. U inson, hozirgi zamonda uning yashashi muammolari bilan bolangan. Shu mahnoda u XX asr mahnaviy hayotining extiyojlariga javob tariiasida paydo bo’ldi . Binobarin, asrimizda yuzaga kelgan tushkunliklar ham, parokandaliklar ham, yuksalish va texnologik rivojlanish natijalari ham bu falsafiy oqimda har tomonlama aks etadi.

"Mavjudlik" falsafasi deb nom olgan ekzistensializm yagona, yaxlit bir butun Tahlimot emas. O’zlarining bu oqimning bosh vakillari deb hisoblaydigan har bir mutafakkir faqat o’ziga tegishli Tahlimot yaratishga urinadi. Bu oqim vakillari orasida mashxur yozuvchi va mutafakkirlar J.P.Sartr, A.Kamyu, G.Marselp va boshqalar ham uchraydi. Ekzistensializm falsafasida, bir tomondan, Aristotelp, Koerkegor, Paskal qarashlarining baozi jixatlari, ikkinchi tomondan, Gegel, Nisshe, Dostoevskiy Tahlimotlaridan ayrim elementlar uchraydi. Ekzistensializmning ichida ateistik (Sartr, Kamyu, Xaydegger) va diniy (Marselp, Yaspers, Berdyaev) tomonlar mavjudligini ham tahkidlash lozim. Albatta,

ekzistensializmni ateistik va diniy qarashlarga bo’lish nisbiy va shartli bo’lib, ularning barchasi insonning olamdagi borliq, umuman odamni emas, alohida, konkret odamning hayoti to’g’risida fikr yuritadi.

Ekzistensializm falsafiy oqim sifatida daniyalik mutafakkir S.Koerkegor (1813-1855) tomonidan asoslab beriladi. Mahlumki, S.Koerkegor nemis faylasufi Gegel ilgari surgan aql "sistemasi"ga eotirozini bildiradi. Gap shundaki, Gegel hamma narsa tushunchada ifodalanadi, inson borliq ham shunday, degan fikrni ilgari surgan edi. Syoren Koerkegor o’zi ishlab chiqian "ekzistensiya"ni tushuncha bilan ifodalab bo’lmaydi, undan siralib chiqib ketadi, degan fikrni beradi. Uningcha, insonning ichki dunyosini, o’z-o’zligini bilishga ilmiy metodni ishllab bo’lmaydi. "Ekzistensiya" (yashash) ichki bo’lib, u insonning mavjudligini ko’rsatmaydi. Inson hissiy-musho'ada jarayonida tashqi mu'it hodisasiga aylanadi. Bu uning o’z-o’ziga o’tishi. alohida betakrorlikka aylanishidir.

Yodda tuting: Barikenglik va tolerantlik hozirgi falsafiy Tahlimotlar rang-barangligini taominlaydi.

S.Koerkegor mavjudlik sari borishning uchta asosiy shaklini quyudagicha ko’rsatadi: 1. Estetik ekzistensiya. Bu bosqich asosida yashashga va 'uzur-xalovatga iiziiish, inson extiyojini (tashqi dunyo-dan) iondirish yotadi. Bunda yashash yo’lini tanlab olish eng oddiy shaklda bo’ladi, chunki inson his-tuyularini iondirish asosida tanlanadi. 2. Axloqiy ekzistensiya. Bu bosqichda insonnig burchi paydo bo’ladi, bunda inson (sub’ekt) o’zini o’zi anqilaydi. Biroq insonda aql nuqtai nazardan axloqiy qoidalarga munosabat shakllanadi, xolos. 3. Diniy ekzistensiya. Bu bosqichda axloqning mavhum qoidalari amalga oshadi, haqiiiy hayotga aylanadi. Bunda inson o’z irodasi kuchi bilan ilgargi yashash odatdlaridan voz kechadi. Inson azob chekish evaziga yashayotganligini biladi. (Qaralsin: Rahimov I. Falsafa. - Toshkent, 1998, 70-71 betlar). Ekzistensializmning mohiyatini chuqurroq bilish uchun u mu'okama qilayotgan muammolar bilan tanishish zarur. Masalan, borliq haqida so’z yuritganda ekzistensialistlar borliq sub’ektning o’z mavjudligini his etishi, deb hisoblaydilar. Shuning uchun bu falsafa erkinlik falsafasi deb ham nom olgan. Úaiiiiy erkinlik, deydi ular, tahlikada, tashvishda, yolizlikda namoyon bo’ladi. Xullas, kishi o’z "ekzistensiya"si (mavjudligi)ni chuqur mahnaviy ziddiyat, ruhiy tushkunlik holatida anglab etishi mumkin. Mavjudlikning bu xususiyatini zamonga bolab, unga cheklanganlik xos deb xulosa chiqaradi, "o’lim"ni esa mavjudlikning so’nggi nuqtasi yoki chegarasi, deb eolon qiladi.

"Hayot falsafasi". XX asr falsafasining muhim oqimlaridan biri hisoblangan "hayot falsafasi" X1X asr oxirida Germaniya va Fransiyada yuzaga keldi. Bu falsafa anonaviy falsafadagi materiya va ruh, borliq va aql tushunchalari o’rniga "hayot" tushunchasini ishllay boshlaydi. Bu falsafaning asoschisi sifatida nemis faylasufi Fridrix Nisshe (1844-1900) tilga olinadi.

"Hayot falsafasi"ning muhim g’oyaviy negizlari Nisshe falsafasida aks etgan. Nisshening fikricha, iroda inson tiklanishini harakatga keltiradigan mohiyat, iroda "Men"ni kengaytiradi. Nisshe ingliz tabiatshunosi Darvining hayvonot olamiga tegishli deb hisoblagan yashash uchun kurash g’oyasini insoniyat olamiga kshchiradi. Shu sababli Nisshe falsafasining bosh tushunchasi hayot g’oyasi

hisoblanadi. U insonda bqologik asosni alohida tahkidlaydi. Intellekt esa organizmni, birinchi galda instinktlarni saqlab qolishning yuqori qatlamidir. Nisshe aytadiki, intellekt (aql)olamni bilmaydi, balki amaliy extiyoj uchun uni sxemaga soladi. Har bir odam o'zining individual 'ususiyatlaridan kelib chiqib olamni qayta iuradi: tshda mavjudligi sharoitida har bir odamning kallasida o'ziga xos individual mifologiya bo'ladi.

Muammoning yechimini anqilash uchun fikrlang:

1. XX asr falsafasining xarakterli xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Hozirgi zamon falsafasi vakillari va ularning konsepsiyalaridan misollar keltiring.
3. Falsafada plyuralizm deganda nimani tushunasiz?

Nisshe demokratiya va tarixiy jarayon prinsiplarini inkor etib, uning o'rniga taqdirni sevishni ishyadi,ayni vaqtda tenglik va adolat g'oyalariga ham qarshi chiqadi,uni "inson tabiati yaxlitligini buzadigan" narsa deb tushunadi. U sosial ierarxiya tarafdori sifatida "yuqori kasta"ning mutloq hukmronligi haqidagi elitar konsepsiyani rivojlantiradi, bu elita baxt,go'zallik va ezgulikni o'zida gavdalantiradi, "xom" axoli ustidan hukmronligini shrnatadi.

Nisshening "ayriinson" obrazi axloqni tanqid qilishga qaratilgan. Uning fikricha, axloq buzuvchilik rolini shynaydi, odamlarni chidashga, vijdonli, yuvvosh bo'lishga shrgatadi, deydi. Bu narsa esa inson irodasini zaiflao'tiradi va susaytiradi. Shu asosda Nisshe hokimiyatni egallashga bo'lgan irodani yuqori ishyadi."ayriinsoniy" obraz-bu "kuchli inson" mad'iyasi, hokimiyatni ishlga kiritish yo'lida yonib yashayotgan mansabparastning ifodasi. Axloqning barcha meyorlari sof xarakterga ega, inson xulqining barcha shakllari esa "hokimiyatga erishish"ni xaspshstlashdan iborat. Zaif kishilarda axloq "erkinlik"ka erk sifatida, kuchli insonlarda esa katta hokimiyat uchun intilish, eng kuchlilarda esa insoniyatga mu'abbat tarzida namoyon bo'ladi. Va nihoyat, olamning tartibsizligi, unda qonuniy
rivojlanishning amal qilmasligi axloqda ham bemaonilikka olib keladi.

"Hayot" falsafasining yana bir vakili fransuz mutafakkiri Anri Bergson (1859-1941) hisoblanadi. Uning qarashlarini materialistik-mexanistik va pozitivistik falsafiy oqimlarga qarshi shlkan eotiroz deb atasa bo'ladi. Uning Tahlimotida sezgilarning intensivligi, vaqt, iroda erkinligi, xotira va uning zamon bilan nisbati, ijodiy evolyusiya va intuisiyaning roli kabi muammolar markaziy o'rinda turadi. Bergsonning tabiat evolyusiyasi va inson taraqqiyotini birgalikda olib tushuntirish kerakligi haqidagi fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bergsonning fikricha, hayot mohiyatini intuisiya yordamida egallash mumkin. Intuisiya hayotning o'zini anglab yetish, yahni o'zini o'zi bilishdir. Shu sababli Bergson ob'ektni sub'ektga qarama-qarshi qilib qo'ymaydi.

Bergsonning falsafiy qarashlarida ong masalasi ham muhim o'rin tutadi. Uning ko'rsatishicha, psixik hayotning nozik qatlamlari uzluksizlik, davomiylik bo'lib, holatlarning uzluksiz o'zgarishidir. Davomiylik g'oyasi - Bergsonning eng sevimli kategoriyasidir. Davomiylik - vaqtning belgisi, atributi, u "jonli" vaqt. Bergsonning gnoseologik mulohazalarida intellekt intuisiyaga qarama-qarshi

ishyiladi. Chunki intellekt moddiy, fazoviy ob’ektlarni o’rganish iuroli, intuisiya esa insonga narsa-hodisalarning "jonli yaxlitligi"ni bilish mohiyatini ifodalaydi. Ruhiy taxlil falsafasi. XX asr falsafasining muhim oqimlardan biri-neofreydizm bo’lib, uning asosida avstriyalik vrach va psixiatr Zigmund Freyd (1856-1939)ning qarashlari yotadi. Freyd yaratgan Tahlimotning mohiyati shundaki, u psixikani moddiy sharoitlardan ajratib ishyadi. Psixika qandaydir mustaqil, moddiy jarayonlarga paralel mavjud va ong doirasidan tashqarida (ongsizlik)gi aloxida, bilib bo’lmaydigan, abadiy psixik kuchlar boshqaradigan narsadir. Shu mahnoda Freyd ongsizlikni onglilikka qaraganda keng va chuqur deb deb tahkidlaydi, jinsiy mayillik esa inson ruhiyatiga buzilish sifatida tahsir qilmay, ayni vaqtda madaniyatning oliy shakli(badiiy adabiyot)ga, inson ijtimoiy qadriyati va ruhiyatiga ham tahsir ko’rsatadi, deydi.

Freyd ruhiy dunyo inson borliqning muhim jixati ekanligidan kelib chiqib, uning o’ziga xos modeli (andozasi)ni beradi. Freyd bu modelni uch qismdan iborat deb hisoblaydi: uning negizida "u" (ongsizlik), so’ng "ment" (ong), uchinchi qism "mendan yuqori" (ijtimoiy ong). Freyd har uchchala qismning ham inson hayotida tutadigan o’rni va rolini ko’rsatishga harakat qiladi. Binobarin, yuqorida qayd etilgan "uchlik" inson ruhiyati, psixikasini tashkil etadi.

Freyd insonning barcha ruhiy xolatlarini, hamma ishlarini, so’ngra esa barcha tarixiy hodisalarni ham, ijtimoiy hodisalarni ham psixoanaliz- ruhiy taxlildan o’tkazadi, bularning barchasini ongsizlik va birinchi galda shahvoniy intilishlar deb baholaydi. Ideallik- psixikaviylik (ongsizlik) insoniyat tarixi, axloq, sanoat, fan, din, davlat, huquq, urushlar kabilarning sababchisidir.

Pragmatizm. Pragmatizm- yunoncha pragmatos so’zidan olingan bo’lib, o’zbekcha "xatti-harakat", "ish" degan mahnolarni anglatadi. Bu oqimning yirik vakillari - Charlz Pirs (1839-1914)- amerikalik faylasuf, mantiqshunos, matematik va tabiatshunos hisoblanadi, amerikalik Uilpyam Jems (faylasuf va psixolog), Jon Lpyui (1859-1952)lar hisoblanadi.

Pragmatizmning xususiyati shundaki, u yoki bu ob’ektlar haqidagi tushunchalarning mahnosi va ahamiyatini ular keltirib chiqargan amaliy natijalar bilan belgilaydi.

Pragmatizmning asosiy g’oyalari Ch.Pirsning "Qanday qilib bizning ideyalarimizni anii qilish mumkin?","E’tiqodning tahrifi" asarlarida bayon etilgan. Pirsning falsafiy qarashlari o’zida ikki qarama-qarshi tendensiya-pozitivistik (empirik) va ob’ektiv-idealistik g’oyalarni uyunlao’tiradi. U tuma g’oyalar va intuitiv bilishni inkor etadi.

Pirs, Jems, Dpyui va boshqalar pragmatistik qarashlarni ilgari surar ekanlar, amaliy foydalilik deganda ob’ektiv haqiqatning praktika mezoni bilan tasdqilanishini emas, balki individning sub’ektiv iiziiish va manfaatlarini tushinadi. Shunday qilib pragmatizmda"foyda" tushunchasi "tajriba" yoki "amaliyot" tushunchasi bilan tenglashtiradi.

Bozor iqtisodiyoti nuqtai nazaridan qaraydigan bo’lsak, pragmatizm mahlum mahnoda erkin bozor talablarini ifoda etganday bo’ladi. U biznes, shu jumladan har qanday "foyda" beradigan faoliyatni tashkil etishning g’oyaviy iuroli hamdir.

Shu sababli pragmatizm asosan amerikalik ishbilarmonlar, menedjerlar, siyosatdonlar orasida keng yoyilgan.

Neotomizm. Din bilan uzviy bolangan falsafiy qarashlar kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida u yoki bu darajada muhim mavqei egallab kelgan. Avgustin, Akvinskiy, azzoliy, Naishband singari faylasuf olimlarni bu o’rinda misol tariiasida keltirish mumkin.

XX asr falsafasi tizimida neotomizm falsafasi nufuzli o’rin egallaydi. U XX asr ikkinchi yarmida 1- Vatikan sobori tahsirida vujudga kelganligi mahlum. 1879 yili Rim papasi Lev 13 o’rta asr falsafasining asoschilaridan biri F. Akvinskiyning qarashlarini yagona Tahlimot deb eolon qiladi. Shunday qilib neotomizm Rim katolik cherkovining rasmiy mafkurasiga aylanadi.

Neotomizmning vakillari J.Mariten, Jilpson (Fransiya), de Reymeker (Belpgiya), Lots (Germaniya), Vetter (Avstriya), I. Boxenskiy (Polpsha) hisoblanadi.

Neotomistik Tahlimotning asosini "falsafa ilohiyotning xizmatkoridir" degan sxolastik prinsip tashkil etadi.Uning asosiy g’oyalari va tamoyillari tomizm falsafasining mahnaviy asoslariga suyanadi.

XX asr falsafasi haqida so’z borganda shubhasiz rus falsafasi to’g’risida ham qisqacha tshxtab o’tish zarur bo’ladi.

Mahlumki, XX asrda Rossiya o’zining oir sinov davrini boshidan kechirdi, 1905-1917 yillardagi revolyusiyalar jamiyat hayotida chuqur asorat qoldirdiki, hozirgacha uning tahsiri o’zini yo’qotgani yo’q. Bu gap birinchi galda Rossiya, keyinchalik sobii SSSRning butun davlat va ijtimoiy tuzumiga, jamiyatning butun mahnaviy hayotiga tegishlidir.

1922 yilda mafkuraviy jixatdan yangi tuzumga mos kelmaydiganlar chet ellarga chiqarib yuborildi. N.Berdyaev, S.Bulgakov, I.Ilpin, I.Lapshin, S Frank kabi yuzlab faylasuflarning taqdiri ana shunday kechdi.

Majburiy emigrasiyada bo’lishlariga qaramay ko’plab olimlar falsafiy muammolar bilan shug’ullanishni tark etmadilar. Mashhur rus faylasufi N.A.Berdyaev (1974-1948) o’zining qarashlarini falsafiy publistik janrda bayon etadi. Uning quyudagi asarlari mashxur: "Insonning vazifasi haqida", "Ijodning maonisi haqida", "Insoning iulligi va ozodligi to’g’risida".

P.A.Florenskiy (1882-1937) diniy faylasuf, ensiklopedist olim MGUning matematika bo’limini tugatib, Moskva ruhoniy akademiyasiga o’qishga kiradi, falsafadan mahruzalar shiiydi. Úaiiiatning tasdiiga baishlangan dissertasiya yozadi. Florenskiy arb falsafasini chuqur bilsa-da, pravovaslav ongidan o’ziga tayanch izlaydi va o’z falsafiy qarashlarini diniy ong doirasida ifodalaydi. Kosmosning jonli birligini tushuntirar ekan, uni tabiiy borliqning siri deb tahriflaydi. Tabiatni reallik, jonli reallik deb e’tirof etadi.

S.Bulgakov (1871-1944) ilohiyotshunos faylasuf sof falsafa" ning o’zi bilan shug’ullanish bilan chegaralanmaydi. Uningcha, falsafa hamma vaqt ilohiyotshunoslik bilan bolangan bo’ladi, shu mahnoda "sof falsafa" mavjud emas. Bunday mahnaviy o’zgarishlarni I. Ilpin, L. Shestov, shuningdek A. F. Losav qarashlarida ham uchratish mumkin.

Yodda tuting! Tahlimotlar tarixi - insonlar, ularning taqdiri, yuksalishi yoki tanazzuli, tafakkuri taraqqiyoti tarixidir.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar

1. XX asr falsafasida davrning ijtimoiy-siyosiy va mahnaviy jarayonlarining aks etishini tushuntirib bering
2. XX asr falsafasining asosiy xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?
3. Neopozitivizm va uning asosiy ko'rinishlari haqida nima deya olasiz?
4. Ekzistensializm falsafasining asosiy yo'nalishlari haqida fikrlang.
5. Pragmatizm va hozirgi zamon falsafasining boshqa oqimlarini tavsiflang

Adabiyotlar

Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.T. "O'zbekiston ", 1999
Skirberkk G., Gilpe N. Falsafa tarixi.-T. "Sharq", 2002
Falsafa. Shiuv ishllanma. (E.Yusupov taxriri ostida). - T. "Sharq", 1999.
Falsafa (Mahruzalar matni). - T. 2000.
Falsafa tarixi. Farg'ona, FDU, 1998.
Yangi va eng yangi davr arbiy Yevropa falsafasi (XVII-XX asrlar) - T. "Sharq", 2002.

## **5-Mavzu:** Borliq falsafasi

**REJA:**

1. Borliq tushunchasining mohiyat mazmuni
2. Voqelik (reallik), harakat, borliqning fazo va vaqtda mavjudlik tamoyillari.
3. Tabiat borliqi va uning falsafiy mohiyati

Mavzuning tayanch iboralari: Borliq, yo'qlik, materiya, fazo, vaqt, harakat; narsalar borliq, tabiat borliq, inson yaratgan buyumlar borliq, inson borliq; mahnaviy borliq, individual borliq, ijtimoiy borliq. Mavzuning maqsadi: Borliq muammosining falsafiy mazmunini yoritish.

Oldingi mahruzalarimizda falsafiy tafakkur taraqqiyotining eng qadimgi davrlardan boshlab bugungi kunga qadar bosib o'tgan bosqichlari to'g'risida qisqacha tshxtalib o'tdik. Shu narsa mahlum bo'ldiki, barcha falsafiy tizimlarda, mutafakkirlarning qarashlarida inson atrofini shrab olgan, uning ongi, fikri va qarashlariga o'z tahsirini o'tkazib turgan olam, Koinot, narsalarning nimadan tarkib topganligi, shuningdek narsa-hodisalarning cheksizligi masalasi ishyiladi. Keyin esa insonning o'zi, mahnaviy olam to'g'risida fikr yuritiladi. Gap, demak, borliq to'g'risida ketmoqda. Shunday ekan, borliq nima?

Borliq nima degan masala hamisha falsafiy tafakkurning asosi bo'lib kelgan. Kishilarning olam to'g'risidagi ilmiy- falsafiy dunyoqarashini tarkib toptirishda ularning borliq haqidagi qarashlari alohida o'rin tutgan.

Hozirgi zamon falsafiy adabiyotlarida "borliq" tushunchasini tor va keng mahnoda ishllash 'ollariga duch kelamiz. Tor mahnoda "borliq" ongga bog'liq

bo'lmagan ob'ektiv olam, keng mahnoda - bu barcha mavjud narsalardir. Borliq to'g'risidagi dastlabki tasavvurlar qadimgi dostonlarda, ertaklarda, diniy mad'iyalarda
uchraydi. Bu masalada qadimgi Hind, Xitoy, yunon yodgorliklari katta material berishi mumkin.
Muammo: Har qanday falsafiy fikr borliq to'g'risidagi tushunchadan boshlanadi. Borliq to'g'risidagi falsafiy muammoning yechimini topish maqsadga muvofiidir.

Ish'na Hindistonda yaratilgan qadimgi diniy mad'iyalarda, xususan "Maxabharata", "Rigveda", "Ramayana", "Upanishad"larda odamning yaratilishi xususida gap borganda, "yo'qlik" va "borliq" haqida mahlumotlar beriladi. "Rigveda"da aytilishicha, olamning paydo bo'lishida "asat"deb ataluvchi ibtido bosh rolni shynagan. "Asat" imkoniy borliq, yahni "yo'qlik" demakdir. "Asat" asta-sekin "sat"("mavjudlik")ka aylangan.

Qadimgi Xitoyda keng tarialgan daosizmning asoschisi Lao-szining fikricha, "borliq" asosida "dao" yotadi. U "si" elementi bilan birgalikda hayot negizini tashkil etadi. Qadimgi yunon falsafasida, ayniisa Geraklit qarashlarida bu masala muhim o'rin tutgan. Uning fikricha, ayni bir jism ayni vaqtda ham "mavjud", ham "mavjud emas". Demokrit aytadiki, "borliq" "yo'qlik" bo'lishini talab etadi. Borliq "iattqilik" yoki moddiylikdir. "Yo'qlik" esa "bshshlii"dan iborat, ammo har ikkalasi ham mavjuddir. Aflotun borliq deganda moddiy jismlarni tushungan. Narsalar borliqni g'oyalar dunyosi borliqdan farilagan. Aflotun borliqni "chin" va "chin bo'lmagan"ga ajratadi. g'oyalar dunyosi "chin", narsalar dunyosi esa "chin bo'lmagan"ga kiradi. Aflotun olamni narsalar borliqga bo'lib yuborish bilan birga, ayni vaqtda "g'oyalar" dunyosi mavjudligini narsalar borliq bilan qo'shishga urinadi.

Yaqin va o'rta Sharq falsafasida Kindiy, Forobiy, Ibn Sino, Umar Úayyom, Ibn Rushd kabilar borliqni ikkiga - vujudi mumkin va vujudi vojibga bo'ladilar. Ularning falsafasida borliqning bosh sababchisi Allox (vujudi vojib)dir. Demak, Allox va u yaratgan narsalar bir-birlari bilan o'zaro bolangan birlikni tashkil etadi. Chunonchi, Jomiy shunday yozadi: "Tangrini olamdan ajralgan deb hisoblama, zeroki, barcha olam tangridadir, Tangri esa olamda".(Qarang: B. Iskandarov. Tasavvuf falsafasi. T. 1995, 21b.)

Borliq muammosining hayotiy ildizlari va falsafiy mahnosi ni tushunib yetish muhimdir. Borliq va yo'qlik to'g'risidagi tasavvurlar qanday paydo bo'lgan? Insoniyat qadimdan boshlab olam borliq, o'z borliq, o'zgalar borliq ustida bosh iotirgan. Olam azaldan bormi? Yoki yaratilganmi? Odamlar-chi? Odam tug'iladi, yashaydi, vg'oyaga yetadi, bir kun kelib olamdan ko'z yumadi, u bor edi, bo'lgan edi, endi yo'q, lomakon bariga singib ketadi, yo'qlik sari yo'l oladi. Tug'ilish bor ekan, o'lim xaqi. Bu - hayot qonuni. Samad Vurun to'g'ri tahkidlaganidek, "to'rt faslni o'tkazmoqlik tabiatga bir qonun, tug'ilmoqlik va shlmoqlik bu hayotga bir qonun".

Inson hayotidagi fojialar ichida eng dahshatlisi o'limdir. Shlish vahimasi odamlar irodasini o'ziga rom qilgan. O'lim nima? U borliqmi yoki yo'qlikmi? Odamlar uni bilishga iiziiianlar, javob izlaganlar. Chunonchi, V. Shekspir Gamlet tilidan quyudagilarni bayon qilgan edi: "Yashash kerakmi, shlish kerakmi? Nadir

afzal? Mana masala. Shlish unutilish, u qandayin diyorki, unga borgan yo’lovchi ko’p, ammo undan iaytgan biror bir yo’lchi yo’q." E’tibor bering! Kishilarning olam to’g’risidagi ilmiy-falsafiy dunyoqarashi shakllanishida ularning borliq haqidagi tasavvurlari alohida o’rin tutgan.

Demak, borliq keng mahnoda mavjudlik to’g’risidagi eng umumiy tushunchadir. Borliq va reallik g’oyat keng tushunchalar - sinonimlardir. Borliq mavjud barcha ko’rinadigan va ko’rinmaydigan narsalar. Bular - moddiy narsalar, jarayonlar (fizik, kimyoviy, bqologik, ijtimoiy, ruhiy, mahnaviy va x.k. ), bu - ularning xossalari, aloqalari va munosabatlaridir. Fantaziyaning mahsuloti bo’lgan ertaklar, miflar, eng nozik xayollar - bular ham mahnaviy reallikning ko’rinishlari, borliqning tarkibiy qismi sifatida bor narsalardir. Borliqning teskarisi "Yo’qlik" hisoblanadi. Borliq va Yo’qlik biri-birisiz mavjud emas, agar ularning bir-biriga o’tishi bartaraf qilinsa, hamma narsa o’z ahamiyatini yo’qotishi mumkin Nega? Chunki harakat tshxtashi mumkin, bunda mavjudlik o’zining muhim, asosiy va ajralmas belgilaridan mahrum bo’ladi. Eng iattii kristallar, yulduzlarning tshdalanib to’planishi, u yoki bu o’simliklar, hayvonlar, insonlar go’yo Yo’qlikdan kelib chiqiandek bo’ladi, (ular xuddi shunday tarzda hech qachon bo’lmagan), borliqia aylanadi. Narsalarning borliq ianchalik uzoq vaqt davom etmasin, ni'g’oyasiga yetadi va konkret sifat tarzi (deylik, shaxsan shu inson)da Yo’qlikka ketadi.

Borliq va Yo’qlik muammosi shu qadar hayotiyki, u hozirgi kunda ham dolzarb bo’lib turibdi. Insoniyatning yashab qolishini taominlash, borliqni taominlash, termo-yadro urushining Yo’qlik sari dahshatli iadam ishyishining oldini olish hamma vaqt muhim masaladir.

Olam borliq vaqt ichida abadiymi - o’tkinchimi? Fazoda-chi? Makonda cheklanganmi yoki cheklanmaganmi? Hayot va mamot masalasi-chi? Bu savollar borliq kategoriyasini ilmiy o’rganishni kun tartibiga ishyadi. Yaxlit olam borliq bilan odam borliqni iiyoslasak, inson hayoti bu jarayonda kapalak umriga iiyos etgulik. (.ulom) Hayot shu qadar tez o’tadiki, konkret odamning hayoti juda qisqa ekanligiga ishonch 'osil qilish mumkin.

Borliq haqida gapirganda, uning muhim jixatlarini nazarda tutish lozim. Bular nimalardan iborat? Muammoli vaziyat: "Borliq", "yo’qlik" tushunchasi bilan mavjudlik va reallik tushunchalari o’rtasidagi munosabatni anqilash.

Borliqning birinchi jixati: bir butun yaxlit olam, bir tomondan, doimiy; ikkinchi tomondan, alohida narsalar, organizmlar, odamlar, ularning hayot faoliyati o’tkinchi; shu nuqtai nazardan borliq o’ta ziddiyatli. Boshqacha aytganda, olam nisbiy turunlik va o’zgaruvchanlikning birligidan iborat. Olam o’z borliq va mavjudligiga ko’ra rang-barang va bir jinsli emasdir. Ikkinchi jixati: olam borliqning birligi va xilma-xilligi uning zaruriy shartidir.

Olam odamning irodasi va ongidan tashqarida mustaqil yashaydi. Ammo odam o’z aqli, bilimi, mexnati bilan tabiat va uning o’tkinchi jismlarini bir-biri bilan bolab turadi. Shu bilan birga tana bilan ruh, tabiat bilan jamiyat o’rtasida, odam bilan o’zga odam o’rtasida muhim tafovutlar mavjud. Bular olam jismlarining xilma-xilligidan nishonadir. Shu bilan birga xilma-xillikda uyg’unlik

va birlik mavjud. Masalan, odamda tana va ruh, tabiiylik va ijtimoiylik qo'shilib, ajralmas birlikni tashkil etadi.

Demak, xilma-xil narsalar, tabiat, odam, jamiyat - barcha xilma-xillik o'zaro birlashib, o'tkinchimas, balki cheksiz olamning yaxlit birligini tashkil etadi.

Borliqning uchinchi jixati unda ob'ektiv va sub'ektiv reallikning o'zaro birligida ko'zga tashlanadi. Bularning barchasi olamda teppa-teng mavjuddir. Tabiat, olam, jamiyat mavjud edi va majud bo'ladi. Ular - real voqelik. Olam ob'ektiv reallik, ong esa sub'ektiv reallikdir. Shunday qilib borliq moddiy va mahnaviy mavjudotlar realligi, ular o'rtasidagi eng muhim aloqalar, xilma-xillikdagi yaxlit bir butunlik, narsalarga barqarorlik beradigan sifat va belgilarning yig'indisidir, tor mahnoda faqat materiya: tabiat, moddiy narsalar majmui; keng mahnoda ham moddiy, ham mahnaviy reallikning yig'indisidir. Demak, borliq ob'ektiv reallikni ifodalovchi falsafiy tushunchadir. E'tibor bering! Bizni iurshab turgan yaxlit, bir butun dunyo eng umumiy borliq bo'lib, u ko'pdan-ko'p real mavjud narsalardir.

Borliqning falsafiy mahnosini chuqurroq tasavvur etish uchun uning konkret shakllarini ko'rib chiqish lozim bo'ladi.

Falsafiy adabiyotlarda borliqning quyudagi shakllari mavjudligi e'tirof etiladi:

Narsalar, tabiiy jarayonlar borliq. Tabiiy borliqning birinchi ko'rinishi insonga qadar, inson va uning ongidan tashqarida, unga bog'liq bo'lmagan moddiy borliq hisoblanadi. Moddiy borliq - bu narsalar, ularning xossalari, munosabatlari, jarayonlari borliqdir. "Narsah' tushunchasi o'z xossasiga ega va boshqalar bilan munosabatda bo'ladigan predmetni, ob'ektni bildiradi. "Xossah' predmetdagi boshqa predmetlar bilan shxshash yoki shxshamaydigan tomonlardir. "Bog'lanish" - olamning abadiy taraqqiyotidagi alohida momentni bildiradi. Shu mahnoda barcha narsa-hodisalar o'zaro tahsirda va o'zaro bolangan bo'ladi. Ob'ektlarning bir-biriga tahsiri va shu asosda ularning o'zgarishiga olib keladigan hodisa "o'zaro tahsir" deyiladi. Bularni odatda "birlamchi tabiat" iborasi bilan tushuntiradilar. Tabiiy borliqning bu shakli inson faoliyatining dastlabki sharti sifatida mavjud bo'lgan tabiiy narsa-hodisalar va jarayonlardir. Inson paydo bo'lgach, ularga tahsir eta boshlaydi, bu jarayonning uzoq va muntazam ravishda amal qilishi oqibatida inson ishli bilan yaratilgan narsa-hodisalar va jarayonlar yuzaga keladi. Bularni oldingilardan farilash maqsadida "ikkinchi tabiat" deb ataydilar.

"Birlamchi tabiat" borliqning alohida maxsus shaklidir. Bunda bir butun tabiat borliqni uning alohida narsalari, jarayonlari, holatlari borliqdan fari qilish lozim.

Yaxlit tabiat borliq fazo va vaqt doirasida cheksizdir, u doimo va hamma joyda mavjud bo'lgan, mavjuddir va mavjud bo'ladi. Lekin tabiatga xos bu asl xislat uning alohida hodisalari, jarayonlari, holatlariga bir butunicha dahldor bo'lmasligi mumkin. Binobarin, ular paydo bo'lish, o'zgarish, rivojlanish, sshnish jarayonlarini boshidan kechirib turadi. Tabiat bir butun, o'tkinchi emas deb fikrlaganimizda, uning yaxlit o'zini emas, balki uning ayrim, konkret hodisalariga xos xususiyatni nazarda tutgan bo'lamiz, demak, tabiat emas, uning alohida

hodisalari o’tkinchi. Shu manonoda tabiat o’tkinchimas va o’tkinchilikning uzviy birligidan iborat.

Insonni iurshab olgan tabiat tushunchasiga tabiatning o’zidan tashqari yana inson yaratgan buyumlar ham kiradi. Inson aqli va mexnati bilan yaratilgan narsalar "ikkinchi tabiat" ekanligi yuqorida tahkidlab o’tildi. U "birlamchi tabiat"dan nimasi bilan tafovut qiladi? Avvalam bor, inson ishli bilan yaratilganligi, unga inson mexnati va bilimi sarflanganligi bilan farilanadi, deb javob berish mumkin. "Ikkinchi tabiat"da inson mexnati va bilimlari "predmetlashadi", unda "ijtimoiy ruh" gavdalanadi. "Ikkilamchi tabiat" mahsulotlari muayyan ijtimoiy vazifani bajaradi. Masalan, dastgo'. U mato tshiiydi, inson maqsadlarini ob’ektivlao’tiradi. "Ikkinchi tabiat"- sivilizasiyalashgan borliqdir.(telemarkazlar, muzeylar, teatr, kiyim-bosh, komppyuter va '. k.)

Borliqning har ikkala ko’rinishi o’zaro ayniyat va tafovut birligini bildiradi. Birlamchi tabiat cheksiz, chegarasiz, o’tkinchi bo’lmagan borliq, lekin uning ayrim hodisalari, masalan, odam o’tkinchidir. "Ikkinchi tabiat" da tabiat qonunlari emas, balki insonning qayta yaratuvchilik qonunlari amal qiladi. Har ikki tabiat biri-biri bilan o’zaro bolangan bo’lsa ham, ular o’rtasida tshinashuv darajasiga yetib boradigan munosabatlar ham yo’q emas. Bu o’rinda hozirgi paytda yuzaga kelgan ekologik, energetik muammolarni eslash kifg’oya. I.A.Karimov aytganidek, "tabiat va inson o’zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo’ladi. Bu qonuniyatlarni buzish shnglab bo’lmas ekologik xalokatlarga olib keladi" (I.A.Karimov. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida. 112-113-Betlar).

Inson borliq. Alohida odam borliq hamda insoniyat borliq o’ziga xos hodisadir.

Shuningdek, ularning har ikkalasiga xos bo’lgan umumiylik ham bor. Inson tanasi tabiatniki, shu mahnoda u jismlar ichidagi jismdir. Uning tabiatga tegishli bo’lgan jismi o’tkinchi. Odam umrini necholik darajada uzaytirishga urinmaylik, birinchi galda u tabiat jismi bo’lib qolaveradi. Ayni vaqtda odamning insoniy mohiyatga egaligi, ijtimoiy munosabatlarni o’zida gavdalantirganligini hisobga oladigan bo’lsak, uni "narsa" yoki "ob’ekt" tushunchalari bilan belgilash unchalik to’g’ri emas. Ming afsuski, sovet zamonida inson ishlab chiqarishning oddiy murvatiga aylantirilgan edi. Mustaqillik tufayli insonning haqiiiy mohiyati, milliy iiyofasi, tarixiy o’rni tiklanmoqda.

Biologik jixatdan odam tanasi, jismi ozii-oviat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqa moddiy neomatlarga katta extiyoj sezadi. Inson borliq necholik o’ziga xos bo’lmasin, birinchi galda u tana va jon birligi, jonli mavjudotning turi sifatida yashashi uchun zaruriy moddiy extiyojlarni iondirishi zarurdir. Tana yashamasa, odam yashay olmasligini isbot qilish shart emas. Ayni vaqtda insonning fikrlashi uchun tanasiga zarur moddiy ozii lozim. Bundan har bir individ o’zining shaxsiy hayotini saqlab qolish huquqi kelib chiqadi. Bunday huquqning boshlanich nuqtasi hayotni, individ hayotini taominlash va nihoyat insoniyat yashab qolishiga erishishdan iboratdir.

Insonning tabiiy-bqologik "o’lchovi" extiyotkorlikni talab qiladigan hodisadir. Inson organizmiga xos ekologik muvozanat nisbati buzilsa, falokatli

oqibatlarga olib kelishi e'timoldan yiroi emas. Shuningdek, inson jismi uning ruhiyati bilan uzviy bolangan. Tana va ruh solomligining ahamiyati haqida tshxtab o’tirishning xojati bo’lmasa kerak.

Nihoyat, inson mexnat so'ibi sifatida ishlab chiqarish bilan bog’liq. Odam, uning tabiiy extiyoji va ishlab chiqarish o’rtasida o’zaro aloqadorlik mavjud. Demak, tabiiy tana bilan ijtimoiy borliq o’rtasida o’zaro uzviy birlik bor.

Inson borliqning o’ziga xos xususiyatlari uch muhim o’lchov-meyorga ega. Birinchidan, alohida odam-fikrlovchi va his etuvchi jism. Ikkinchi o’lchov inson - aqlli mohiyat. Uchinchidan, inson - ijtimoiy-tarixiy mavjudot. Demak, inson tabiiylik, mahnaviylik, individuallik, shaxsiylik va ijtimoiylikning yig’indisidan iborat.

Muammoning yechimini topish uchun quyudagi holatlar bo’yicha fikrlang:

1. Borliq nima?
2. Yo’qlik nima?
3. O’lim nima? U borliqmi yoki yo’qlik.?
4. Olam azaldan mavjudmi yoki yaratilganmi.?
5. Odamlar-chi?
6. Borliq va reallik tushunchalariga E’tibor bering.
7. Borliqning qanday shakllarini bilasiz?
8. Olam borliq vaqt ichida abadiymi - o’tkinchimi? Fazodachi?

Mahnaviy borliq. Mahnaviy hayot - inson borliqning tarkibiy bo’lagi. Mahnaviyat inson bilimlari, axloqiy, huquqiy qarashlari tizimi, badiiy ijodiyotning meyor va mezonlari majmuidan iborat. Mahnaviy borliq - ong va ongsizlik jarayonlari, tabiiy va sunoiy tillarning moddiylashgan shakllarida gavdalangan bilimlardan iborat. Mahnaviy borliqni uning mavjudlik shakllariga qarab turib ikki turga bo’lib o’rganish mumkin. Birinchisini - individ ongi va ruhiyati bilan bolangan individuallashgan mahnaviy borliq, ikkinchisini individ ongidan tashqarida turuvchi ob’ektivlashgan mahnaviy borliq deyish mumkin.

Individuallashgan mahnaviy borliqia quyudagilar kiradi: alohida olingan kishining his-tuyulari, ichki ruhiy kechinmalari, orzu-istaklari, xotirasi, taassurotlari, fikrlari, xayollari, qarashlari, g’oyalari, ong osti va ongsizlik jarayonlari va x k. Inson fikrlari real, lekin u mahnaviy ko’rinishdagi reallik. Ongning barcha shaxsiy hamda ijtimoiy fenomenlari borliq mahnosiga ega. Bu yerda faqat reallikning turlicha darajalari bo’lishi mumkin, xolos.

Ko’paytirish jadvalini olib ko’raylik. Bu reallikmi-yo’qmi? Albatta, reallik. Qanday reallik? Albatta, moddiy, ashyoviy emas, mahnaviy-ramziy reallik. Bu jadvaldagi ko’paytirish prinsipining o’zi ham reallik, albatta, ideal reallik, Biroq endi u ramziy emas, balki sof reallikdir.

Individuallashgan mahnaviy borliqning quyudagi xususiyatlari mavjud: birinchidan, unda sodir bo’layotgan jarayonlarni tashqaridan kuzatish mumkin emas. Ikkinchidan, unga xos jarayonlar individning dunyoga kelishi bilan shakllanadi, olamdan o’tishi bilan yakun topadi. Umuman borliqning bu shaklini ruhiyatshunoslik fani ustivor darajada o’rganadi.

Ob’ektivlashgan mahnaviy borliq esa inson ongida paydo bo’lgan g’oyalar, fikrlar, qarashlarning ong doirasidan tashqariga chiqib, narsalar shaklida gavdalanishidir. U tabiiy va sunoiy tillarning obrazli belgilarida, sanoat asarlarida, madaniyat obidalarida mujassamlashadi. Uning bir ko’rinishi nutidir. Til o’zida ongni reallao’tiradi, yuzaga chiqaradi, umuman tilda fikr moddiylashadi. Tilning moddiy vositalari tovushlar, so’zlar, gaplar va x.k. Bundan tashqari, insoniyat yaratgan yodgorliklar, kitoblar, notalar, ranglar, kuylar, raislar, loyixalar, modellar mahnaviy borliqning ob’ektivlashgan ko’rinishlaridir.

Ijtimoiy borliq Ijtimoiy borliq individual, yakka shaxs va jamiyat borliqning birligini bildiradi. "Ijtimoiy borliq deyilganda, individual yakka shaxs va jamiyat hayotining hamma tomonlari emas, balki faqat ularning moddiy hayoti tushuniladi". (Falsafa. Shiuv ishllanma. Toshkent. 1999, 176-bet). Gap shundaki, kishilarning moddiy hayoti ularning xohish-irodalariga bog’liq bo’lmagan holda ishlab chiqarish munosabatlaridan (uni o’zida jamlovchi iqtisodiy hayot) dan iboratdir. Shu mahnoda ijtimoiy borliq jamiyatning yaxlit moddiy hayotini, moddiy neomatlar yaratish va ishlab chiqarish jarayonida kishilar amalga oshiradigan munosabatlarni nazarda tutadi.

Anglashiladiki, borliq abstrakt falsafiy kategoriya bo’lib, mazmunan mavjud narsalarning barchasini iamrab oladi. Biroq real olamni mavhum borliq emas, balki predmetlar, narsalar, jarayonlarning konkret xilma-xilligi tashkil etadi. Planetamizda minerallarning 30000 xili, o’simliklarning 50000 turi mavjud. Fanga xayvonlarning 2 mln. turi mahlum. Yer yuzining turli xududlarida ko’plab xalqlar yashaydi, rang-barang mamlakatlar, madaniyatlar va sivilizasiyalar mavjud. Yer planetasidan tashqarida faqat bizning Galaktikada 100 mlrd yulduz bor. Olamning bu o’ta rang-barang manzarasi haqida shy surar ekan, inson quyudagi muammolarga duch keladi: olam ianchalik rang-barang, turli-tuman bo’lishiga qaramay, borliqning butun turini birlashtiradigan qandaydir birlik, qandaydir asos mavjudmi, agar shu narsa mavjud bo’lsa, u nimadan iborat? Bu muammoni xal etishga intilish falsafada monizm, dualizm va plyuralizm Tahlimoti, ularning mohiyatini ifodalaydigan subostansiya kategoriyasi ishlab chiqilganligi mahlum.Bu xaqidabirinchi mahruzamizda aytib o’tildi. Endi borliq mavjudligining usullari va shakllari to’g’risidagi masala bilan tanishib o’taylik. Biz bu yerda borliq tushunchasi bilan materiya tushuncha o’rtasidagi xususiy va umumiy jixatlarni belgilab olishimiz lozim. Materiya borliq borliq tushunchasiga nisbatan tor mahnoga ega, chunki materiya tushunchasiga borliqning hamma shakllari (mas. mahnaviy borliq) kirmaydi.

Shunday bo’lishiga qaramay, "materiya" tushunchasi haqida qisqa bo’lsa-da tshxtab o’tish lozim. Binobarin "borliq" tushunchasi birinchi galda "materiya" tushunchasida konkretlashtiriladi. "Materiya" kategoriyasi, yuqorida aytilganidek, ob’ektiv reallikni ifodalaydi. "Ob’ektiv reallik" nima? Bu - inson ongidan tashqarida va unga bog’liq bo’lmagan narsalardir; materiya - bilib olinadigan ob’ektiv reallikdir.

Bunday tahrif juda keng va materiyaning ongga bog’liq emasligi, undan tashqarida mavjud bo’lishi, shuningdek uni bilish mumkinligini ko’rsatadi, xolos.

Biroq materiyaning yana shunday xossalari borki, ular butun materiya uchun ham, ayrim olingan moddiy ob’ekt uchun ham xosdir.

Aytish kerakki, borliqning tegishli shakllari va turlariga muvofii harakat ham moddiy va mahnaviy shaklda yuz berishi mumkin. Adabiyotlarda moddiy harakatning quyudagi shakllari mavjudligi qayd etiladi: mexanik harakat, fizik harakat, kimyoviy harakat, bqologik harakat, ijtimoiy harakat. Alohida insonning va jamiyatning mahnaviy, tafakkur faoliyati bilan bolangan barcha jarayonlar harakatning ideal- mahnaviy shakliga kiradi.

Yodda tuting: Borliq eng umumiy tushuncha sifatida bir butun dunyo va undagi narsa - hodisalardan tortib, inson hayoti, ongi, kishilar faoliyatining barcha ob’ektiv va sub’ektiv sharoitlari, 'atto jamiyatda sodir bo’ladigan butun jarayonlardan iborat hamma realliklarni o’z ichiga oladi.

Har qanday moddiy va mahnaviy ob’ektning mavjudligi uni tashkil etadigan elementlarning o’zaro tahsir etishlari tufayli yuz beradi. Masalan, atomlar yadro va elektronlar o’rtasidagi muayyan o’zaro tahsir tufayli mavjuddir, tirik organizmlarning yashab turishi, borliq - organik molekula, xujayra va organlarning bir-biriga o’zaro tahsiri natijasidir. Jamiyat ham kishilarning faoliyati, insonning tabiat bilan o’zaro tahsiri oqibatida mavjud bo’ladi.

Moddiy harakat va har qanday o’zgarish hamda o’zaro tahsirning manbai ziddiyatlar hisoblanadi. Makonda-fazoda narsalarning mexanik o’rin almashishi (harakatning eng oddiy ko’rinishi) tashqi turtkilar tufayli yuz beradi. Materiya harakatining bir qadar murakkab shakllarining sababi mazkur sistema tarkibidagi ichki ziddiyatlar oqibatidir. Ichki ziddiyatlar mexanizmini tavsiflash ancha murakkab bo’lib, bu ko’pincha mantiqiy xulosalarga olib kelishi mumkin.

Borliq mavjudligining asosiy struktural shakllariga fazo va vaqt kiradi. Fazo va vaqt deganda nima nazarda tutiladi? Biz kundalik amaliyotimizda mazkur masalaga aloqador ko’p tushunchalarga duch kelamiz: "joy", "kshlam", "masofa", "tekislik", "chuqurlik", "uzunlik", "kenglik", "uzoqlik", "yaqinlik", "torlik", "bu yer", "u yer", "balandlik", "pastlik", "shng", "chap", "oldin", "avval", "hozir", "keyin", "erta", "yaqinda", "uzoq", "lahzada", "butun", "kecha", "ertaga", "hozirda", "o’tmish", "kelajak", "shu payt" va x.k. Bu va shunga shxshash tushunchalar umumiy va xususiy belgilarga ega bo’lgan voqealarning fazo-vaqt nuqtai nazaridan xususiyatlarini bildiradi. Adabiyotlarda yozilganidek, fazo va vaqtning xossalari materiyaning xossalari bilan belgilanadi, materiya esa cheksizdir, g’oyatda rang-barangdir, demak, fazo va vaqt ham shunga ko’ra rang-barangdir.

Fazo va vaqt harakatlanuvchi borliq bilan o’zaro bolangan. Fazo va vaqtning umumiy tomonlari mavjud:

birinchidan, fazo ham, vaqt ham - ob’ektiv.

ikkinchidan, fazo va vaqt borliq, mavjudligining umumiy shakli.

uchinchidan, ular o’zaro uzviy bolangan.

to’rtinchidan, ular borliq va harakat bilan chambarchas bolangan.

beshinchidan, fazo va vaqt miqdor va sifat tomonidan cheksiz va chegarasiz.

oltinchidan, fazo va vaqt o’z tuzilishiga ko’ra uzluklilik va uzluksizlikning

birligidan iborat. Fazo va vaqt o’z belgilariga ham egadir. Fazo uch o’lchovlidir: uzunligi, eni va balandligi. Vaqtning o’lchovi esa bittadir: o’tmishdan bugungi kun orqali kelajakka tomon yo’nalish. U qaytarilmasdir, takrorlanmasdir.

Fazo va vaqt to’g’risidagi falsafiy qarashlar muhim metodologik ahamiyatga egadir. Ayniqsa, kishilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda ularning roli kattadir. Vaqtning takrorlanmasligi, iaytmasligi inson dunyoda bir martagina yashashini ko’rsatadi, unga ko’ra bu hayotni mahnaviy jixatdan to’g’ri tashkil etish, dunyoga me'r-mu'abbat bilan munosabatda bo’lish inson hayotining mahno va mazmunini tashkil etish kerak. Yoshlarning Vatan va vaqt to’g’risidagi oqilona fikrlarini shakllantirish, shu asosda hayot kechirishlariga kshmaklashishda fazo va vaqt to’g’risidagi falsafiy, ilmiy konsepsiya muhim tarbiyaviy, mapnaviy omil bo’lib xizmat qilishi mumkin.

E’tibor bering! Borliq mavjudlik va reallik tushunchalariga qaraganda ham kengroi tushunchadir.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar

1. Borliqning falsafiy tushunchasi haqida fikrlang.
2. Borliq va reallik tushunchalari o’rtasidagi tafovutlar nimalarda ko’rinadi?
3. Borliqning asosiy shakllarini tavsif
4. Borliq va harakat, harakat hamda fazo va vaqt munosabatlarini qanday izoxlaysiz?
5. Borliqni falsafiy o’rganishning qanday ilmiy-metodologik ahamiyati bor?

Adabiyotlar:

Karimov I.A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. T. "O’zbekiston ", 1999.
Falsafa (Mahruzalar matni). T. 2000 O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2-jild, T., 2001.
Falsafa. (Shiuv ishllanma). - T. "Sharq", 1999.
Falsafa kursining ayrim masalalari. Farg’ona, FDU, 1996.

## **6-Mavzu:** Falsafada ong va ruhiyat hamda bilish muammosi

**REJA:**

1.Falsafada ong va ruhiyat muammosi
2.Bilish gnoseologiyaning asosiy kategoriyasi
3.Ilmiy bilish va uning mohiyati

Mavzuning tayanch iboralari: Ong, onglilik, mahnaviyat, in’ikos, tahsirlanish, sezish, informasiya, obraz, ijodiyot, qobiliyat, daxolik, ijtimoiy ong, individual ong, mafkura.

Mavzuning maqsadi: Ongning mohiyati, tabiatini anglash masalasi haqida fikr yuritish. Ong muammosi bilan fizqologiya, kibernetika, informatika, psixologiya, tilshunoslik, pedagogika, sosqologiya kabi ko'pgina fanlar shug'ullanadi.

Ong falsafaning azaliy masalasi hisoblanadi. Mahlumki, inson doimo mahnaviy-ruhiy tasalliga muxtoj bo'lib yashaydi. Ong esa bevosita mahnaviyat bilan bog'liq. Ong mahnaviyatning tarkibiy qismi. Ong insonning o'z o'zini anglash, o'z xatti-harakatlarini boshqarish orqali mahnaviyatga ijobiy yoki salbiy tahsir o'tkazib turadi.

Ong eng avvalo insonni o'z-o'zini anglashi, tevarak atrofdan o'zini ajratish qobiliyati demakdir. Mahnaviyat ham insonni o'z-o'zini anglashidir. U holda ong bilan mahnaviyatning farqi nimada?

Muammo: Ongning mohiyatini, uning koinot evolyusiyasining tabiiy natijasi ekanligini tushunish, u bilan bog'liq jarayonlarni ilmiy talqin etish.

Ong anglash, voqelikni bilishdir. Mahnaviyat shu bilim, ong asosida olamga munosabat bildirish, baho berish va shu asosda amaliy faoliyat ko'rsatishdir. Mahnaviyat odamlarning odamlarga bo'lgan ongli munosabatida, tilida, dilida, harakatida namoyon bo'ladi. Kishilar iancha ongli bo'lsa, mahnaviyati shuncha yuksak bo'ladi.

E'tibor bering!

Falsafada ong masalasi eng murakkab va azaliy muammolardan hisoblanadi.

Ong nima? Ong keng mahnoda insoning o'z-o'zini, borliqni anglashi, voqelikni adekvat in'ikos etishi, bilimi va shu asosda tabiat, jamiyat va kishilarga bo'lgan ruhiy-mahnaviy munosabatidir.

Ongning kelib chiqishi va mohiyatini tushunishda uch omilga E'tibor berish odat bo'lgan. Birinchidan, ong inson miyasining tashqi olamni aks ettirish layoiatidir. Solom miyagina shu vazifani bajara oladi. Medisina, fizqologiya fanlari bu xulosaning to'g'riligini tasdqilaydi. Ikkinchidan, ong - voqelikning in'ikosidir, lekin oddiy emas, in'ikosning oliy shaklidir. In'ikosning istagan bir shakli ong bo'la olmaydi. In'ikosning eng oliy shakligina ong bo'la oladi. Uchinchidan, ong jamiyat taraqqiyotining mahsuli. Inson bqologik mohiyat sifatida tabiat barida dunyoga kelgan bo'lsa, ijtimoiy mohiyat sifatida jamiyat barida shakllangan va rivojlangan. Uning ongi ham tarixiy taraqqiyotning mahsulidir.

Odam bolasi solom miyaga ega bo'lsa ham, bari bir u insoniy mu'itdan ajralib qolsa, uning ongi rivojlanmaydi. Fan tarixida bunday misollar ko'plab uchraydi. Aytishlaricha, Hindiston sho'i Akbar iizii bir tajriba o'tkazadi. Uning topshiriiga binoan turli millat bolalarini boshqa odamlarga ko'rsatmay, faqat soiov enagalar tarbiyalaydi. Natija nima bilan tugashi sizga ayon. Yana boshqa bir misol, tropik mamlakatlarda tasodifan hayvonlar ichiga tushib qolgan mauglilar qismatini yodga oling. Hindistonlik professor Sin' Amola va Kamola ismli iizaloilarni bshrilar galasi ichidan topib oladi. Albatta, ijtimoiy mu'itdan ajrab qolgan bu bolalarning ongi, tili, tasavvurlari, qolaversa ularning hayoti insoniy mazmun va mohiyatdan mahrumdir. Ularning ongi rivojlandimi? Tili-chi? Nima uchun ular uzoq yashay olamadilar?

Demak, yuqorida qayd etganimiz uch omilni hisobga olsak, ong yuksak darajada tashkil topgan materiya-miyaning xususiyati, voqelik in'ikosining oliy shakli va kishilik tarixiy taraqqiyotining mahsulidir ekanligiga ishonch 'osil qilamiz. Shunday qilib ong inson miyasining layoiati, ob'ektiv olamning sub'ektiv obrazi, voqelikning umumlashgan va maqsadga muvofii in'ikosi, tarixiy taraqqiyot mahsuli, inson xulq-atvori va harakatini oqilona boshqarib va nazorat qilib turadigan hissiy va aqliy faoliyat birligidir.

Ong istak va mayllar, tahsirot va hissiyotlar, ruhiy kechinmalar, shy va xayollar, shuningdek g'oyalar, e'tiqodlar, qadriyat va ishllanmalar sifatida mavjuddir.

Ong o'zining strukturasiga ega bo'lgan yaxlit tizim. Uning tarkibiga quyudagi elementlar kiradi: sezgi, idrok, tasavvur, emosiyalar, o'z-o'zini his etish, kayfiyatlar, tafakkur, tushuncha, 'ukm, xulosa, g'oyalar, iroda, xotira, diqqat, kechinmalar. Bularning ichida sezgi, iroda, tasavvur, tafakkur, tushuncha ongning yadrosini tashkil etadi.

Falsafiy nuqtai nazardan qarasak, ong, ongli degan tushunchalarning teskarisi ongsizlikdir. Ongsizlik nima? Mahlumki, inson faoliyatining bir tomonida onglilik, ikkinchi tomonida ongsizlik yotadi.

Mutaxassislar fikricha, ongsizlik nomigagina mavjud emas, balki individ ruhiy
faoliyatining muhim tomonidir. Ongsizlikning bir iancha darajalari bor. Birinchi darajasi - inson o'z jismining extiyojlari ustidan shrnatilgan, ammo anglab yetilmagan ruhiy nazorat. Bu nazorat avtomatik, yahni ongsiz ravishda amalga oshadi, baozi istaklar, mayllar, tush ko'rishlar, i ruhiy holatlar ana shunday xususiyatga egadir.

Ongsizlikning ikkinchi darajasi ong bilan birga yonma-yon sodir bo'ladi ("fikr pishdi", "men shunday deb shylayman" yoki fikr tug'iladiyu, keyinroi anglab olinadi). Uning uchinchi darajasi badiiy, ilmiy, falsafiy kabi holatlar ifodalab, murakkabroi (intuisiya) tarzda namoyon bo'ladi.

Inson faoliyatida ongsizlik amal qilishining sababi uning tomonidan o'z faoliyatini avvaldan shylanmagan, nazarda tutilmagan maqsad sari yo'naltirilmaganligidir. Vaholanki, ongli faoliyatda avvalam bor ishning natijasi shylab olingan bo'ladi. Ammo amaldagi natija boshqacha chiqishi ham mumkin. Inson faoliyatida onglilik ustun turadi, aks holda uning insoniy mohiyati o'z mazmunini yo'qotadi. Ong haqida gap borganda, falsafa uning mohiyatini aoslashni maqsad qilib oladi.

Muammoli vaziyat: Ongning shakllanishida ijtimoiy omillar muhim o'rin tutadi. Tub mahnoda, inson ongi - ijtimoiy munosabatlar mahsulidir.

Ongning mohiyati nima? Yuqorida aytilganidek, ongning mohiyati uning voqelik in'ikosi ekanligidir. Ong borliqning o'zi emas, balki uning miyadagi nusxasi, obrazi. Boshqacha aytganda, ongning mohiyati uning mahnaviy hodisasi ekanligidadir.

Bu yerda moddiylik va mahnaviylik hodisalari to'g'risidagi masalani qisqacha ko'rib chiqish taqozo qilinadi. Avvalam bor moddiylik va

mahnaviylikning nisbati shundayki, ular o’zaro bolangan va dialektik aloqadorlikda mavjud bo’ladi.

Moddiylik tushunchasi odatda inson ongidan tashqarida, unga bog’liq bo’lmagan hodisalar, jarayonlarga nisbatan ishlatiladi. Masalan: tabiat, koinot, materiya, miya, fizqologik, bioximik jarayonlar va boshqalar. Moddiylik inson miyasida aks etib, mahnaviylik hodisasiga aylanadi va ong, ruh, tafakkur, nazariyalar, ijtimoiy ong shakllari tarzida namoyon bo’ladi.

Moddiylik va mahnaviylik o’zaro bolangan va bir biriga tahsir etib turadi. Sharoit, davr, zamonga qarab moddiylik mahnaviylikni va, yoki aksincha mahnaviylik moddiylikni belgilashi mumkin. Mahnaviy hodisalar, masalan, nazariya odamlar e’tiqodiga aylangach, moddiy kuch imkoniyatiga ega bo’lishi fanda e’tirof etilgan. O’zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida mahnaviylikning ustivorligi, uning ijtimoiy jarayonlarni boshqarishdagi ahamiyati ortib borayotir. Agar biz reallik nshitai nazaridan fikr yuritadigan bo’lsak, moddiylik ob’ektiv, mahnaviylik sub’ektiv reallik tushunchasiga kiradi. Ular shaklan ianchalik rang-barang bo’lishiga qaramay ob’ektiv mazmunga egadir.

Demak, ong voqelik in’ikosi sifatida real hodisadir. Bu o’rinda, tabiiyki, in’ikos tushusnchasi mahnosini bilib olish taqozo qilinadi.

In’ikos ikki narsa - sub’ekt bilan ob’ekt, tahsir etuvchi bilan tahsirlanuvchi orasida vujudga keladigan jarayondir Buning oqibatida ular o’zaro bir-biriga tahsir etadi,, bir-birida o’zgarish 'osil qiladi: bir-birida o’z izini qoldiradi.

In’ikos narsa va hodisalarning o’zaro tahsiri natijasida ularda 'osil bo’lgan o’zaro o’zgarishlardir. Masalan: ium ustida yurilganda odam oyoqning izi 'osil bo’ladi, piyolaga chertilsa jaranglaydi, toli joyda ovoz aks-sado beradi, mimoza shsimligiga ishl tegizilsa, o’zini tortib oladi, ikki predmet bir-biriga ishialab ezilsa, bir-birida ularning zarralari qoladi, tuproiia kislota tomizilsa, uni shyib tashlaydi va 'okazo. Keltirilgan misollar notirik tabiatdagi in’ikos shakllarini ifodalaydi.

In’ikos butun borliqia xos bo’lgan xususiyat. Shuning uchun qadimda odamlar borliqning barcha narsalari tirik va fikrlaydi, deb xulosa chiqarganlar. Úatto faylasuflarning baozi birlari shunday fikrda bo’lishgan. Masalan, birinchi yunon faylasuflari, Bruno va boshqalar. Bunday qarash gilozoizm (yunoncha gilio-modda, zoe-hayot), yahni barcha moddalar jonli degan nazariyaning kelib chiqishiga asos bo’lgan.

Tirik va notirik olamdagi in’ikos sifat jixatidan bir biridan fari qiladi. Notirik tabiatda in’ikos mexanik, fizik, kimyoviy qonunlarga muvofii sodir bo’ladi. Anorganik olamdagi jismlar tashqi omillarning tahsirida o’z ichki tuzilishini o’zgartiradi, buziladi yoki o’zgarib, boshqa shaklga kiradi. Masalan, tosh harorat o’zgarishi, suv, shamol tahsirida mayda zarrachalarga aylanishi mumkin. Kimyoviy elementlarga biror bir modda tahsir qilsa, reaksiyaga kiradi.

Materiya tuzilishining yuqori darajasidagi in’ikos uning quyu darajasidagidan sifat jixatidan mutloq fari qiladi. In’ikosning quyu shakllari jonsiz, anorganik olamga xos bo’lsa, uning yuqori shakllari tirik hayotga tegishli.

Hayot tabiat taraqqiyotining muayyan bosqichida vujudga keladi. Hayot tabiiy borliq harakatining maxsus, murakkab shaklidir. Hayotning muhim belgilari tahsirlanish, shsish, ko’payishdan iborat bo’lib, moddalar almashinuvi ularning

negizini tashkil etadi. Xuddi shu moddalar almashinuvi hayotning mohiyatini bildiradi.

Hayotning paydo bo’lishi va uning rivojlanishi bilan organizmlar ham rivoj topadi. Bqologik evolyusiya jarayonida organizmlarning tuzilishi asab tizimlarining murakkablashib borishiga muvofii holda tirik mavjudodga xos in’ikos shakllari vujudga keladi.

Tirik materiyaga xos bo’lgan in’ikos shakllariga quyudagilar kiradi: a) tahsirchanlik yoki io’zalish; b) sezgirlik, sezish yoki psixik in’ikos. Ijtimoiy taraqqiyot darajasidagi in’ikos shakllari esa tubandagicha: a)individning ongli in’ikosi - sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur va ong ;b) ijtimoiy ongning fan, sanoat va 'okazo ko’rinishidagi in’ikos; v) texnikadagi in’ikos, bu sistemalarni boshqarish bilan bog’liq in’ikos;

In’ikosning birorta quyu shakli ong tushunchasini bildirmaydi, agar shunday tartibda fikr yuritilsa, gilozoizmning xatolarini takrorlashga olib keladi. In’ikosning eng yuqori chshiiisida turgan shakli borki, biz uni ong deb aytamiz. Shuning uchun ong borliq in’ikosining oliy shaklidir.

Borliqni in’ikos etishda miyaning roli katta. In’ikos miyaga yuborilgan informasiya tufayli 'osil bo’ladi. Informasiya borliq haqidagi mahlumot sifatida miyada qayta ishlanadi, turli obraz, nusxa va belgilar sifatida olamni bilishga yordam beradi. .

Informasiya moddiy olam, undagi predmetlar, hodisalar va ularning in’ikosi bo’lgan ongimiz to’g’risidagi turli-tuman mahlumot yoki axborotdan iborat.

Informasiya - moddiy yoki mahnaviy bo’lishi mumkin. Materiyaning mexanik, fizik, ximik harakati shakllariga bog’liq informasiyalar moddiy informasiyalardir.

Kishilar o’rtasidagi fikr almashuv iuroli bo’lgan til vositasi bilan turli shakllarda berilgan informasiyalar g’oyaviy informasiyalardir. Informasiyalar til, signallar vositasida tariatiladi: signalsiz hech qanday informasiya bo’lmaydi va uzatilmaydi. Shunday qilib, in’ikos va informasiya o’zaro bolangan. In’ikos obraz bilan, informasiya belgi bilan ifodalanadi.

E’tibor bering: Ong o’zining strukturasiga ega bo’lgan yaxlit tizimdir.

Bilish ob’ektining kishi ongidagi in’ikosi natijalari obraz tushunchasi bilan bolangandir. Obraz aks etiluvchi ob’ektga nisbatan ikkilamchidir. Obraz belgilarda o’z ifodasini topadi. Belgi boshqa predmet, voqea yoki tahsirdan iborat bo’lib, informasiya olish va berish, saqlash, o’zgartirish uchun xizmat qiladi. Belgi obrazdan torroi tushuncha bo’lib, obrazning xususiy ko’rinishidir.

Ongning o’ziga xos bo’lgan muhim xusiyati uning faolligidir. Ongning faolligi inson tomonidan ob’ektiv qonuniyatlarni anglab, bilib olish va o’z manfaati yo’lida ulardan ijodiy foydalanishni nazarda tutadi.

Ongning ijodiy faolligi inson va jamiyat hayotining hamma sohalarida ko’rinadi. Inson o’zini tabiatdan ajrata boshlagan choidayoi ongning bu xususiyati namoyon bo’lgan edi. Ong faolligining yuqori bosqichi insonning o’z-o’zini anglashidan boshlangan Inson o’z aqli bilan tabiatda yo’q narsalarni yaratadi.

Inson ongi ob’ektiv olamni faqat aks ettiribgina qolmasdan, uni ijod ham qiladi. Dunyo insonni ianoatlantirmaydi, binobarin, inson o’z harakati bilan o’z extiyojlarini iondiradigan ikkilamchi buyumlarini yaratadi. Shu bilan birga o’zini ham o’zgartiradi. Ijodiyot ong, borliq hamkorligida yuzaga chiqadi.

Muammoning yechimini topish uchun quyudagi holatlar bo’yicha fikrlang.

1. Ong nima?
2. Miya nima?
3. Onglilik va ongsizlik.
4. Ong bilan mahnaviyatning farqi nimada?
5. Ong miya bilan bog’liqmi?
6. Ong va til.
7. Ong va ruhiyat.

Ongning faolligi haqidagi masala insonning ijodiyoti bilan uzviy bolangandir.

Qadimgi yunon faylasufi Aflotun ijodiyot xudoning insonga bergan qobiliyati degan edi. Ijodiyot, I. Kant fikricha, buyuk isteodod egalariga xos qobiliyatdir. Zigmund Freyd ijodiyotni ongsizlik sohasiga xos faoliyat, ijodiyot aqliy bilish bilan siishmaydi, degan g’oyani ola suradi.

Ijodiyot eng avvalo inson tomonidan yangi narsani ixtiro qilishdir. Uni yaratishda ongsizlik, ong, aql hamkorlik qiladi.

Inson yangi bilimlarni egalash, biror muammoni xal qila olish, yangi muammolarni tahriflash, nomahlum narsalarni bilish, biror bir faoliyatning yangi usullarini izlab topish qobiliyatiga ega. Uning kundalik hayotidagi qandaydir ixtirosi jamiyat uchun yangilik bo’lmasa-da, har holda ijodiyot bilan bog’liqdir.

Madaniyat, sanoat, adabiyot, fanda tor mahnodagi ijodiyot o’z natijalari bilan yangi narsaning yaratilishidir. O’zbekiston da yangi fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat, o’zbekona bozor iqtisodi nazariyasi va amaliyotining yaratilishi, bu sohadagi muvaffaqqiyatlar ijodiyotning yoriin namoyishidir.

Ijodiyotni amalga oshirishda intuisiya (muroiaba, bevosita karomat)ning roli katta. Inson ijodiy faoliyati ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-mahnaviy solom shart-sharoitlarga bog’liq. Shuni E’tiborga olib O’zbekiston 'ukumati insonning ijodiy imkoniyatlarini tshlii namoyon bo’lishi uchun zarur bo’lgan shart-sharoitlarni yaratib berish haqida alohida amxshrlik qilmoqda. Qobiliyatli, ilmga chanioi yoshlarni tanlab chet ellarga yuborib o’qitishni tashkil etilayotganligi ham ijodiyotga keng yo’l demakdir. Iitidorli yoshlarni ishllab-iuvvatlash uchun "Umid" jamarmasining tashkil etilishi, oliy shiuv yurtlarida bosqichli tanlov konkurslarining o’tkazilib turilishi, talantlarni anqilash, ularga amaliy yordam berilayotganligi ham shunga qaratilgan.

Ijodning irsiy, ruhiy va ijtimoiy jixatlari bor, albatta. Ijodiyotning irsiy jixatlari
to’g’risida gapirganda hozirgi zamon genetikasi irsiyat bilan bog’liq bo’lgan tuma xususiyatlarni ochish, ularni mahlum maqsadga yo’naltirishning anii yo’llarini izlash sohasida sezilarli natijalarga erishish oldida.

Ijodiyotning ruhiy-psixologik jixatlari mazkur jamiyatdagi ijod erkinligi, tafakkur erkinligi, fikr xilma-xilligi bilan bog’liq.

E’tibor bering: Úayvon ijod qilish qobiliyatiga ega emas. Inson esa ongi tufayli ijod qiladi va yaratadi.

Shu bilan birga ijodiyotni muayyan mafkuraga zshrlik bilan bo’ysundirish mumkin emas, buning zararli oqibatlari va ularning natijalari yaqin o’tmishdan mahlum.

Ijodiy jarayon bosqichlari qobiliyat, talant isteodod, daho, geniy tushunchalari bilan bolangandir. Chunonchi, qobiliyat shaxsning xatti-harakatini tartibga soladigan ruhiy psixik xususiyatlar yig’indisidir.

Inson qobiliyati tarixiy taraqqiyot mahsulidir. Qobiliyat insoniyat erishgan taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Yaratuvchilik qobiliyati insonning eng iudratli iuroli bo’lib, shu asosda inson ijodiyot olamiga kiradi.

Qobiliyat talant tushunchasiga yaqin turadi, ammo ular shrtsida muayyan fari ham bor. Talant yunoncha so’z bo’lib, buyuk tuma sifat, alohida tabiiy qobiliyat, layoiat degani. Isteodod esa qobiliyat, talant va layoiatning yuqori bosqichi. Ijodiyotning eng yuksak chshiiisi geniylik-daxolik bo’lib kamdan kam odamga nasib etadi.

Yodda tuting: Yuksak darajada tashkil topgan miya normal funksional faoliyat ko’rsatishi natijasida ong, ong hodisalari yuzaga keladi. Ongning eng muhim xususiyati uning ijtimoiy mazmuni bilan belgilanishi yuqorida aytib o’tildi. Uning bu fazilati ayniisa ijtimoiy ong tushunchasida to’laroi namoyon bo’ladi.

Ijtimoiy ong deb ijtimoiy borliqni aks ettiradigan ijtimoiy qarashlar, kayfiyatlar, his-tuyular, g’oyalar yig’indisiga aytiladi. Ijtimoiy ong individual ongning mexanik yig’indisi emas. Ijtimoiy ong individ ongidan o’zining umumiyligi, butun jamiyatga tegishli ekanligi bilan fari qiladi. Ijtimoiy ongning o’ziga xos xususiyati uning ijtimoiy borliqia nisbatan nisbiy mustaqilligida namoyon bo’ladi. Buning mahnosi shuki, u,: birinchidan, ijtimoiy borliqdan orqada qolishi yoki tezlab ketishi mumkin. Ijtimoiy borliq tez, ijtimoiy ongning ayrim shakllari esa sekin o’zgaradi. Masalan, axloq, din kabi ijtimoiy ong shakllari o’ta yashovchan bo’ladi. Diniy va axloqiy qarashlar kishilarning mahnaviy mulki bo’lib qolganligi tufayli ularni keltirib chiqargan sharoit yo’q bo’lib ketsa ham, ular an’anaga, odatga aylanib uzoq davrlar saqlanib qoladi. Shuningdek ijtimoiy ongning ayrim shakllari (masalan, badiiy adabiyot, fan nazariyalari) mavjud ijtimoiy borliqdan oldinlab ketishi ham sir emas. Ilor mutafakkirlar jamiyat taraqqiyotining umumiy qonunlarini analiz qilish asosida kelajakda bo’ladigan hodisalarni oldindan aytib beradigan nazariyalar yaratishlari mumkin.

Ikkinchidan, ijtimoiy ong o’zrivojlanishida vorislik tamoyillariga suyanadi. Yangi ijtimoiy g’oyalar o’tmish merosga asoslanib rivojlanadi. Ijtimoiy borliqda o’zgarish bo’lsa ham odamlar o’tmishda yaratilgan mahnaviy boyliklardan, axloq, fan adabiyot, sanoat, falsafa va boshqa ijtimoiy ong shakllaridan keng foydalanadi. Bunday vorisliksiz mahnaviyat, ijtimoiy ong shakllari rivojlana olmaydi.

Uchinchidan, ijtimoiy ong shakllarining jamiyat taraqqiyotidagi faol o’rni ular (g’oyalar, nazariyalar)ning inson turmushini yaxshilanishidagi ahamiyati bilan tasdqilanadi. Ilor g’oyalar kishilarni birlashtiradi, muayyan vazifalarni bajarishga daovat etadi. Yetilgan muammolarni xal qilishga yordam beradi. Eskirgan qoloi g’oya va qarashlar jamiyat taraqqiyotiga tshsqilik qiladi. Binobarin, "toki dunyoda taraqqiyotga intilish, bunyodkorlik hissi bor ekan, jamiyatda ilor g’oyalar tug’ilaveradi" (Milliy istqilol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. 2000,11-bet)

Ijtimoiy ong haqida so’z yuritilganda kundalik ong, nazariy ong tushunchalarini ham tavsiflash zarur. Kundalik ong kishilar amaliy faoliyatining tashqi, nazariy ong uning ichki, muhim tomonlarini aks etiradi. Amaliy kundalik va nazariy ong bir-biri bilan uzviy bolangan, ammo ular bir-birining o’rnini bosa olmaydi. Kundalik ongga qarab ijtimoiy hodisalar haqida bah' berish mumkin. Ammo uning xulosalari noto’g’ri bo’lishi ham e'timoldan yiroi emas. Ijtimoiy ongning yana bir darajasi ijtimoiy psixologiyadir. Ijtimoiy psixologiya deb kishilarning kundalik hayot sharoitlari tahsiri ostida tug’iladigan tuyular, kayfiyatlar, kechinmalar, odatlar, xayollar va fikrlar yig’indisiga aytiladi. Ijtimoiy psixologiya o’zining jo’shqinligi, his-'ayajonga to’laligi, tahsirchanligi bilan kishilarni o’z ortidan ergao’tiradi, turli harakatlarga rabarlantiradi. Ijtimoiy psixologiyani bilish, yahni kishilar kayfiyatini o’rganish ularning muayyan hodisa va siyosiy harakatlarga munosabatini oldindan ko’ra bilishda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy psixologiya bilan mafkura bir-biriga tahsir etib turadi. Mafkura muayyan ijtimoiy gurux yo qatlamning, millat yoki davlatning extiyojlarini, maqsad va intilishlaprini, ijtimoiy-mahnaviy tamoyillarini ifoda etadigan g’oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir. (Milliy istqilol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Oliy shiuv yurtlari uchun ishllanma. T. "Yangi asr avlodi", 2001, 31-bet) Ijtimoiy psixologiya ijtimoiy qarashlar, g’oyalar va nazariyalarning shakllanishiga kuchli tahsir qiladi. Mafkura va ijtimoiy psixologiyaning farqi shuki, mafkura ijtimoiy ongning yuqori, ijtimoiy psixologiya esa uning kshyi darajasidir.

Mafkura nazariy bilish shakli bo’lib, voqelikni bevosita emas, balki bilvosita aks ettiradi. Mafkura o’z tuzilishiga ko’ra siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy, falsafiy shakllarni o’z ichiga oladi.

Taraqqiyot mafkurasiz bo’lmaydi. Mafkura jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, mahnaviy rivojlanishiga mahlum bir maqsad va yo’nalish beradi. Respublikamizda shakllangan va rivojlanib borayotgan milliy istqilol mafkurasi o’z oldiga ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni taominlashni bosh maqsad qilib ishyadi, uning vatan ravnaii, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamjixatlik, millatlararo totuvlik, diniy bari kenglik kabi asosiy g’oyalari ana shu umumiy g’oyadan kelib chiqadi. Prezident I.A.Karimov yozganidek, "mafkura bo’lmasa, har qaysi davlat va, jamiyat, qolaversa, har qaysi inson o’z yo’lini yo’qotishi mumkin" (Milliy istqilol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. "O’zbekiston ", 2000, 5-6 bet) Milliy istqilol mafkurasi odamlarimizda mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi, bu uning asosiy

vazifasidir. Ayni vaqtda respublikamizda mafkuralar plyuralizmi ham huquqiy jixatdan kafolatlangan.

Ijtimoiy ongning xilma-xil shakllari mavjud: axloq, diniy, estetik, siyosiy, huquqiy, falsafiy, ekologik qarashlar, demokratik ong, iqtisodiy ong va boshqalar.

Ijtimoiy ong shakllari to'rtta belgiga qarab bir-biridan fari qiladi. in'ikos ob'ekti; shakllari ; rivojlanishning o'ziga xos tomonlari; ijtimoiy funksiyalari bo'yicha.

Yodda tuting!

Inson o'zining ongli faoliyati bilan tabiatdan fari qiluvchi "ikkilamchi tabiatni" va ayni choda "ijtimoiy mu'itni", yahni jamiyatni yaratadi.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar

1. Ong deganda nimani tushunasiz? Ongning kelib chiqishi va mohiyatini tushunishda qanday omillarga suyanish lozim?
2. Ongsizlik nima?
3. In'ikos va ong munosabatini izoxlang?
4. Ong va ijodiyot o'rtasidagi aloqadorlik qanday xarakterga ega?
5. Ijtimoiy ong, uning mazmuni, mohiyati va shakllarini tavsiflang.

Adabiyotlar:

Karimov I.A. O'zbekiston ning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiibolining asosiy tamoyillari. T. "O'zbekiston ", 1994.
Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.T. "O'zbekiston ", 1999.
Karimov I.A. Milliy istqilol mafkurasi -xalq e'tiqodi va kelajakka ishonchdir. T."O'zbekiston ", 2000.
Milliy istqilol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. "O'zbekiston ",2000.
.Milliy istqilol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.(Shiuv ishllanma). T."Yangi asr avlodi", 2001
Falsafa. Shiuv ishllanma, T. "Sharq", 1999.
Falsafa. Mahruzalar matni. T. 2000

## **7- Mavzu.** Falsafiy metodlar, qonunlar, kategoriyalar

**REJA:**

1.Rivojlanish va o`zaro aloqadorlikning umumiy qonuniyatlari.
2.Falsafiy qonunlar
3.Falsafiy kategoriyalar

Mavzuning tayanch iboralari: taraqqiyot, qonun, bog'lanish, kategoriya, sifat, miqdor, meyor, inkor, ziddiyat, sinergetika, tadrijiy rivojlanish.

Mavzuning maqsadi: Olamdagi narsa va hodisalarning harakati, o’zgarishi, rivojlanishi, ularning o’zaro aloqadorligi va o’zaro tahsiri mohiyatini ochish.

Muammo: Olamda o’z-o’zidan, tasodifiy rivishda hech qanday harakat ham, o’zgarish ham yuz bermaydi. Ular mahlum qonunlar asosida amalga oshadimi?

Jahon siyosiy hayotidagi jiddiy o’zgarishlar, shuningdek O’zbekiston da milliy istqilolning amalga oshirilishi falsafadagi ko’pgina anonaviy tushunchalarga yangicha tafakkur nuqtai-nazardan qarashni taqozo qiladi. Taraqqiyot, uning manbai, dialektika kabi tushunchalarga bugungi fan, ijtimoiy hayot tajribalari asosida yondashilayotganligining sababi ravshan. Dialektika o’rniga sinergetika (ilmiy tadqiqotlarning fanlararo yo’nalishi haqidagi metod)ni ishyish, qarama-qarshiliklarning kurashi haqidagi Tahlimot o’rniga ularning uyunligi, revolyusiya o’rniga evolyusiya, dialektika o’rniga murosasozlik falsafasini ishyish tendensiyalari ko’zga tashlanadi. Bu takliflarda jon bor ekanligini tahkidlash bilan birga, har qanday Tahlimotlar iorishmasini falsafa o’rniga tiiio’tirish falsafaning ming yillarni o’z ichiga olgan boy tajribasidan, muammolaridan voz kechishga olib kelmasligini ham esdan chiqarmaslik kerak. Biz mazkur mavzuni yoritishda o’zgarish, harakat, taraqqiyot, bog’lanish tushunchalari mazmunini bilib olish lozim. Shuni alohida tahkidlash joizki, olamdagi narsa-hodisalar eng kichik zarrachalardan tortib, to osmon jismlarigacha, oddiy organizmlardan tortib, to inson jamiyatiga qadar doimo o’zgarish, harakat va rivojlanish jarayonlarini boshidan kechirib turadi, ular o’rtasida abadiy o’zaro aloqadorlik, o’zaro tahsir, o’zaro bolqilik amal qiladi. Tevarak-atrofimizda hech qachon biror-bir hodisa o’zgarishsiz, harakatsiz voie bo’lmaydi. Shunday ekan o’zgarish harakat, o’zaro bog’lanish, taraqqiyot chegaralarining qisqacha falsafiy mahnosini tushunib olishimiz kerak. "Harakat" tushunchasi kundalik muloiotda olamda yuz beradigan har qanday o’zgarish mahnosini bildiradi. Bu - jismning makonda o’rin almashinishi deganidir. Falsafiy tilda esa mexanik harakat atalib, uning eng oddiy shaklidir. Oldingi mahruzalarimizda qayd etilganidek, harakatning bir qadar murakkab shakllari (fizik, ximik, bqologik, ijtimoiy va b.) ham mavjud.

Harakatning barcha shakllari o’zaro bolangandir. Chunonchi, oddiy mexanik harakatni olib ko’raylik. U oddiy qismlarning bir-biriga o’tishi, elektromagnit va gravitasion maydonlarning o’zaro tahsiri, mikroolamdagi kuchli va kuchsiz o’zaro tahsirlarning keng miiyosdagi jarayonlari bilan belgilanadi. Harakat shakllari bir-biriga o’tib turadi, harakat hech qachon mutloq sukunat holatida bo’lmaydi, binobarin, sukunatning o’zi ham harakatdir, shunday harakatki, bunda narsa-hodisalarning sifat ko’rinishi o’zini saqlab turadi, ularning shakli va makondagi o’rni esa buzilmaydi, Biroq muayyan o’zgarishlarni boshidan kechiradi.Ko’rinadiki, harakat, bir tomondan, moddiy jismlar, shuningdek ularni tashkil etadigan elementlar o’rtasidagi aloqadorlikning natijasi, ikkinchi tomondan, ulardagi o’zgarishlar tarzidir.

O’zgarishlar makondagi oddiy siljishdan tortib, murakkab ijtimoiy rivojlanishlargacha takomillashib boradi. Yuqoridagi fikrlarga chuqurroq E’tibor berilsa, o’zgarish, harakat jarayonlari narsa-hodisalar o’rtasida yuz beradigan o’zaro aloqadorlik, o’zaro bog’lanishsiz amal qila olmasligiga ishonch 'osil

qilamiz. Aytish mumkinki, narsa-hodisalarning o'zgarishi, harakati va rivojlanishiga ular o'rtasidagi bog'lanish va aloqadorlik, tahsir va aks tahsir sabab bo'ladi. Biroq har qanday bog'lanish ham rivojlanishga olib kela bermaydi. Buning sababi shundaki, ular mohiyati, tahsir kshlami va doirasi jixatidan rang-barang bo'lib, zaruriy va tasodifiy, ichki va tashqi, bevosita va bilvosita, muhim va muhim bo'lmagan turlarga bo'linadi. Shu mahnoda olamda boshqa narsa-hodisalardan alohida, ular bilan bolanmagan, o'zaro aloqadorlikda va tahsirda bo'lmagan voqea-hodisa mavjud emas.

Muammo: Rivojlanish va o'zaro aloqadorlikning falsafiy talqin i va mohiyatini ochish. Taraqqiyot - borliqni, undagi narsa va hodisalarni quyudan yuqori holatga tomon harakat qilish jarayoni bo'lib, buning natijasida eski sifat o'rniga yangi sifat vujudga keladi. Taraqqiyotning ibtidosi bo'lganidek, intihosi ham bo'ladi. Biror davrning tugashi yangi davrning ibtidosini boshlab beradi. Yangi davrda o'tgan zamonning baozi xususiyatlari takrorlanishi muiarrar. Taraqqiyotni turli metodlar, nazariyalar o'rganadi. Masalan: metafizika, dialektika, sinergetika, mantiq va x.k. Taraqqiyot - borliq, undagi narsa va hodisalar miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'zaro o'tish, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, inkorni inkor jarayonidir. Taraqqiyot oddiy miqdor o'zgarishlari emas, balki sifat o'zgarishlaridir. Falsafada shu asosda rivojlanish va taraqqiyot qonunlari tadqiq etiladi. Qonunlar borliqdagi narsa va hodisalarning aloqa va bog'lanishlari ifodasidir. Eng qadimgi zamonlardan buyon odamlar borliqdagi hodisa va buyumlar orasida o'zaro bog'lanish, o'zaro tahsir va munosabatlar borligini payiaganlar. Bu - olamga taraqqiyot nuqtai nazardan yondashuv natijasi edi. "Dialektika" so'zi asli qadimgi yunon tiliga mansub bo'lib, uni Sharq mamlakatlari ilmida, xususan arab tilida ilk bor Abu Nasr Forobiy "jadl", "jadli", "jadal" tarzida ishllagan. "Jadal" so'zi harakat, tezlik, tezlanish, rivojlanish, o'zgarish, intilish kabi mahnolarni anglatadi. Tabiat va jamiyatdagi barcha hodisalar nedir bir narsaning tahsiri, turtkisi, agar u tarkibli tizimi bo'lsa, qismlarning o'zaro tahsiri sababli ro'y beradi. Bunday yondashuvning dastlabki namunalari zardsho'tiylikning muiaddas kitobi - "Avesto" da, keyinroi Sharq mutafakkirlari asarlarida, va nihoyat, yunon faylasuflari ijodida uchraydi. "Avesto" va "Metafizika" (Arastu) kitoblarida bayon etilgan dialektika Forobiy, Ibn Sino va boshqalar asarlarida rivojlantirilib, hozirgi zamongacha yetib keldi va 'anuz jahon falsafasida asosiy tamoyillardan muhimi sifatida xizmat qilib kelmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov kitoblarida hozirgi zamon dialektikasining asosiy masalalari tahkidlab o'tilgan. Dialektikaning o'zagi hisoblangan ziddiyat haqida gapirar ekan, I.A.Karimov shunday yozadi: "endilikda yadro maydonlarida bo'layotgan qarashlar ko'p narsani xal qiladi... Aslida hayotning o'zi turli-tuman g'oyalar kurashidan, bahsu munozaralardan iborat. Taraqqiyotning mahno-mazmuni, kerak bo'lsa, falsafasi ham ana shunda". "Million-million odamlarning qalbidagi ezgu intilishlarini, ularning hayot mazmunini ifoda qilish oson emas. Buning uchun biz dialektika qonuniyatini, yahni muayyan bir shaxs bilan butun bir xalq orzu-intilishlarini uyun holda qanday aks ettirish masalasini yaxshi tushunib olishimiz zarur"1. Taraqqiyot va o'zaro aloqadorlikning falsafiy g'oyalari dastlab stixiyali shaklda ifoda etilgan edi. So'ngra uzoq tarixiy taraqqiyot natijasida olamni bilish nazariyasi va

metodologiyasi sifatida tarkib topadi va rivojlanadi. Taraqqiyotning qonunlari va kategoriyalari falsafa ilmining buyuk donishmandlari tomonidan kashf etilgan.

Qonun nima?

Qonun deb voqelikdagi buyum va hodisalar o'rtasidagi muhim, ichki, zaruriy, takrorlanadigan, ob'ektiv bog'lanishlarga aytiladi. Muhim bo'lmagan, tasodifiy bog'lanishlar qonuniyatli bog'lanishlar emas.Fan uchun qonuniyatli bog'lanishlarni o'rganish muhimdir. Fanning vazifasi qonuniyatni anqilash va qonunni ochishdir. Qonunlar xilma-xil bo'ladi: tabiat qonunlari, jamiyat qonunlari, mantiq qonunlari, fan qonunlari va falsafiy-dialektik qonunlar. Tahsir doirasiga ko'ra qonunlar xususiy, umumiy va eng umumiy bo'ladi. Taraqqiyot qonunlari eng umumiy qonunlar sirasiga kiradi. Nemis faylasufi Gegel ana shunday qonunlardan uchtasini ochgan.

Ular quyudagilar:

1. Miqdor va sifat o'zgarishlarining o'zaro bir-biriga o'tish qonuni.
2. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni.
3. Inkorni inkor qonuni.

Taraqqiyot va o'zaro bog'lanishlarning asosiy bo'lmagan qonunlari ham bor. Ularni odatda kategoriyalar deb yuritiladi. Ular juft kategoriyalardir. Kategoriyalarning o'zaro qonuniy bog'lanishlarini ham Gegel ochgan.

Har bir fanning kategoriyasi bo'lganidek, falsafaning ham kategoriyalari mavjud. Kategoriya deb buyum va hodisalarning eng muhim va eng umumiy xossalarini, tomonlari va munosabatlarini aks ettiruvchi tushunchalarga aytiladi.

Kategoriyalar toi, juft yoki hamnisbat bo'lishi mumkin. Toi kategoriyalar: borliq, substansiya, materiya, ong, harakat va boshqalar. Úamnisbat kategoriyalar: ayrimlik, xususiylik va umumiylik, sistema, struktura va element.

Juft kategoriyalar: ayrimlik va umumiylik; sabab va oqibat; mazmun va shakl; zaruriyat va tasodif; mohiyat va hodisa; qism va butun; imkoniyat va voqelik. Gegel "Mantiq fani" asarida asosiy qonun va kategoriyalarni tahriflagan. Uningcha, dialektika (taraqqiyot to'g'risidagi Tahlimot), mantiq va bilish nazariyasi bir biriga mos tushunchalardir. Taraqqiyotning falsafiy mazmunini, mohiyatini ochishda unga zid bo'lgan bir qator tushunchalar mahnosini bilib olish lozim. Metafizika, eklektika, dogmatizm, indeterminizm, sofistika, regress ana shunday tushunchalardan hisoblanadi. Dogmatizm - aqidaparastlik demakdir. U bir xil andozada iotib qolgan qoidalarga suyanadi, yangilanishni, ijodiylikni inkor etadi. Úaiiiat sharoit, o'rin va vaqtga bog'liq degan qoidaga amal qilmaydi. Dialektika nomi bilan yuritiluvchi taraqqiyot g'oyasi esa har bir hodisa, Tahlimot vaqtga, joyga, sharoitga bog'liq holda o'zgarib turadi, deb Tahlim beradi. Eklektika - bir-birini inkor qiladigan tuturiisiz fikrlarni sunoiy ravishda birlashtiradigan nuqtai nazar, turli qarashlarni bir-biriga aralao'tirib yuborish usulidir. Indeterminizm hodisalar o'rtasidagi sababiyatning qonuniy ekanligini rad etadi. Boshqacha aytganda, sababiy qonuniyatning ob'ektivligini asoslab beruvchi determinizmning aksidir. Sofistika - eng qadimgi soxta munozara yuritish sanoati bo'lib, tinglovchini adao'tiradigan, haqiqatni yolon, yolonni haqiqat deb eolon qiladigan usuldir. Bu xaqida oldingi mahruzalarda aytib o'tildi. Regress - taraqqiyotning yuqori bosqichidan quyu bosqichiga qarab iaytishi bo'lsa, progress

taraqqiyotning quyudan yuqorilab borishini bildiradi.  Borliqni o’rganishda falsafa o’z tamoyil(prinsip)lari asosida ish ko’radi. Tamoyillar borliqni bilish va izoxlashdagi eng muhim g’oyalardir. Hozirgi zamon falsafasida quyudagi tamoyillardan keng foydalaniladi: 1) taraqqiyot tamoyili; 2) umumiy aloqadorlik tamoyili; 3) tarixiylik tamoyili; 4) sababiylik tamoyili; 5) tizimiylik tamoyili va x.k. Bulardan eng xarakterlisi taraqqiyot va o’zaro bog’lanish tamoyili to’g’risida yuqorida aytib o’tildi. Taraqqiyot qonunlaridan birinchisi miqdor o’zgarishlarining sifat o’zgarishlariga o’zaro o’tish qonuni deb yuritiladi. Mazkur qonun sifat, miqdor, me’yor kategoriyalari bilan ish ko’radi. Sifat deb narsa va hodisalarning muhim xususiyatlari majmuasiga aytiladi. Har bir narsa asosiy va asosiy bo’lmagan, muhim va muhim bo’lmagan xususiyatlarga ega. Asosiy 'ususiyatlar o’zgarsa, sifat ham o’zgaradi. Sifat narsa va hodisalarning o’zaro bir-biridan farqini bildiradi, ayni vaqtda sifat narsalarning umumiy tomonlarini ham ifodalaydi. Masalan, paxta shsimligini olaylik. Uning oiligi, tolasining yumshoiligi, mayinligi paxtaning asosiy bo’lmagan xususiyatlaridir. Paxta tolasining uzun-kaltaligi, pishqiligi, yshon-ingichkaligi asosiy asosiy  xususiyatlari bo’lib, ular birgalikda "paxtah' degan sifat(narsa)ni tashkil etadi. Shakarning sifati uning maydaligi yoki oiligi emas, balki shirinligidir. Ialampirning sifati uning iizilligida emas, balki achchiqligidir. Sifat miqdor bilan bolangan. Miqdor nima? Miqdor deb narsalarning soni, katta-kichikligi, hajmi va boshqa kattaliklarni ifodalovchi tushunchaga aytiladi. Miqdor narsalar shxshashligi, bir xilligini bildiradi. Masalan: axolining soni miqdorni bildiradi. Sifat va miqdor o’zaro bolangan, ular birligining me’yor(o’lchov) taominlaydi. Sifat va miqdor nisbati shundayki, miqdor o’zgarsa, narsa o’zgarmay qolishi mumkin. Biroq uning ham me’yori bor. Xalq maqolida aytilganidek, "toma-toma kshl bo’lur, tommay qolsa, chshl bo’lur", "oz-oz o’rganib dono bo’lar". Boshqa bir misol: suvni iizitishni mahlum nuqtagacha davom ettirsak, suv o’z sifatini o’zgartirmaydi, Biroq bu jarayon yanada davom ettirilsa, harorat yuz darajagacha yetgach, suv buga aylanadi, demak sifat o’zgarishi yuz beradi. Bunda suvning me’yori buziladi. Me’yor nima? Me’yor - sifat va miqdor birligidir. Me’yor shunday bir chegaraki, uning ichida miqdor o’zgaraveradi, sifat esa mahlum vaqtgacha o’zgarmaydi. Har bir narsaning o’z me’yori bor. Masalan: suvning me’yori 100 daraja, oltinniki 1063 daraja, misniki 1083 daraja va h.k. Me’yor buzilsa, sifat o’zgaradi. Shuning uchun tabiat, jamiyat, shaxsiy hayotda hech narsa me’yoridan oshmasligi kerak, aks holda yemirilish yuz beradi. Gapning ham me’yori bor, oviat tuzi me’yoridan oshsa, uni isteomol qilish mumkin bo’lmay qoladi, kulgu me’yori buzilsa, yiiga aylanadi, tejash me’yoridan oshsa, xasislik kelib chiqadi. Ulu faylasuf shoir Mirzo Bedilning quyudagi so’zlarini yodlab olish foydadan xoli emas:
"Uzluksiz shodlik ham keltiradi am, Úaddan ortii bazm - misoli motam".

Sifat o’zgarishi "sakrash" lar orqali yuz beradi. Sakrash deb eski sifat o’rniga yangi sifatning vujudga kelishiga aytiladi. Sakrash taraqqiyotdagi tub burilishdir; sakrash davrida taraqqiyotda uzilish bo’ladi, ammo narsaning rivoji davom etadi va tezlashadi. Masalan: 1991 yil 31 avgustda O’zbekiston da sifat o’zgarishi (sakrash) yuz berdi, 1-sentyabr - Mustaqillik kuni deb eolon qilindi, milliy rivojlanishning tezlashuvi uchun zamin yaratildi.

Hayotning paydo bo'lishi, dehqonchilikda yangi navlarning yaratilishi, tub ijtimoiy o'zgarishlar "sakrash" ga misol bo'ladi. Bilimda texnikaning paydo bo'lishi, yangi texnologiyalarning ixtiro qilinishi ham shunday.

E'tibor bering:
Borliq bepoyon aloqadorliklar va bog'lanishlar majmuidir.

Tezlik bilan bo'ladigan sakrashlar bilan asta-sekin bo'ladigan sakrashlarni fari qilish kerak. Ammo har ikkisining mohiyati ham bitta: sifat o'zgarishiga olib keladi. Sifat o'zgarishi taraqqiyotdagi uzilish paytini ifodalasa, miqdoriy o'zgarish uzluksizlikni bildiradi. Taraqqiyot uzluklik va uzluksizlik birligidan iborat. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni. Hozirgi davrda murosa falsafasini ola surayotgan ayrim tadqiqotchilar qarama-qarshiliklar birligi va kurash qonuniga qandaydir E'tiborsizlik bilan qaramoqdalar. Bu qonunda ayb yo'q. Ayb hamma vaqt o'zimizda, undan qanday foydalana bilishimizda. Qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarni mutloqlao'tirish bir yoilamalikka, siyosatda xatolarga olib kelishini yaqin o'tmishda kshrdik. Taraqqiyotning bu qonuni mazmunini to'g'ri tushunmaslik tabiatda qarama-qarshiliklarni, jamiyatdagi ob'ektiv ziddiyatlarni inkor qilishga, hayotni rangsiz, bshyoisiz tasvirlashga, nihoyat sub'ektivizmga olib kelishi mumkin. Bunda bir xatardan iochaman deb ikkinchisiga giriftor bo'lishi e'timoli yo'q emas. Bu qonun qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar, tafovut va ayniyat tushunchalari orqali ifodalanadi. Inson har bir iadamda qarama-qarshiliklarga duch keladi. Har bir narsa, har bir hodisa
qarama-qarshiliklarning birligidan iborat. Koinotda odamlarga osmon va Yer biri uzoq, ikkinchisi yaqin, tabiatda iish-yoz, sovui-issii, kecha-kunduz, qorong'u va yoru borligini o'z tajribalaridan biladilar. Hayotda vijdonli-vijdonsiz, odobli-odobsiz, bilimli-bilimsiz, madaniyatli-madaniyatsiz, ishbilarmon-boqimanda, uiuvli-uiuvsiz, puldor-pulsiz, dono-nodon va h.k. kabi tushunchalar uchrab turadi. Ilgari sosializm-kapitalizm, materializm-idealizm, proletariat-burjuaziya, iizillar-oilar kabi ikki iutbli (bipolyar) ziddiyatlar e'tirof etilardi. Bugungi kunda bunday yondashuvlar o'z iimmatini yo'qotdi. Endi ziddiyatlar ko'p iirrali, rang-barang, ko'p iutbli (bipolyar) qarama-qarshiliklardan tarkib topmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" asarida quyudagilarni tahkidlaydi: "Totalitar tuzum yemirilganidan keyin dunyoning iutblarga bo'linishi barxam topdi .... Ikki mafkuraviy tuzumning kurashi va bu kurashning xalqaro hayotning hamma sohalariga sg'oya tashlashi ostida o'tgan kuchli qarama-qarshilik barham topdi. Ammo shundan keyin ham bizni iurshab turgan dunyo, ko'plar kutganidek, osoyio'taroi bo'lib qolgani yo'q. Unda mojarolar kamaymadi. Dunyoda yangi tartiblarni shakllantirish jarayoni mintaialar darajasidagi va mintaialar ichidagi eskidan saqlanib kelayotgan, zimdan tutab yotgan, har xil tarixiy, etnik, siyosiy, diniy va boshqa sabablarga ega bo'lgan mojarolarning keskinlashuvi bilan birga yuz berdi. Bu mojarolar ilgari ikki tuzumning dunyo miiyosidagi qarama-qarshiligi doirasida ko'pincha u yoki bu kuchlar iutbining manfaatlari yo'lida "bostirib kelingan" edi. Bundan tashqari, yangi mintaiaviy mojarolarning vujudga kelishi va ularga turli tashqi kuchlar o'z jshrofiy-strategik

